



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 3

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

APRIL 2024

WWW.AJERUZ.COM



International Scientific Journal
AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
April 2024

Tashkent 2024

“Academic Journal of Educational Research (AJER)” xalqaro ilmiy jurnali,
3-son, 1-81 varaq. Aprel, 2024

“Academic Journal of Educational Research (AJER)” jurnali Respublikamizdagi va Xalqaro oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va mustaqil ilmiy izlanuvchilar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ilmiy maqola tarzida chop etadi. Shuningdek, jurnalga Xalqaro va Respublikamizning boshqa ilmiy dargohlari, ishlab chiqarish tashkilotlari va korxonalarida faoliyat ko’rsatib, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan xodimlarning ham ilmiy maqolalari kiritiladi.

Barcha maqolalar jurnalning elektron ilmiy bazasiga www.ajeruz.com ga joylashtirildi.

Tahririyat jamoasi

Bosh muharrir
Bosh muharrir o‘rinbosari
Texnik muharrir

Arziqulov Zayniddin
Nurmamatov Sheroy
Lutfiddinov Ziyodxon

Ilmiy tahririyat kengashi	
Myxamedov Gafurjon Isroilovich	O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, Kimyo fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Eshchanov Baxodir Xudayberganovich	Fizika-matematika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tadjibaev Ikrom Uralbayevich	Fizika-matematika fanlari doktori, dotsent Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Fayzullaev Normurot Ibodullaevich	Texnika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc), professor Samarqand davlat universiteti
Qurbanova Aypara Djoldasovna	Kimyo fanlari nomzodi, dotsent Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kimyo kafedrasini mudiri AJER xalqaro ilmiy jurnali tahrir hay‘ati a‘zosi
Abduraxmonov Ergashboy	Kimyo fan doktori, professor Samarqand davlat universiteti
O‘roqov Sirojiddin Xudayberdiyevich	Biologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Samarqand davlat universiteti
Turayev Baxodir Xatamovich	Iqtisod fanlari doktori, professor Toshkent davlat transport universiteti
Negmatova Shaxzoda Shuxratovna	Falsafa fanlar doktori, professor O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
Abriyev Ro‘ziqul Buronovich	Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Samarqand davlat universiteti
Raxmonov Dustmurod Abdunazarovich	Falsafa fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent amaliy fanlar universiteti
Irzayev Bahrom Shaymamatovich	Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Qatag‘on qurbonlari davlat muzeyi
Usarov Jabbor Eshbekovich	Pedagogika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich	Pedagogika fanlari doktori, professor Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pardayev Azamat Baxronovich	Filologiya fanlari doktori, professor Samarqand davlat universiteti
Xamrayev Abdurashid Jurakulovich	Tibbiyot fanlari doktori, professor Toshkent pediateriya tibbiyot instituti
Байкулов АЗИМ Кенжаевич	Tibbiyot fanlar nomzodi, dotsent Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Norkulov Usmonkul	Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori Toshkent davlat agrar universiteti
Niyozov Hakim Bakoyevich	Veterinariya fanlari doktori, professor Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Axmurzayev Shavkat Isakovich	Qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Toshkent davlat agrar universiteti

ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ҚАРАШЛАР МАЗМУН–МОҲИЯТИ
(ТАСАВВУФИЙ АСАРЛАР АСОСИДА)

Лутфилло Караматиллоевич Ахатов

Чирчиқ давлат педагогика университети кафедра мудири, доцент, ф.ф.д.
(PhD)

L_axatov@cspi.uz

Аннотация: *Сушность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям. Сушность общественного развития зависит от науки и духовности. Рост духовности был связан с рациональным подходом и характером исследования. Рациональный подход должен формироваться на основе научного наследия мудрецов. В этом плане важны мистические взгляды. Формирование философских мыслей посредством суфизма формирует критерии толерантности в обществе. А толерантный подход становится символом международной гармонии и единства. Также через философско-мистические взгляды он определяет важные задачи для нашей национальной духовности и ее творцов. Если правовое регулирование и введение определенных норм поощряют контроль деятельности на полях, то честность, чистота, совесть через веру и некоторые богословские «категории» побуждают людей встать на правильный путь. Даже если посмотреть на это с обеих сторон, с помощью науки можно построить сильное общество. Формирование их на системной основе может быть инициировано посредством философско-философских воззрений. Это служит укреплению духа мира и согласия, толерантности и дружбы между народами и регионами.*

Ключевые слова: *Ирфан, суфизм (араб.: التَّصَوُّفُ), философия, наука, Джамии, ислам, восприятие-мысленно, мыслитель..*

Abstract: *The essence of philosophical and ethical views was analyzed with the help of Sufi life and mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered. The essence of social development depends on science and spirituality. The growth of spirituality was associated with a rational approach and the nature of the study. A rational approach should be formed on the basis of the scientific heritage of the sages. In this regard, mystical views are important. The formation of philosophical thoughts through Sufism forms the criteria of tolerance in society. And a tolerant approach becomes a symbol of international harmony and unity. Also, through philosophical and*

mystical views, he identifies important tasks for our national spirituality and its creators. If legal regulation and the introduction of certain norms encourage control of activities in the fields, then honesty, purity, conscience through faith and some theological “categories” encourage people to take the right path. Even if you look at it from both sides, you can build a strong society with the help of science. Their formation on a systematic basis can be initiated through philosophical views. This serves to strengthen the spirit of peace and harmony, tolerance and friendship between peoples and regions.

Key words: *Irfan, Sufism(arabical.:التَّصَوُّف), philosophy, science, Islam, Jami, perception-mentally, thinker.*

Ирфоний қарашларнинг мазмунан бирикиши, рационал (фалсафий-ақлий) билишнинг гносеологик ёндашувига хос тадрижий жараён дир.

Рационал ёндашув асосида ирфон илми ақлий фаолиятнинг билишга бўлган субстационал жиҳати улароқ, тасаввуф (орифлар) таълимотида муҳим аҳамият касб этган. Шунинг учун ўрта аср фалсафаси (тасаввуф) намояндаларининг диярли аксариятида эътиқод бош омил вазифани ўтаган ва ҳар бир илмий меросни ёзишда Аллоҳ номи ила деб бошлашган.

Бугунги шиддат билан ўтиб бораётган даврда тобора жадаллашиб бораётган вақт масофасининг талабларидан бири бу жамиятда малакали мутахасисларни, аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, баркамол авлодни вояга етказиб, мамлакат ва жамият тараққиётига ўз ҳиссасини қўшадиган, шунингдек, жамият маънавий камолотининг илҳомлантирувчи манбаи сифатида намоён бўладиган авлодни камол топтиришдан иборат дир.

Ёш авлодни тарбиялашда бугунги кун билан ҳамнафас бўлишлиги билан бирга, пок эътиқод ва урф одатларимизнинг моҳиятига алоҳида эътибор қаратиш орқали тарбиялаш лозим. Бу эса, ўз навбатида, фалсафий тафаккур тарзини ривожлантирувчи атрибутлар ва ирфоний қарашлар компаративистикасини ўрганиш кераклигини тақоза этади.

ТАҲЛИЛ ВА МЕТОДЛАР

Бугунги жамият маънавий камолотининг илҳомлантиришга хизмат қиладиган манбалар бўлмиш фалсафий-ирфоний қарашлар орқали ёш авлодни камол топтириш учун ҳикмат илми-фалсафа ва орифлар зикри-ирфони илмини кенг оммага тадбиқ қилиш бош мақсад дир.

Тарихан ҳар бир даврнинг ўзига хос ижтимоий муҳити ва «Жамият барқарорлигининг муҳим устувор томонларини белгилаб берувчи тузум»лар шакилланиб борганлигини манбалардан кузатишимиз мумкин. Минтақалар барқарорлиги эса дин ва ахлоқ, санъат ва адабиёт замирида фалсафий-ирфоний

илмларнинг шакилланиб боришлиги рад этиб бўлмас ҳақиқатдир, зеро, санъат ва дин ҳеч бир замон ва маконда ҳам, ҳеч бир минтақа ва миллатда ҳам бўлинмас ҳисобланиши билан ўз мавқеига эга. Дин ва санъатнинг миллат танламаслиги бу инсоният тарихидаги «Буюк кашфиёт» демакдир. Ушбу «кашфиёт»ни мазмун-моҳиятида шаклланган тасаввуфий-ирфоний қарашларни тафаккур орқали мушоҳада қилиш бу ҳикмат илми-фалсафанинг вазифаси.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Ирфоний қарашлар орқали миллий маънавиятимиз ва унинг бунёдкорлари учун муҳим вазифаларни белгилаб беради. Қонунан тартибга солиш ва маълум меъёрларни жорий қилиш соҳалардаги фаолиятни назорат қилишга ургатса, эътиқод орқали ҳалоллик, поклик, виждон ва бирқанча диншунослик «категория»лар орқали инсонларни тўғри йўлга бошлашга ундайди. Ҳар иккала томондан қаралса ҳам, илм ва у орқали кучли жамиятни бунёд этиш мумкин. Буларни тизимли асосда шакллантириш эса фалсафий-ирфоний қарашлар орқали йўлга қўйиш мумкин. Бу эса миллатлар ва минтақалар ўртасидаги тинчлик ва тотувликни, бағирикенглик ва дўстлик руҳини сайқалланишига замин ҳозирлаши табиий жараёндир.

Унутмаслик керак, тарихда шундай машҳур зотлар ўтганки, тазкира ва тарих арбоблари улар ҳақида сўз очганларида: «Бу зот таъриф ва тавсифга муҳтож эмас, бу ерда номлари табаррукона келтирилди», деб қўя қоладилар. [1; 3-Б.]

Тадқиқотлар замиридаги фалсафий мушоҳада орқали маълум бир ўзгаришларни тафаккур тарзида анализ-синтез қилиб, қисман хулоса қилиш мумкин, аммо бу фақатгина рационал ёндашувни тақоза этади. Бугунги глобаллашув даврида керак бўлса рационал қарашларнинг бир ўзи билан чегараланиш бу бирёқлама қарашни тақозо этади. Шунинг учун рационал ёндашувларни янада мукамалроқ аҳамият касб этиши учун иррационал ёндашувларни ҳам кенг миқёсда жонлантириш керак. Бунда фалсафа илмининг хайрихоҳлиги ўз-ўзидан ирфон илми ва унинг намояндаларига мурожаат қилади. Шундагина фалсафий-ирфоний қарашлар маълум маънода янги тафаккур тазрини шакллантиришга дастак бўлиб хизмат қилади. Бунда тасаввуф-ирфон илми вакиллари ва уларнинг илмий меросларини қиёсий таҳлил қилиш алоҳида ўрин эгаллайди.

Фалсафа ва ифон (عرفان) илми негизида борлиқ қонуниятларини таҳлил қилиш учун тасаввуф (التصوف) – руҳий қувват, руҳий тарбия вакиллари илмий мерослари оладиган бўлсак, уларнинг Ислом ва инсон ўртасидаги ажралмас робитани шакиллантирган муҳтарам зотлар саналади. Ирфон илми – орифлар зикри, сўфийлар мақомоти, маърифатпарварлар мероси тарзида гавдаланувчи иррационал (илоҳий-ғайб) илмини татбиқ этади. Тасаввуф (التصوف) – тахлия, яъни холи бўлмоқ, қалбни бўшатмоқ ва яхши, махталган ахлоқдир, дейдилар.

Иккинчидан, тасаввуфни тасфия, яъни руҳни ағёр – бегонадан тозалашдир, деб айтадилар. Учинчидан, тасаввуф ҳузуъ, яъни нафсни жиловлаш, хоксорлик ва жонсипорлик намунасини кўрсатишдир дейдилар... [12; 1-4-Б]

Таҳлил натижаси уларок, тасаввуф аҳлини кимлигини билишни истаган инсон энг аввало Ислом ва инсон омили ҳақида мукаммал манбаларга суянмасдан туриб (ўз – ўзича мухтасар) хулосалар чиқариши «Беодоб даъвога»ликдан ўзга нарса эмас.

Таҳлилдаги тенденцияларни бирлаштириш ва ривожлантириш учун хизмат қиладиган илмий меросларни кенгрок тадқиқ қилиш муҳимлиги эътироф этилган. Шунинг учун тасаввуф маърифатини шаклланишига “Қуввати рух” – рухий қувват (Л.К) бағишлаган, пири тариқат деб ном олган, Шайх Нуриддин Абдурахмон Жомий илмий меросини ўрганиш ҳар бир замон ва маконга хос тадқиқот объекти сифати қаралади. Анас ибн Молик розияллоху анхудан:

“Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам:

“Илм талаб қилиш ҳар бир мусулмоннинг зиммасига фарздир”, – дедилар”.

Аҳмад ва Ибн Можа ривоят қилган. [4; 274-Б]

Ушбу маълумотдан кўриниб турибтики, илм олиш ва уни ҳаётга тадбиқ қилиб бориш ҳаммамизга шарт экан. Зеро, Аллоҳ таоло Исро сурасининг 70-оятида қуйидагича марҳамат қилади: “Батаҳқиқ, Биз Бану Одамни азизу мукаррам қилиб кўйдик ва уларни қуриқлигу денгизда (улов-ла) кўтардик ҳамда уларни пок нарсалардан ризқлантирдик ва уларни Ўзимиз яратган кўп нарсалардан мутлақо афзал қилиб кўйдик”

Бундан маълум бўладики, инсон ҳамма жонзотлар ичида энг мукаммали ҳисобланади. Бундай шарафга эга бўлган инсон албатта илм ва маърифатни мукаммал ўрганиб боришлиги лозим. Бундай жараённи эса арслар оша ўз аҳамиятини мустаҳкамлаб келаётган мутафаккирлар илмий мероси орқали амалга ошади.

Баҳром Абдуҳалимовнинг “IX-XI асрларда мусулмон маданиятидаги умумий маданий юксалиш Мовароуннаҳр ва Хуросон олимлари ижодида ўзининг юксак чўққисига кўтарилди. IX-XI асрларда мусулмон маданиятининг “Олтин даври” бўлмиш фан ва маданият ривожини Хуросон ва Мовароуннаҳр (Л.К) ҳудудига кўчиб ўтди” деб эътироф этган. [5; 9-Б]

Марказий Осиёда тасаввуфнинг юксак мақомда ривожланган давр VIII-XI асрлар деб эътироф этилади. [12; 1-4-Б]

VIII асрнинг биринчи ярмида Мовароуннаҳр Араб халифалигига бўйсундирилгандан сўнг Марказий Осиёга Ислом дини билан биргаликда Ислом илмлари – тавсир, ҳадис, фикҳ ва калом ҳам кириб келди. [6; 35-Б]

Мовароуннаҳр Араб халифалиги кириб келганидан сўнг, VIII асрнинг биринчи ярмида, янгича дунёқараш, янгича ижод намуналари шаклланди. Секин

аста жамият бошқаруви ва ижод йўналишидаги (амалий муомаладаги) тил бу араб ёзувига хос форсий тил амалга оширилди. Ўрта асрларга келиб, Шарқ минтақа халқлари ижоди бир мунча дунё юзини кўра бошлади. Бу ўзгаришлар, Шарқона маданиятнинг янги босқичга чиқиши, бугунги кунгача ўз улуғворлигига эга.

Ўзбекистон Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг Самарқанд шаҳрида “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти” мавзусида ўтказилган халқаро конференциянинг очилиш маросимида 2014 йил 15 майда сўзлаган нутқида ушбу Форум-конференциянинг мақсади Ўрта асрларда Шарқ заминида яшаб ижод қилган буюк алломалар ва мутафаккирларнинг илмий меросларини чуқур таҳлил қилиш ва англаш, уларнинг замонавий цивилизация тарихида тутган ўрни ва ролига муносиб баҳо беришдан иборатлигини айтиб ўтганди. [7; 3-Б]

Ўзбекистон Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнда Тошкентда бўлиб ўтган “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда эътироф этиб ўтган тақлифлари асосида 2017 йил 8 ноябрда Самарқандда ҳадис ва калом илмий мактаблари, шу йили (2017 йил) 10 ноябрда Қашқадарёда ақида илми мактаби ҳамда Бухорода Мир Араб мадрасаси ҳузурида тасаввуф илмий мактаби ва шу йили (2017 йил) 13 ноябрда Фарғонада Ислом ҳуқуқи мактаби очилган. [3; 2017.16]

Сўз тасаввуф (араб: **التصوف**) - борасида борар экан, “Тасаввуфнинг пайдо бўлиш, тараққиёт жараёни тўғрисида ҳар хил фикрлар ва тахминлар мавжуд. Тасаввуф тўғрисида ёзган ўрта аср олимлари, шу жумладан, сўфийлик мактабининг йирик вакили, кўплаб асарлар муаллифи ас-Сулабий, Хуросон мактабининг вакили, кўплаб мумтоз асарлар ёзган Абу Абдурахмон Муҳаммад Ҳусайн (937 ёки 912—1002), машҳур сўфий ал- Ансори ал—Харавий Абу Исмоил Абдуллоҳ Ибн Муқаммад (1006—1089), тасаввуф тарихи ва моҳияти, мутасаввифлар дунёқараши ва амалиёти маълум тартибда баён қилинган. Форс тилидаги илк асар муаллифи ал-Хужвирий Абул Ҳасанали Усмон ал-Ғазнавий, ал-Жуллабий (1072 ёки 1076 йилда вафот этган)-ларни Хуросонда ва Мовароуннаҳрдан чиққан сўфийларнинг биринчи қаторида деб ҳисоблайдилар”. [8; 143-Б]

Тасаввуфий-ирфоний қарашларнинг бир тизимга тизимлаштириш энг муҳим масаладир. Тасаввуфий-ирфоний қарашларни тадқиқ қилишнинг ўзига хос заруратларидан бири, “Ўзбекистонда ҳам, хорижда ҳам тасаввуфнинг тариқатлар давригача яшаб ўтган аждодларимиз – Марказий Осиёлик сўфий муаллифлар томонидан яратилган сўфийликнинг назарий манбалари – тасаввуфга бағишланган асарларнинг тасаввуф таълимотининг тизимлаштирилишида тутган муҳим ўрни ҳам деярли тадқиқ этилмаган” лиги. [6; 10-Б]

ХУЛОСА

Тасаввуфий-ирфоний қарашлар моҳиятидан ўрин олган-иррационализмнинг генезиси ҳақида турли баҳс ва мунозаралар борлиги ҳаммамизга маълум. Мисол учун: академик, шарқшунос И.П.Петрушевскийнинг тасаввуф ҳақида, унинг (тасаввуфнинг) моҳияти бу Ислом динидаги мистика деб таҳлил қилади ва тасаввуф (сўфийлик йўли) таълимотига шу тушунча асносида тавсиф берган. И.П.Петрушевскийга кўра “Мистика ёки мистицизм (юнон - сирли) таркибида доимий ифодаланиши “Тажалли” деб аталувчи ҳолат ёрдамида, ботиний бир “Жазба”, экстаз (ички қувватнинг тажрибаси улароқ ботиний “руҳият”нинг барқ уриши) кўмагида Аллоҳ билан бевосита, ўз-ягона ҳолатда (Вахдоният) алоқа-мулоқотда бўлиш (ҳатто кўшилиб кетиш деб аталадиган маълумотлар ҳам мавжуд) имкониятга эгаллигини ифодаловчи махсус робита-диний дунёқараш тушунилади, — деб ёзади у, — мистик оқимлар мистицизм билан суғорилган идеалистик фалсафий тизимлар каби, ҳар хил динлар қобиғи остида пайдо бўлган, айниқса феодализм даврида мусулмон давлатларида мистик ҳаракат сўфизм деган умумий ном билан маълум” бўлган. [9; 12-Б]

Тасаввуф илми ва сўфийлар васфи ҳақида “Тасаввуф сулук тарзи бўлиб, унинг асосини нафс пок ва руҳ олий бўлиши учун содда ҳаёт ва фазилатлар ила зийнатланиб яшамокдир”, деб айтилган. [11; 15-35-Б]

Тасаввуф сулуки орқали ирфон илмининг сайқалланиши ва орифлик касб этишлиги чин маънода “Илми Одобдан илми Ориф”га интиломқлик шаклидир. Ирфон илмининг мақсади улароқ: тасаввуфга эргашишлик одоб ва фузуъ ила орифлик-сўфийлик мақомида гавдаланади. Бунда “Тасаввуф илми – сўфийлар эътиқод қиладиган нарсалар ва ўз жамоаларида ҳамда ёлғиз қолганларида ушлайдиган одобларидар. Сўфий – тасаввуф йўлига эргашган одамдир”, деб қаралади. емак, ирфон бу ахлоқнинг билишдаги инъикоси. [11; 35-Б]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Васлий Самарқандий. Имом Аъзам ҳаёти ҳақида қимматли сўзлар, Ал=калому=л=афам фий манокйби=л=имоми=л=аъзам. – Тошкент: Мажнунтол, 1991. – Б. 3.
2. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Форс – тожик тилидан Комилов Н. таржимаси). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994. – Б. 18.
3. Мирзиёев Ш. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. Халқ сўзи. 2017. 16 июн
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Мукамал саодат йўли. – Тошкент: Nilol – nashr, 2014. – Б. 274.

5. Абдуҳалимов Б.А. Байт ал-ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). Масъул муҳаррир Хайруллаев М. – Тошкент: O`zbekiston. 2010. – Б. 9.

6. Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б. 35.

7. Имом Шамсиддин Заҳабий. Сияру аъламин нурбало – Машхур даҳолар сийрати (китобидан сайланма асарлар) Алломалар тўғрисида маълумот. – Тошкент: Sharq, 2015. – Б. 3.

8. Пўлатов Ҳ., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. – Тошкент: 2011. – Б. 143.

9. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в XIV—XV веках. ЛГУ, Л., 1966. – с. 12.

10. Навоий. Насойим ул-муҳаббат мин шамойимил футувват. – Тошкент: Movarounnahr, 2017. – Б. 63.

11. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2016. – Б.15-35.

12. Akhatov, L. (2020). The spiritual connection of Sufism and Tolerance in the works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, 1(2), 1-4

AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY QARAMA-QARSHILIKDA BADIY
USLUBNING NAMOYON BO'LISHI

Sunnatov Tohir Ravshanbekovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Аннотация: Содержит информацию о стиле и художественном стиле, современном искусстве и науке. Есть комментарий к древности искусства, как изображения сущности общественной жизни. Приведено наличие западных и восточных произведений искусства и исторических мемуаров.

Ключевые слова: искусство, художественный стиль, фантастика, писатель, изысканность, Митина Ирина Дмитриевна, категория, современный, Ренессанс.

Annotation: Contains information on style and artistic style, contemporary art and science. There is a commentary on the antiquity of art as an image of the essence of social life. The presence of Western and Eastern works of art and historical memoirs is given.

Key words: art, artistic style, fantasy, writer, sophistication, Mitina Irina Dmitrievna, category, modern, Renesans.

Bugungi globallashuv davrida zamonaviy qarama-qarshiliklar fonida san'at va uning xilma-xilligi texnika(lar) yordamida aks ettirilmoqda. Badiiy uslub tarixiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak qadimgi Misr madaniyati bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. G'arb faylasuflarining ta'kidlashicha – "Ma'lumki, tarixiy davrlar orasida o'ziga xos siyosiy munosabatlar, qonunlar, biznesni amalga usullari bor. Ana shunday, san'atda ham voqelikni estetik o'rganishning ma'lum bir bosqichlari mavjud, unda inson didi, orzulari, imkoniyatlari yuzaga chiqadi - Badiiy usul tushunchasi ijodkorning mahoratini o'ziga xos jihatlarini, zamon dunyoqarashini tahlil qilishda qo'llaniladi". [5; Mitina Irina. sayt]

Badiiy uslub borasida Mitina Irina Dmitrievna ta'kidlashicha – " Badiiy uslub (uslub, yo'nalish) ma'lum bir vaqtda ijtimoiy va adabiy jarayonda, hayotda, asosiy o'rin egallaganligi, badiiy, tanqidiy, publitsistikada mujassamlashgan uzluksiz jaryondir. XII-XX asrlarda quyidagi asosiy badiiy uslublar keng ommalashdi: gotika, romantizm, barokko, klassitsizm, sentimentalizm, realizm, modernizm, sotsialistik realizm. Insoniyatni qamrab olgan muhit olamidagi jamiki uslublar, san'atda yuzaga kelgan bo'lib, ular estetik g'oyani ifodalanishga aytiladi. Insoniyatga xos badiiy madaniyatda ko'pgina uslublar yaratilgan bo'lib, yaratilgan har bir uslub, yaratilgan zamon va makonning estetik ehtiyojlarning yuzaga kelishi natijasida dunyoga keladi". [6; sayt]

Uslublarning vujudga kelishida o'sha davr qarama-qarshiligi ulkan hissa qo'shganligi e'tiborlidir. Mavjud qadimgi va bugungi aqliy mulohaza yo'nalishlari o'zaro ziddiyati, adabiy va badiiy sohasiga o'sha davr uchun tegishli bo'lgan yo'nalish hamda janrlarning tug'ishiga zamin bo'ldi.

Ushbu mavjud bo'lgan yo'nalish, ilgari vujudga kelganlarning asosiga, yo hech bo'lmaganda ularni inkor qilib namayon bo'ladi. Ana shu vaziyatda badiiy yo'nalish chiroyli ta'sir etishda namayon bo'ladi. Badiiy yo'nalishlarda, vaqt va yuzaga kelish joyi eng muhim vaziyat hisoblanadi. Badiiy yo'nalish shu bilan birga, san'at mohiyatini, badiiy rolni vujudga kelishida muhim jarayondir.

San'at va obrazlar tarzida, badiiy adabiyot hamda san'atga tegishlilik uslubga tegishlidir. Ana shu jarayon sezuvchanlik, tafakkur qilish eng muhim tomomligi bilan namayon bo'ladi. Badiiy uslub o'quvchiga asar muallifining fikrlarini, his-tuyg'ularini yetkaza oladi. Adabiyot va san'atda qadimgi yunon faylasuf olimlari tomonidan e'tirof etib o'tgan – epik, dramatik, lirik turlar mavjud, ularning barchasining ifodalashi o'z uslublariga ega hisoblanadi.

Avvaldan tarix uchta buyuk davrni o'z ichiga oladi: San'atning vujudga kelgan dastlabki davri, Renesans hamda oxirgi rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Badiiy yo'nalishning kengroq va tor tartibda hamda o'lchovning mosligiga asoslanib quyidagi bo'linishlarga keltirish mumkin, o'tmishda yuzaga kelgan, kengroq va mukammalroq tarzda yuzaga kelish, shaxsiy singari tasniflar bilan belgilash mumkin. Lekin bu bo'linish juda ham muhimdir, bunga sabab rassom yoki haykaltarosh badiiy faoliyatida faqat o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o'zi yashab turgan muhitdan kelib chiqib ijod qiladi va bu uning yaratgan asarida namayon bo'ladi.

Aniqroq aytilsa, uslub – bu ijodkor va tomoshabin tomonidan tarixiy vaqt va makonda badiiy shakl hosil qilish jarayonining keng qamrovli yaxlitligini his qilinishdir. Shuningdek, uslub - badiiy munosabat asosi (rassom va kuzatuvchi) tarzda namayon bo'ladi. Uslub munosabatni aniqlaydi asarni qabul qiluvchiga estetik ta'sirini belgilaydi, asar yaratuvchisini ma'lum bir turga yo'naltirish o'quvchi, ikkinchisi esa - badiiy qiymatning ma'lum bir turi bo'yicha belgilanadi. Aloqa nuqtai nazaridan uslub - badiiy matnda mustahkamlangan muallif va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunish dasturidir.

Keyingisi “Badiiy uslub - bu san'atning odamlar ongiga operativ ta'sir doirasida o'z ma'nosiga ega bo'ladi. Jarayon o'qish va izohlash, tushunish va baholash o'z vaqtida davom etadi. Bir zumda bir xil uslub, birlashtirilgan ma'lumot otish, tafsilotlarsiz, ishning ajralmas sifati haqida hisobotlar ko'rinishida namayon bo'ladi”. [1; 12-b] Xali she'rning faqat birinchi misralari o'qilgan, spektaklning faqat birinchi sahnasi tomosha qilingan, o'quvchi va tomoshabin, ish uslubini idrok etib, ular allaqachon ko'p narsani bilishadi va ko'pincha spektaklni tomosha qilish kerakmi yoki yo'qmi she'rni oxirigacha o'qing shunda uning mohiyatini to'la anglaysiz. Bu erda biz

uslubning informatsion tomoniga duch kelamiz, rol o'ynaydi badiiy muloqotning asosiy nuqtasi bo'lib, unda barcha iplar asar orqali tortiladi rassomni oluvchiga va orqaga yetkazadi. Yozuvchi asar yaratishda "o'quvchi bilan fikr yuritadi", ikkinchisi ijodiy jarayonda rassom yaratadigan maqsad sifatida mavjuddir.

Tadqiqotchi navbat hamisha o'quvchi ongida ismning jozibasi, shon-shuhratning jozibasi ko'rinishida bo'ladi. Hokimiyat, tanqiddan ilhomlangan va jamoatchilik fikrida o'rnatilgan professional maqomga egadir. Bularning barchasi va rassomning shaxsiyati porlayotgan oldingi ijodlar bilan tanishish u uchun "ishlaydi". Yozuvchi va kitobxonning asardagi uchrashuvi faqat ularga ma'lum bo'lgandagina sodir bo'ladi bir-biriga jalb qilinadi va ma'naviy mavjud bo'lganda bir-birining orzu qilingan maqsadidir "o'zaro munosabat"da ularning uchrashuvi, o'zaro intilishlarining kesishgan joyi – uslub hisoblanadi. Shu sabab rassom yetkazadigan asarning har bir iborasiga, yo'nalishiga birlashib ketadigan va asar yaratuvchisini isboti,shaxsiyatining belgisi, intonatsiyada namayon bo'ladi.

Uslub borasida, shuningdek, Borevning – “Uslubda badiiy muloqot amalga oshiriladi (yoki uzilib qoladi): haqiqat — yaratuvchi — ish — ijrochi — oluvchi — voqelik. Ushbu zanjirning oxirida haqiqat topiladi; u rassom tomonidan idrok qilinadi va san'at ta'sirida bo'ladi ommaviy. Shu ma'noda uslub – voqelikni madaniyat orqali takomillashtirish yo'lidir” deb ta'kidlaganini ko'ramiz. [2; 83-s]

Bundan tashqari “Uslub (lotin.stelos-yozish uchun bir o'tkir tayoq), tasviriy tizimining barqaror birligi, san'at hodisalar muayyan majmui badiiy o'ziga xosligini tavsiflovchi ifodali vositalari, u katta san'at davri, alohida badiiy yo'nalishi yoki individual rassom uslubi bo'lsin”, deb aytilgan ta'rif ham mavjud. [3; 15-b]

Yuqoridagi fikrga asoslanib “uslub”ning bir necha ma'noda hamda hozirgi san'at yo'nalish qarashlarida har xil qarashlarni uchratishimiz mumkin. Uslub atamasi san'at rivojlanish bosqichlarida juda ko'p foydalanila boshlandi, bu esa uslub jihatlarini yo'nalishlarni o'zida jamlagan xususiyatlarni o'z vaqtida yangi davr mohiyatini ochib bergan.

Bunda “Uslub” atamasi muhim hisoblanib, o'z navbatida ko'plab sohalarda qo'llaniladi (Badiiy adabiyot, lingvistika, nafosat falsafasi va boshqa fanlarda ham uchratish mumkin)". Uslub - rassom yoki haykaltaroshning badiiy faoliyati hisoblanadi, o'z davrining udumlariga va shu davr ruhiyatiga ijobiy hissiyot bera oladigan muhim jarayon biri sifatida e'tirofqa loyiqdir. Uslub ijodkorga o'z yo'nalishini aniqlab olishga, shu bilan birga u yashayotgan muhitni tasvirlashga kushli e'tibor beradi. Uslub-bu ishning omili, uning ijtimoiy mavjudligi. Uslublar mavjudligini aniqlaydi to'liq badiiy tamsayi sifatida ishlaydi. Uslub mahsulotni eklektikadan qutqaradi. Uslub inson tomonidan dunyoning estetik rivojlanishining tashuvchisi, xarakteri, yo'nalishi va o'lchovi bo'lib xizmat qiladi ishning estetik qiymati va badiiy ma'nosining muhim tomonlarini yoritib beradi. Uslub manbai san'atdan estetik zavq olish va rohatlanish

hissini tuyish demakdir. Har bir hujayradagi ishning butun uslubi vakili bajaradi. Har bir tafsilotni umumiyga topshirish konstruktiv dizayn, u ishning tuzilishini va uning o'ziga xosligini belgilaydigan madaniyat turidir. Uslub-bu ishda markazlashtiruvchi kuch, uning monolitligini ta'minlaydi. Uslub-badiiy dunyoni tashkil yetish printsipti, uning ichki ehtiyoji so'zlarning "yopishqoqligi" ning tabiatiga xos jarayon hisoblanadi.

Shuning uchun, uslubni aniq bir so'z bilan tushuntirish murakkab va noaniqlikni yuzaga keltiradi. Rassomchilik yo'nalishlari paydo bo'lishida juda oddiy bo'lib, shu davr insoniyati ruhiyatiga mos tarzda ijod qilingan, yani, barcha bunyod etilgan ijodlar aniq hisobli va oddiy tarzda namayon bo'lganligidadir. Ammo XX asr boshlaridagi klassik rasmiy maktab, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, barcha uslublar harakatda, o'zgarishda rivojlanishda bo'lishi, yangi yo'nalish eski yo'nalishning o'rnini egallab, o'sha zamonning asosiy yo'nalishi qatori, san'atkorning emas balkim o'sha davrda yaratilayotgan asarga oid bo'lganligi alohida ahamiyatga ega.

Fan "tili"da – nafosat falsafasi va san'at davr tarixidagi muhim jihat bu uslubdir. Albatta, u namoyon bo'lish shakllarida erkinroq va haqiqiy estetik ma'noda kanonning o'ziga xos bo'lgan uslubi, yani, san'at tarixining ma'lum bir davri yoki ma'lum bir yo'nalish, tendentsiya, maktab uchun ancha barqaror jarayondir. "Uslub" kategoriyasining haqiqiy ma'nosini talqin qilish, madaniyat va san'at tarixini tavsiflashda qo'llanilishi borasida bir fikrga kelishmagan. Bu kontseptsiyani asoslab berish muhimroqdir. Uslub deganda, eng avvalo, muayyan qoliplar, usullar, turmush tarzi va harakatlarga asoslangan predmet shakllari tizimi tushuniladi. Ayniqsa, asosiy rol o'ynaydigan, ijodiy qiymatga ega bo'lgan usul haqida gap ketganda shu usulning zamon ruhiyatiga mos tarzda namayon bo'lishi alohida e'tiborlidir. Shu ma'noda ular ma'lum bir davrning ijodiy uslublari (gotika, barokko, art nouveau), madaniyat uslubi haqida (F.Nitsshe uchun madaniyat – barcha ko'rinishlardagi ijodiy uslublarning birligi) haqida so'z boradi. Alohida rassom yoki butun guruh ijodi, individual ish uslubi haqida, yorqin shaxs uslubi haqida, moda uslubi haqida, ya'ni uslub ushbu madaniyatning eng yuqori intilishlarini ifodalaydi.

Bu borada "Uslub ma'lum bir madaniyatning uni boshqasidan ajratib turadigan sifati sifatida ham, uni qurishning konstruktiv printsipti sifatida ham namoyon bo'ladi. Madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt uslubiy ifodaga ham ega bo'ladi - uning ma'lum bir madaniy va tarixiy davrga tegishliligidan dalolat beradi. Shunday qilib, mavzu madaniyatning muhim tasviri - mavjud va to'g'ri, ideal va materialning birligida namayon bo'lishi eng muhim jihatddir. Madaniyat shu ma'noda estetik xususiyatga ega, chunki u ijodkorlik, ijod va ijod san'atidir. Bu qoida ham teskari ma'noga ega - estetik tamoyil madaniyatning yaxlit tizimining elementi sifatida harakat qiladigan, uning boshqa elementlari bilan organik ravishda o'zaro ta'sir qiladigan o'ziga xos mohiyatini va ijtimoiy funktsiyalarini to'liq ochib beradi". [4; 1-2-s] Ob'ektning uslubi nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki uning ma'lum bir madaniyat doirasidagi ma'naviy va

moddiy faoliyati, ya'ni uslub ob'ektning xususiyatlarini ochib beradi, har bir elementni umumiy konstruktiv dizaynga bo'ysundiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Д.С.Кадирова. Санъат назарияси. Университет 2016. 12-б
2. Ю.Б. Борев Учебник М, : Высш. шк., 2002. -с 83
3. Эстетика. Изоҳли луғат Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. 15-бет
4. А.Кorobeynikova Modernizmal estetikasida negativ - poziv erkinlik tushunchasi. 1,2, E.S.
5. <http://vak.ed.gov.ru/announcements/filolog/PavlovskaiOE.rtf> Specificity of artistic method, style, trends and schools as part of a comparative historical analysis of a work of art Mitina Irina Dmitrievna
6. <http://vak.ed.gov.ru/announcements/filolog/PavlovskaiOE.rtf>
7. А.Шер, Б.Хусанов Эстетика. 2010. 192 б.

ЖАМИЯТ ҲАЁТИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ТЕНДЕНЦИЯСИ
(ЮРИСТ КАСБ ЭТИКАСИ МИСОЛИДА)

Луиза Джурсаевна Туганова

Чирчиқ давлат педагогика университети ўқитувчиси

luizatuganova@mail.ru

Аннотация: Любая сфера в первую очередь должна служить развитию общества. Поскольку цель ясна, мы видим, что сегодня понятия культуры и права развивались таким образом, что неразрывно связаны друг с другом, и что мнение о том, что эти понятия не исчезают и сегодня, очень важно. Стремление к правильному толкованию народом понятия демократии принесет свои плоды только в том случае, если оно будет соответствовать существующим в обществе правовым нормам. Моральные отношения, которые существуют в любых взглядах, должны воспитываться не только в этике юристов, но и в поведении члена общества.

Ключевые слова: общество, культура, человек, право, цивилизация, сознание, демократия, традиции.

Abstract: Any sphere must first serve for the development of society. Since the goal is clear, we can see that today the concepts of culture and law have developed in a way that is inextricably linked to one of the other, and that the views that these concepts do not disappear today are very important. Striving for the correct interpretation of the concept of democracy by the people will only pay off if it follows the existing legal norms in society. Moral relations, which exist in any views, should be brought up not only in the ethics of lawyers, but also in the behavior of a member of society.

Key words: society, culture, human, law, civilization, consciousness, democracy, traditions.

КИРИШ

Фалсафий адабиётларда маданиятнинг инсоният цивилизацияси ривожланишига таъсир масаласини кўриб чиқишда, маданият функциялари ажралиб туради ва таҳлил қилинади. Бу ерда когнитив, информация, меъерий ва цивилизация функциялари қайд этилади [1; с.361-362]. Маданият феноменининг инсонга ва унинг дунёсига таъсир қилишнинг турли йўналишлари мавжуд. Маданият хулқ-атворнинг меъерий муносабатлари эришилган цивилизация даражаси, аммо маданият нафақат ижтимоий ҳаёт субъектларига нисбатан ташқи таъсирга эга, балки маълум жамиятнинг турмуш тарзи, унинг алоҳида ижтимоий гуруҳлари ва институтлари, аниқ одамларга ҳам ўз таъсирини ўтказди. Маданият мавжудликнинг шахсий ва ижтимоий шаклларига эга, бу масалада инсон, ижтимоий гуруҳлар ва институтлар, умуман жамият ўз маданияти ва ўзининг

дунёсини маданият ташувчиси сифатида ишлаб чиқаради. Агар маданият тушунчасига тарихан ёндашадиган бўлсак ундаги «хуқуқий маданият» тушунчасининг келиб чиқиш жараёни нисбатан ёш эканлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Муҳим ва тизимли мақсадларга эришишда ижтимоий ҳаётнинг хуқуқий соҳасида тобора кўпроқ онг ва амалий фаолиятдаги ривожланиш даражаси хуқуқий маданият тушунчасини кенгроқ тушунишга ёрдам беради.

Қонунларга амал қилмаслик жамиятни парокандалик жарлигига олиб келади. Жамият ҳаётида хуқуқий маданиятнинг ривожланиш тенденцияси фуқаролар томонидан қонунларни тушуниш ва уларга риоя қилишни, жамиятнинг ҳар бир аъзосининг хуқуқ ва бурчларини ҳурмат қилишни оширишга қаратилган доимий жараёндир. У нафақат меъёрий ҳужжатлар ва хуқуқий процедуралар ҳақидаги билимларни қамраб олади, балки одамларнинг хуқуқий онгга, қонунларга, бошқа одамларнинг хуқуқлари ва эркинликларига ҳурмат билан муносабатини шакллантиради. Бугун энг долзарб масала сифатида жамиятда хуқуқий билимнинг намоён бўлиши тўғрисида қайғуриш нафақат давлатда қабул қилинган қонунларда, балки уларнинг кундалик ҳаётда қўлланилаётганлигида эканлигини унутмаслигимиз керак.

Хуқуқий маданият- бу, сўзнинг тор маъносида, ижтимоий, гуруҳ ёки индивидуал хуқуқий онгнинг маълум бир ҳолати. Бундай ҳолда, "хуқуқий маданият" тушунчаси хуқуқий билимларни, эътиқодларни, қадриятларни, муносабатларни, жамият, ижтимоий гуруҳ (ижтимоий ҳамжамият) ёки шахсга хос бўлган амалдаги қонун ва хуқуқий институтларни баҳолашни ўз ичига олади ва мавжуд хуқуқий тартибга, тайёрлик ва қобилият доирасида ишлаш қобилияти, унинг доираси. Шу нуқтаи назардан, юқори ёки паст хуқуқий маданият (ёки унинг етишмаслиги) ҳақида гапириш одатий ҳолга айланмаслиги учун ҳаракат қилиш зарур. Агар тарихга юзланадиган бўлсак Аристотел инсоннинг сиёсий тизимда мавжудлигига берган таърифида, эркин ҳолида ақлий ва ахлоқий ривожланганлиги унинг мустақил жамиятни ва сиёсий тизимни, яъни хуқуқ ва умумий қонунларни ташкил эта олишини айтиб ўтган [2; с.3].

Хуқуқий давлатни барпо этиш жамиятдаги ривожланган хуқуқий тизимни, халқнинг юксак даражадаги хуқуқий ва сиёсий маданиятини талаб этади. Бугун давлатимизнинг асоси Конституция ва хуқуқий тизим заминида ташкил этилган юзлаб қонун ҳужжатларини қабул қилди. Мавжуд хуқуқий тизимни янада ривожлантириш ва кишиларда юксак хуқуқий маданиятни тарбиялаш каби вазифалар долзарб бўлиб, унинг ривожини тарбиявий жиҳатларга боғлиқ ҳолда ривожланади. Бу масалада инсоннинг одоб, хулқ ва ахлоқий тушунчалар тўғрисидаги қарашлари муҳим ҳисобланади.

Ахлоқ (лотин тилидан. ахлоқ-умуман қабул қилинган анъаналар, айтилмаган қоидалар) ҳақида ижтимоий қабул қилинган ғоялар сифатида талқин

етилади яхши ва ёмон, тўғри ва нотўғри, шунингдек ушбу ғоялардан келиб чиқадиган хатти-ҳаракатлар нормалари тўплами сифатида намоён бўлади. Ахлоқ кўпинча ахлоқнинг ички томони сифатида тушунилади, ҳолбуки, иккинчиси шахс учун ташқи кўринишининг мавжудлиги ҳам ўта муҳим ҳисобланади.

И.Кантнинг таълимотида ахлоқ тушунчалари қуйидагича фақланади:

1. Ахлоқ – ўз-ўзидан пайдо шаклланадиган ижтимоий ходиса ва у диндан мустақил равишда мавжуд; «ахлоқ динга мухтож эмас»;

2. Ахлоқ – «ижтимоий насл» вакили сифатида инсоннинг мулки;

3. Ахлоқ – инсоннинг кундалик ҳаёти шароитида ва унинг ахлоқи билан белгиланадиган ижтимоий гуруҳ хатти-ҳаракат усулининг соф ақл қонунлари билан белгиланади;

4. Ахлоқ – инсоннинг мулки бўлиб, унга эркин ҳаёт шароитида яхшилик ва ёмонлик ўртасидаги танлов қилишга имкон беради [3; с.288].

Ҳуқуқий маданиятнинг ривожланиши қонун устуворлигини мустаҳкамлашга, фуқароларнинг ҳуқуқларига риоя қилиш ва ҳимоя қилишга, жамиятда ҳуқуқий саводхонлик даражасини оширишга ёрдам беради. Бу ижтимоий муҳитни яхшилаш, адолатга ишониш ва фуқаролик маъсулиятини оширишга ёрдам беради.

Ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришда ижобий тенденцияни сақлаб қолиш учун давлат, жамоат институтлари ва ҳар бир шахснинг фоал саъй-ҳаракатлари зарур. Бунга ахборот ишлари, таълим дастурлари, юридик кўникмаларга ўргатиш ва юридик ёрдам ва ҳуқуқий ҳимоянинг мавжудлиги учун шароит яратиш киради.

Жамиятда ҳуқуқий маданиятни ва қонун устуворлигини ҳурмат қилишни кучайтириш учун ҳар бир шахснинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий саводхонлигини оширишга интилиш керак, бу умуман ҳаёт сифатини яхшилашга ва жамият ривожига ҳисса қўшади [4; Б.82].

ТАҲЛИЛ ВА МЕТОДЛАР

Маълумки ҳуқуқ давлат томонидан белгиланган барча учун умумажбурий нормалар тизими. Шунинг эътиборга олган ҳолда таълим тарбия жараёнига юзлансак, жамиятда мавжуд барча тартиблар, аввало унда мавжуд ахлоқий қарашларнинг шаклланганлигига бағлиқдир. Ҳуқуқий маданият кишиларнинг ахлоқий ва маънавий онгининг таркибий қисми, фуқароларнинг қонунларни билишлари, ҳурмат қилишлари, ҳуқуқбузарликка мурасасизлиги, қонунга итоаткорлигидан иборатдир. И.Кантнинг «Соф ақлни танқид қилиб» [5; с.490] (1781) асарида фалсафага «инсон ақли қонунчилиги» дея таъриф беради, унда икки асосий предметга табиат ва эркинликка чақиради, шунинг учун табиий ва ахлоқий қонунларни дастлаб икки хил тушунчада, кейин эса умумий фалсафий тизимда намоён бўлишига эътибор берган. Унинг қарашида фалсафий борлик

барча мавжудликка боғлиқ бўлса, ахлоқий борлиқ кўпроқ «бўлиши керак» тушунчасига алоқадор дея таъриф берган [5; с 490].

Ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат бўлишини таъминлаш лозимки, фуқаролар учун ҳуқуқий маълумотлар ва маслаҳатлар мавжудлигини таъминлаш, таълим дастурлари ва тадбирлари орқали ҳуқуқий саводхонликни ошириш, фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳуқуқий қўллаб-қувватлаш қонунга итоаткорлик ҳуқуқий маданиятининг зарурий унсури бўлиб, у қонунларни пухта билиб, ўрганишигина эмас, балки уларга тўла риоя қилиш, улар асосида эркин фаолият юритишни тақозо этади.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Тарихий ривожланиш жараёнида маданият, ахлоқ ва ҳуқуқ тушунчаларнинг бир-бирига боғлиқ ҳолда ривож топганлигини яхши биламиз. Ҳуқуқий маданиятнинг жамият ва давлатда тўғри шакллантирилиши, унинг амалий аҳамиятга эга. Айнан ушбу турдаги маданиятнинг вужудга келиши ҳуқуқ, ҳуқуқий муносабатлар, ҳуқуқий онг, қонунийлик, турли хил ҳуқуқий фаолият ва бошқаларга сингиб кетиши ва мавжуд бўлиши ижтимоий барқарорликка эришиш мумкин деган фикрга етаклайди.

Кўпгина тадқиқотчилар ҳуқуқий маданият тушунчасини ягона ҳодиса орқали эмас, балки уларнинг ҳолати ёки ривожланиш даражаси уларнинг умумийлигини ҳуқуқий маданият деб ҳисоблашга имкон берадиган бир қатор элементлар ва жараёнларни санаб ўтиш орқали аниқлайдилар. Ушбу қаторда муаллифлар қуйидагиларни ўз ичига олади: жамиятдаги ҳуқуқий онгнинг ҳолати, қонунийлик ҳолати, қонунчилик ҳолати, суд, прокуратура ва ҳуқуқни қўллайдиган бошқа юридик органларнинг амалий ишларининг ҳолати; ҳуқуқий воқеиликнинг таркибий қисмлари хулқ-атвор стандартларнинг махсус нуқтаи назаридан, ҳуқуқ ва ҳуқуқий онг, ҳуқуқий муносабатлар ва қонунийлик, субъектларнинг ҳуқуқий тартиби ва ҳуқуқий фаолияти, ҳуқуқий онгнинг ривожланиш даражаси аҳоли сони, ҳуқуқий фаолиятнинг ривожланиш даражасига эътибор беради.

Даосизм асосчиси Лао-цзининг қарашларида Дао осмон, табиат ва жамият қонунларини белгилайди. Бу энг юқори фазилат ва табиий адолатни англатар эди. Даога нисбатан ҳамманинг тенглиги айтилган.

Моизмнинг асосчиси Мо-цзи барча одамларнинг табиий тенглик ғоясини илгари сурган ва давлат пайдо бўлишининг шартномавий концепциясини асослаб берган. Унинг бу концепциясида олий ҳокимиятнинг халққа тегишлилиги айтиб ўтилган.

Пифогорнинг сиёсий-ҳуқуқий асоснинг фалсафий талқини илгари сурилади ва демократияга нисбатан танқид қараш бўлиб, асосан «юқори элита»нинг аълий

ва ахлоқий қарашларига таянади. Пифогор издошлари жамиятда мавжуд муносабатларни «тенглик» ғояси тўғрисидаги қарашларга асос солади.

Сукротнинг табиий ҳуқуқ ва қонунни ажратиб кўрсатади, бошқа издошларидан фарқли ўлароқ, у табиий ҳуқуқ ҳам сиёсий қонун ҳам оқилликдан бошланишига катта аҳамият берган.

Арастунинг сиёсий-ҳуқуқий қарашлари «Афлотун менга дўст, лекин энг катта дўстим - ҳақиқат» дея фикр билдиради. Унинг сиёсий ва ҳуқуқий мавзуларга оид фикрлари «Сиёсат» ва «Ахлоқ» асарларида батафсил ёритилган.

Жаҳон маданияти ютуқларидан ижодий сабоқ олиб, ўрганиб, тарихнинг бой меросига таяниб, ҳуқуқий давлат қуриш Ўзбекистонда яшайдиган ҳар бир шахсин миллатидан, тилидан, ижтимоий келиб чиқишидан қатъий назар уларга тегишли ҳуқуқларнинг таъминланишини бекаму-кўст таъминлайди. Бобомиз Амир Темур қонунга бўйсунининг юксак намунаси бўлган давлат раҳбарларидан эди. У бу хусусида қуйидагича фикр билдирган: “Мен сифатларимнинг энг аввали деб, беғаразликни тушундим. Ҳаммага ҳам бир хил жиддий ва одил қарар эдим, ҳеч бир кимсани бошқасидан фарқ қилмасдан, бойни камбағалдан устун қўёмас эдим”.

Кўпгина ҳолларда ҳуқуқий маданиятни таҳлил қилиш қуйидаги тушунчалар «сиёсий маданият», «хизмат маданияти»га параллел равишда амалга оширилади ва бу каби тоифалар ҳуқуқий маданиятнинг ягона концепцияси ҳали ҳам мавжуд эмаслигини кўрсатади. Ахлоқий муносабатларда ҳуқуқ тушунчаси ёрдамида, ҳуқуқ концепциясини бугунги босқичида ривожланишини тушунтириш мумкин бўлган жуда кўп ёндашувлар мавжуд ва жамиятнинг ҳуқуқий маданиятининг моҳияти, унинг бутун инсоният учун аҳамияти жуда юқори.

Бугунги даврда ҳуқуқий ахборотга эга бўлиш, уни билиш билан боғлиқ бўлган масалалар давлатнинг бу соҳага бўлган эътибори билан боғлиқдир, сабаби жамиятда мавжуд ахлоқий мейъёрлар доимий эслатиб турилади. Демак, «ахлоқ» тушунчасининг нисбати қуйидагича ифодалаш мумкин. Ахлоқ индивидуал гуруҳ ва ижтимоий онгнинг энг муҳим томонларидан (шаклларида) биридир ва кундалик инсон хатти-ҳаракатини ўз ичиша олади. Ахлоқ шахслар, ижтимоий гуруҳлар ва халқларнинг ўз ҳаётларида бошқарадиган маънавий қадриятлар тўплами ва фаолиятидир [6; с. 164].

ХУЛОСА

Шубҳасиз, ҳуқуқий маданият умуминсоний маданиятнинг бир жиҳати ҳисобланади. Албатта ўз-ўзидан ҳуқуқда, юридик амалиётда ўз аксини топа олганлиги ва унинг фуқаролик жамиятида асосий элемент сифатида шаклланиши, ҳуқуқий маданиятнинг тўғри талқин этилишига катта таъсир кўрсатди. Бу аҳоли,

давлат ҳокимияти органлари ва уларнинг мансабдор шахслари шунга кўра бутун давлатнинг ҳуқуқий маданиятига айланди.

Жамият аъзоларининг аксарияти қонунларга онгли равишда оғишмай риоя қилса, мазкур жамиятнинг ҳуқуқийликка яқин эканлигига, уларнинг ҳуқуқий маданияти ва эътиқоди қанчалик мустаҳкам бўлса, давлатимизда инсон, шахс ҳуқуқлари ва демократиянинг пойдевори шунчалик мустаҳкам бўлади. Шунини таъкидлаш керакки, ҳуқуқий маданият давлат ва жамиятнинг барқарор ривожланиши учун асосдир. У ҳуқуқ-тартиботни ўрнатиш ва сақлашга ёрдам беради, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишни, шунингдек, қонун устуворлигига асосланган фуқаролик жамиятини шакллантиришни таъминлайди.

Жамиятда етарли даражада ҳуқуқий маданиятнинг моҳияти ва хусусиятларини тушунишга, жамиятнинг барча ҳуқуқий ҳодисаларини ўз ичига олган бутун ва ҳар бири мавжуд бўлган «ягона бутун» сифатида қаралганда ушбу ҳодисалар ўз-ўзидан мавжуд эмас, балки зарур ва изчил бўлиши кераклиги тушунчаси тўғри шакллантирилади.

Жамият томонидан ҳуқуқий маданиятнинг моҳияти ва хусусиятларини етарли даражада фарқлаш, фақат ўша муносабатларни бир бутун сифатида тушунилгандагина эришиш мумкин. Аниқлик киритганимизда жамиятнинг барча ҳуқуқий ҳодисаларини ўз ичига олган ва бу муносабатларда мавжуд бўлган ягона объектга бутун сифатида қаралишидир. Ушбу муносабатларнинг мавжуд бўлиши эса ўз-ўзидан эмас, балки зарур ва изчил бўлиш қисмига бўғлиқ ҳолда шакилланиши. Барчаси бир бутун – бу асосий методологик ёндашув бўлиб, ҳуқуқий таркибнинг маданиятда тўлиқ аниқланган тушунчасидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. В.С.Нерсеян. “История политических и правовых учений”. – Москва; Норма, 2004.
2. Крапивенский С.Э. Социальная философия. М.: 2003.
3. Кант И. Критика чистого разума. М.: Наука, 1994. 591 с.
4. У.Таджиханов, А.Саидов. Ҳуқуқий маданият назарияси. Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998.
5. Кант И. Религия в пределах только разума // И. Кант Трактаты и письма. М.: Наука, 1980. 712 с. С. 78-278.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofsko-eticheskiy-analiz-ponyatiy-moral-nravstvennost-etos/viewer>

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA O'QISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARNI RIVOJLANTIRISH

Umarova Gulhayo Murodiljon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Аннотация: В целях всестороннего развития интереса к учебе у учащихся младшего школьного возраста считается целесообразным учитывать психологическое, физиологическое, семейное окружение и интересы учащегося. Интерактивные методы эффективны в обучении студентов междисциплинарности, независимым исследованиям и самостоятельному мышлению.

Ключевые слова: Психика, мышление, кластер, технологии, интерактив, мелкий школьный возраст, физиологический, командный, социальный, внимание, память.

Summary: It is considered appropriate to take into account the education, physiological, physical environment, and interests of students of junior school age to help them improve their learning. Interactive methods are effective in teaching students to interdisciplinarity, independent research and independent thinking.

Key word: Psychic, thinking, cluster, technologies, interactive, small school Age, physiological, team, social, attention, memory.

Kichik maktab yoshi davriga 7-11 yoshli boshlang'ich (1-4)-sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganda tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda, bolaning obyektiv va subek'tiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi.

Bola maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetali darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, aniqligi o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbat uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujetligi o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda

plastindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgarlar nutqini idrok qilish va tushunishda matematik amallarni bajarishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi.

Bu davrda o'z diqqatini muayyan obyektga yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xoxish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlash, ijod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi.

Tajribadan ma'lumki, bolaning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish daraasida, nutqining tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqiy izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatidan fikr almashishga yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tushuna oladi. O'zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi.

Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishining subyektiv tomoni ham mavjuddir. Uning maktabda o'qish xohishi, intilishi, katta katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir. Bolada shu davrga kelib, o'qish, bilim olish haqida to'g'ri tasavur shakllanadi. U maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anlaydi va ularga itoat qilishg, ularning ko'rsatmalarini bajarishga moyil bo'ladi. Lekin bolalar hammasi bir xil emasligi sababli ular o'rtasida muhim farqlar vujudga keladi. Ba'zi bolalar maktabga butun vujudi bilan talpinadi, o'qishga qancha vaqt qolganini uzluksiz sanaydi, o'quv ashyolarini oldinroq tayyorlab qo'yishga harakat qiladi. Boshqa bir bolalar esa maktabdan voz kechishgacha borib yetadi. O'qishga salbiy munosabatdagi bolalar ta'lim muhitiga kurashishga qiynaladilar, qator ruhiy musiqaarda duch keladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi biologik jihatdan nisbatan uyg'un o'sadi, uning bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq, bolaning umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasining suyaklari qotib yetmagan bo'ladi. Bu esa uning suyak tuzilishi takomillashib bo'lmaganini ko'rsatadi. Yurak muskullari tez o'sadi, qon tomilarining diametri sal kattaroq bo'ladi miyaning og'irligi boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi. Miya po'stining analitik-sitetik faoliyati takomillashadi, qo'zg'alish bilan tormozlanish o'rtasidagi munosabat o'zgaradi, lekin nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Shuning uchun bolaning to'g'ri o'sishiga g'amxo'rlik qilish kerak, toliqishni oldini olish, o'qish va dam olish rejimiga qat'iy rioya etish zarur.

Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada uyushqoqlik, intilish, irodaviy zo'r berish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz hatti-harakat o'rnini anglashilgan, rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. O'quvchi doimo tengtoshlari bilan birga muayyan sinf jamoasida bo'ladi. Demak, uning oldida hamma vaqt sinf jamoasining manfaatini himoya qilish, shahsiy istaklarini umumjamoaga intilishiga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasi turadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ko'payib va murakkablashib boraveradi.

Shuningdek bolaning yetakchi faoliyati o'zgarishi bilan katta yoshli kishilarning unga munosabati ham o'zgaradi. Ayni paytda yangi faoliyat sababli o'quvchi bolaning o'z asosiy faoliyatiga yangi munosabati paydo bo'ladi. Uning burch hissi o'sa boradi, u o'zining o'qishi shart ekanligini, o'qish o'zining burchi ekanligini va belgilab qo'yilgan tartib qoidani bajarishi shart ekanligini anglaydi. Bundan tashqari bolada yaxshi o'qish istagi ham tug'iladi. Demak, bola o'quvchi bo'lib qolgach, o'ziga ham boshqacha qaraydigan bo'ladi, chunki u endi katta, jiddiy ishga qo'shildi, u – o'quvchi. Ana shu paytdan boshlab shaxsning o'zini anglash o'ziga ongli munosabati kuchaya boradi.

O'qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshidagi bolaning o'sishini xarakteratga keltiradigan turli ziddiyat qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy hislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Talablarning tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'sishini taqozo etadi va shu berk zanjirning uzlukchsiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tevarak atrofdagi voqelikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar o'z portfeliga, dars tayyorlash burchagiga kitob qo'yish javoniga ega bo'lish istagi tuyg'usi yotadi, holos. Bundan tashqari bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul payti, maktab mamuriyati va o'quvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning his tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadi. Sinfidagi o'rtoqlari bilan qatorlashib, saf totib yurishlari, birlashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'g'itlari ham bolani o'ziga rom etadi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va o'qishning kundalik aqliy mehnat, irodaviy zo'r berish, yoqtirmagan narsa bilan diqqatni ta'minlash o'z xulqini idora qilish ekanligini anglaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning

o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi tug'iladi. O'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlash kerak.

Birinchi navbatda ota-onalar bolada o'qishga xavas uyg'otishlari kerak, bolaning o'qishga istalgan yoqimli bir narsaga intilgandek intilishi va maktabning hamma talablarini ko'ngildagi kabi idrok etishi ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq bo'ladi. Lekin bolada o'qishga ijobiy munosabatni tarbiyalab borish bilan birga, bolaga o'qish faqat yoqimli ish, deb uqtirmaslik lozim, uni o'quv faoliyatida uchraydigan qiyinchiliklarni va muvaffaqiyatsizliklarni yengib chiqishga tayyorlash kerak.

Birinchi sinf o'quvchilarining aksariyati zo'r ishtiyoq bilan maktabga boradi, o'quv faoliyatining juda muhimligini anglab, yaxshi o'qishga intiladi. Bolaning o'qish borasidagi bunday motivlarni o'quvchilarni ham ota-onalar ham har taraflama qo'llab quvvatlashlari va rivojlantirib borishlari kerak. Ota-onalar bolalarda tegishli malaka va ko'nikmalar, yana quloq sola bilish va o'quvchi bo'lish, kuzatish, esda qoldirish, katta yoshli odamlarning talablariga bo'ysunishi talablarini malakalari va ko'nikmalarini hosil qilishlari zarur.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqishi ko'zga tashlanadi. Maxsus tadqiqotlarda bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik kerak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajonidil bajarishga kirishganlar. O'quvchi shaxsiy faoliyatda erishgan dastlabki yaxshi natija uni boshqa natijalarni egallashga undaydi. Uning o'qish faoliyatidagi birinchi mehnat mahsuli shodlik va quvonch his tuyg'usini keltirib chiqaradi. Masalan, ayrim o'quvchilar u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish, uneing mazmuniga ham qiziqishni vujudga keltiradi bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib toptiradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolaning qiziqishlari o'yin faoliyatiga asta-sekin ko'chadi, o'qishga xos qiziqishlar ko'rincha o'yinlar harakteri va mavzusiga ta'mir qiladi. O'quv jarayoni birinchi sinf o'quvchilarining diqqatini o'ziga tortadi, chunki o'qish maroqli, maktab talablarini ado etish ham zavqli hisoblanadi. So'ngra o'qish jarayonining o'ziga bo'lgan qiziqish o'qish samarasiga ko'chadi. O'quvchilar o'zlarining ijodiy aktivlik ko'rsatishlari bilan, qiyinchiliklarni yengib chiqishlari bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalarni mustaqil ravishda hal qilayotgan paytlarida qiziqish osha boradi.

Ta'limning mazmuniga, bilmni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarini o'zlashtirish va malakalarini mustahkamlash uchun

hizmat qiladi. Rag‘batlantirish va jazolar meyorida bo‘lsagina ularning tarbiyaviy tasiri ortadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatini baholash unda o‘qishga ijobiy munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Ma’lumki, maktablarda bolalarni og‘zaki baholash odat tusiga kirib qolgan, chunki birinchi sinf o‘quvchisi ana shu baho tasirida o‘z faoliyatini kuchaytiradi ijodiy izlanishga xarakat qiladi. Hatto o‘quvchi dastlabki paytlarda “yaxshi” yoki “yomon” bahoning farqiga ham bormaydi ko‘proq necha baho olgani qiziqtiradi. O‘quvchining rag‘batlantirilishi uning uchun eng muhim o‘rinda turadi.

Ko‘pchilik mutaxassis olimlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni baholash salbiy oqibatlariga olib keladi, deb hisoblamoqdalar. Ma’lumki, faqat baho uchun o‘qish bilimning ishtimoiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko‘ra bilimning tekshirishning boshqa usullarini topish hamda qo‘llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Negaki, baholashning bola jamoati uchun ahamiyatini mutlaqo inkor qilish ham to‘g‘ri emas. Bahodan maslahat, yo‘llanma, tavsiya, ko‘rsatma sifatida foydalanish maqul.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o‘qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o‘qituvchining bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o‘qituvchini aql-u donishmand inson deb biladi. O‘qituvchi siymosida o‘zining ezguniyati, orzu-istagi, ajoyib tuyg‘ularni ro‘yobga chiqaruvchi mo‘tabar shaxsni ko‘radi. O‘qituvchining obro‘si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a‘zolari qarindosh-urug‘lari, tashin-bilishlarining nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli o‘qituvchining har bir so‘zi qonun sifatida qabul qiladilar.

Bola psixik jihatdan o‘ssishi natijasida uning o‘qituvchi mavqeiga munosabati o‘zgaradi. Chunki unda ongli hatti-harakat ehtiyoji tug‘iladi. O‘quvchida bir talay muammolar savollar vujudga keladi. U hayotda hamma narsa o‘zi o‘ylagandek oson emasligini tushuna boshlaydi. Mazkur savollarga shaxsan o‘zi javob topishga intiladi, shu savollarni boshqa odamlarga ham beradi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘zining obro‘sidan oqilona, odilona va omilkorlik bilan foydalanib, o‘quvchilarda, uyishqoqlik, mehnatsevarlik, o‘qishga ijobiy munosabat, o‘z diqqatini boshqarish, xulqini doraetish, o‘zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarini shakllantirish lozim. Buning uchun har tomonlama ta’sir ko‘rsatish usulini qo‘llash kerak.

O‘quv jarayonida bola xarakterining xislatlari: hamjihatlik, muntazamlilik, maqsad ko‘zlash, sabot, saranjomlik, intizomlilik, mehnat sevarlik tarkib topadi. Tobora mustaxkamlashib boradigan bu hislatlar ham shaxsning muhim sifatlariga aylanadi. Bolalarda jamoa, o‘rtoqlik hislarini, mehnatga ijobiy munosabatni kuchaytirib boradigan jamoaning tarbiyaviy ahamiyati yil sayin osha boradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchining hayoti emotsional kechinmalarga boy bo'ladi. Bu yoshdagi bolaning hislari o'quv faoliyati bilan va atrofdagi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. O'quvchi bola o'zining ko'p narsani uddalay olishini, ancha narsa bilishini anglashi tufayli rohat qiladi va xursand bo'ladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda norozilik hissi tug'iladi.

Yangi materialni o'zlashtirishi, o'qituvchining tushuntirib berish jarayoni, kitoblar o'qish, mehnat jarayoni, rasm solish, ashula va ijodiy faoliyatning boshqa turlari o'quvchi bolada turli-tuman emotsiyalarni vujudga keltiradi. Bu yoshda shaxsning axloqiy sifatleri vatanga muhabbat, qahramonlarning mardligidan zavqlanish, burch hissi poklik masuliyalilik va boshqa hislat tarkib topadi. Boshqa kishilarning kechinmalarini tushunish kengaya boradi, hamdardlik singari shaxsiy hislatlar tarkib topadi.

O'quvchi bolalar o'quv va mehnat faoliyati jarayonida atrofdagi voqelik bilan o'zaro munosabatlarda qiyinchiliklarni bartaraf qilishga, maqsadga erishish uchun irodaviy zo'r berishga o'rganadilar. Shu tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarida, garchi hali juda oddiy shakllarda namoyon bo'lsa-da, shaxs irodaviy sifatlarining tarkib topishi uchun sharoit tug'iladi.

Xullas, bola maktabga qatnay boshlagach uning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bu yoshda bola jismoniy, analitik-fiziologik va psixik jihadan maktab ta'limiga tayyorlanadi. U maktabga borgach o'quvchilarga qo'yiladigan har-xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganadi hamda shaxslararo munosabatlar ko'nikmalarini egallaydi.

Odam bolalik davridan biror faoliyatga kirishsa, sezgilari yaxshiroq o'sadi. Maktabgacha tarbiya yoshida sezgilar turli o'yinlarda o'sadi. Bu o'yinlarda xilma-xil xossali o'yinchoqlar katta o'rin tutadi. Maktab yoshida o'qish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab o'quvchilarida, asosan farq qilish sezgirligi o'sadi. Ko'rish va eshitish sezgirligi, ayniqsa, tez o'sadi.

7 yoshdan 10 yoshgacha bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45 foiz ortishi, 10 yoshdan 12 yoshgacha bolalarda 65 foizgacha ortishi olimlar- ning maxsus tekshirishlarida aniqlangan. Maktab o'quvchilarini rasmga o'rgatish ranglarni ayirish sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktab yoshida eshitish sezgilari ham hiyla o'sadi. Ranglarni farq qilish sezgirligi bolalarga ashula o'rgatish munosabati bilan, ayniqsa, kuchli suratda o'sadi.

Maktab yoshida harakat malakalarining vujudga kelishi munosabati bilan muskul harakat sezgirligi ham o'sadi. Maxsus tekshirishlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda, 8 yoshdan 14 yoshgacha bolalarda bu sezgirlik 50 foizdan ziyod ortadi.

Odamning mehnat faoliyati sezgilarning o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, biron mahsulotni tayyorlaganda, shuningdek, na- zoratdan o'tkazganda

moddiy narsalaiga bevosita tegish (ko'rish, eshitish, paypaslab sezish va hokazo) bilan birga, shu narsalarning sezib bili- nadigan ayrim xossalariga katta e'tibor berishga to'g'ri keladi, sezgi organlarining farq qilish qobiliyatiga ortiqroq talab qilishga to'g'ri keladi.

Modomiki shunday ekan, maktabda ishlab chiqarish — mehnat ta'limini amalga oshirish o'quvchilarda sensor sezgirlikning turli tomonlarini o'stirishga yordam berishi shubhasiz.

Sezgilarning o'sishi uchun jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati bor. Masalan, aniq harakatlar qilishga to'g'ri keladigan mashqlar muskul-harakat sezgilarini o'stiradi. Mashq qilish jarayonida sezgilarning hamma xillari o'sadi.

Sezgilarning ochiq-ravshan bo'lishida nutq katta rol o'ynaydi. Sezgilar so'z — ifodalar bilan bog'lansa, ochiq-ravshanroq bo'lib qoladi. Masalan, kuy tonlari tegishli terminlar bilan ifodalanmasa, ularni eshitishda kelib chiqadigan sezgilarni ta'riflab bo'lmaydi. So'z bilan ifodalanmagan narsa umumiy kompleksdan yaqqol ajralib turmaydi. Odamning sezgisi — aniqligi, ravshanligi, differensiallanganligi (bir-biridan ajralganligi) nutqning taraqqiy etishi bilan o'sadi va ko'p jihatdan nutq tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarni to'g'ri tarbiyalash sezgilarning o'sishida katta ahamiyatga egadir. Bolaning sog'lig'i va jismoniy tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish, jumladan, sezgi organlarining va sensor sezgirlikning o'z vaqtida o'sishini ta'minlashdan ham iborat. Sezgilar idrok tarkibiga kiradi, shu sababli, bolalarda idrokni o'stirish bilan ularning sezgilarini ham o'stirgan bo'lamiz. Mushohadani, kuzata bilishni tarbiyalash — sezgi organlarini ham tarbiyalash demakdir, farq qilish sezgirlikni ham o'stirish demakdir.

Maktab yoshidagi bolalarda idrokning hamma turlari, asosan, ta'lim va tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p daraja ta- komillashadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata bilish qobiliyati o'sadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur shartlardan biridir. O'quvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish-havaslarini bilan birgalikda o'sib boradi. Kuzatish obyektlarini tanlashda o'quvchilarning o'zlari tashabbus ko'rsata boshlaydilar. O'quvchilar o'z idroklarini mustaqil idora qila oladilar. Ammo hamma boshqa ixtiyorsiz jarayonlar singari, ixtiyorsiz idrok ham maktab yoshidagi bolalarda hali ko'p uchraydi. Shuning uchun ham o'quvchilarga beriladigan material, ular tomonidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy idrok qilishini mo'ljallab berilmog'i kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning ko'z bilan chamalash hamda narsalarning shakli va katta-kichikligini ajrata bilish qobiliyatining yana yaxshiroq o'sishiga jismoniy tarbiya, rasm darslari bilan shug'ullanish, katta yordam beradi. Katta masofalarni ko'z bilan chamalash qobiliyatining o'sishiga ekskursiyalar, sayrga chiqishlar, kattalar bilan birgalikda dala va boshqa yerlarda mehnat jarayonida ishtirok etish yordam beradi.

Maktab yoshida vaqtni idrok qilish ham takomillashadi. O'quvchilar vaqtning, hozirgi paytning tez yoki sekin o'tayotganini aniq sezadilar. 1-4 sinf o'quvchilari, katta yoshdagi odamlar singari, ikki daqiqa, o'n daqiqa, bir soat, uch soat va shu kabi vaqtlarning o'tishini taxminan ayta oladilar.

O'quvchilarda vaqtni yana aniqroq idrok qilish qobiliyati, asosan, maktabda o'qish mashg'ulotlari to'g'ri uyushtirilishiga, mashg'ulotlarni muayyan vaqtga qarab taqsimlanishi va vazifalarni ma'lum bir o'quv soati (45 daqiqa) ichida tamom qilish talabiga bog'liq holda o'sib boradi. O'quvchilarning o'zlari ham mustaqil suratda bajarishlari lozim bo'lgan turli darslarini tayyorlash uchun vaziyatni har bir fanga taqsimlab chi-qishga majbur bo'ladilar. Darsga kech qolmasdan maktabga borib yetish to'g'risida g'amxo'rlik o'quvchilardan vaqtning o'tishiga e'tibor berishni talab etadi. O'quvchilar ma'lum bir ishni bajarish uchun lozim bo'lgan ozmi-ko'pmi muddatni fikrda hisoblab chiqishga majbur bo'ladilar. Vaqt o'lchovlarini o'rganish, doimo soatdan foydalanish ham vaqtni aniq va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini o'stiradi.

Interaktiv usullarni qo'llash oddiy oddiy ko'rgazmalar, plakatlar, xaritalar, modellar va boshqalar bilan boshlandi. Bugungi kunda interaktiv ta'limning zamonaviy texnologiyalari eng so'nggi jihozlarni o'z ichiga oladi:

- interfaol taxtalar;
- planshetlar;
- kompyuter simulyatorlari;
- virtual modellar;
- plazma paneli;
- projektorlar;
- noutbuklar va boshqalar.

O'qitish jarayonida interaktivlik quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- taqdimot materialining taqdimotini motilliyini kiritish bilan interaktiv muloqot qilish uchun qoldirish;
- kartada diagrammalar, formulalar va diagrammalar yaratish kerak bo'lmagan vaqtni tejash;
- O'rganilgan materialni topshirish samaradorligini oshirish, chunki interfaol ta'lim vositalari talabaning turli hissiy tizimlarini o'z ichiga oladi;
- guruh ishlarini yoki o'yinlarni tashkil etishning qulayligi, tomoshabinlarni to'liq jalb qilish;
- o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida chuqur aloqani o'rnatish, jamoa ichidagi iqlimni yaxshilash.

Xulosa

Kichik maktab yoshidagi talabalar bilan o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda interaktiv usullar samarali hisoblanadi. Bolalar o'qituvchiga u yoki bu tasnifni qanday o'zlashtirganliklari haqida hisob beradilar. Abstrakt, mavhum va nazariy fikrlash

nisbatan murakkab fikrlash turining keyingi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Xayol muhim psixik bilish jarayonlaridan biridir. Xayolning faoliyasiz o'qituvchi gapirayotgan va darslarda yozilgan narsalarning tassavvur qilishni hamda ko'rgazmali obrazlar bilan ishlashni bilmay turib, hech qanday o'quv predmetni chinakkam o'zlashtirishi mumkin emas. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. Shuning bilan bir qatorda bevosita taxsurotlar (muzey, vistavkalarining borib ko'rish, kinokartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borishh, maktab er uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish // —Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 8-12 b.
3. G.M. Umarova, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // —Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // —Pedagogsl international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.
5. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho'jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o'qishga bo'lgan munosabati//Journal of integratededucation and research. Volume2 ,ISSUE 1January 2023.pp 150-154.
6. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi//Conferencea virtual international.ARTICLES 2023.march pp 163-172.
7. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Xamraqulova Orasta Alisherv qizi. Inklyuziv ta'lim va uning bugungi kundagi rivojlanishi//Conferencea;2022;9thl CARHSE-england decabr108-111.
8. Murodiljonovna G. U. et al. Inklyuziv ta'lim va uning bugungi kundagi rivojlanishi //Conferencea. – 2022. – C. 108-111.
11. Umarova G., Ximmataliyev D. Formation of attitudes towards learning in younger school-age students //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B1. – C. 184-186.
9. Umarova G. Preparing future primary class teachers for professional activity based on the development of their digital competencies //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B7. – C. 71-77.

10. Abdullayeva B., Umarova G. Organizational and pedagogical conditions of developing digital competencies of future primary class teachers //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B7. – C. 67

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN HOLDA O'ZBEK TILIDAGI MUROJAAT VOSITALARINI O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Husaynova Mahliyo Ma'ruffjon qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar
fanlar kafedراسи assistenti

husaynovamahliyoxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lmish muammoli ta'lim texnologiyalari hamda murojaat vositalari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Mazkur texnologiya asosida dars o'tishdagi afzalliklarga ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi murojaat vositalarini talabalarga o'qitishda samarali deb topilgan bir qancha usullar tahlil jarayoniga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, murojaat shakllari, undalma, rain drop, exchange the words.*

O'zbek tilshunosligida aynan murojaat shakli alohida, maxsus tadqiq etilmagan bo'lsa-da, uning undalma sifatidagi ko'rinishi A.R.Sayfullayevning ilmiy-tadqiqot ishida undalmaning umumiy tavsifi, leksik-semantik o'ziga xosliklari, morfologik-sintaktik ifodalanishi hamda strukturasi bayon etilgan. Undalmaning ajratilgan va uyushgan tiplari, gapdagi o'rni, intonatsiyasi, stilistik mavqeyi ochib berilgan.[Sayfullayeva, 1968: 68-72] Shuningdek, undalmaning nutq jarayonidagi o'rni va uslubiy xususiyatlari B.O'rinboyev, A.Abdullayev, L.Abdullayeva kabi qator tilshunoslar ishlarida ham tadqiq etilgan.[O'rinboyev, 1979: 51]

Murojaatning dialogik nutq bilan bog'liq holdagi ijtimoiy mohiyati haqida X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevlarning "Adabiy til va badiiy stil" [Doniyorov, Yo'ldoshev, 1988: 190] nomli ishida so'z yuritilgan bo'lsa, S.Mo'minov, [Mo'minov, 2000: 17] Sh.Iskandarovalarning [Iskandarova, 1994: 14] ilmiy tadqiqotlarida murojaat shakli muloqot odobi va barqaror nutq odatlari bo'yicha tahlil qilinadi, B.X.Rahmatullayevaning dissertatsiya ishida o'zbek tilida mavjud bo'lgan murojaat shakli rus tilidagi murojaat shakli bilan taqqoslangan holda tadqiq etiladi¹. [Rahmatullayeva, 1992: 114]

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqiga oid bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, O.Y.Fayziyev

¹ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадийий стиль. - Т.: Фан, 1988. - 190-204 б.; Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри дис. ... автореф. - Т., 2000; Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф.- Самарқанд, 1994; Рахматуллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. Дис. ... канд. филол. наук. - Т., 1992,- С.114-118

[Fayziyev, 2021: 51], N.Sh.Ahmedova [Ahmedova, 2008: 82] Z.A.Akbarova [Akbarova, 2007: 49] va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Muammoli ta'lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, qadimgi Grestiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta'lim texnologiyalariga oid ishlarni R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev [Ishmuhammedov, Yo'ldoshev, 2013: 38], N.N.Azizxo'jayeva [Azizxo'jayeva, 2006: 52], Q.Husanboyeva [Husanboyeva, 2022: 72] va boshqalarda uchratishimiz mumkin.

Muammoli ta'limning bosh maqsadi – o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Bizningcha, dars jarayonida o'zbek tilidagi murojaat vositalarini o'qitishda ham mazkur texnologiyadan foydalanish samarali natija beradi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

Dastavval, o'zbek tiliga xos bo'lgan murojaat shakllari haqida nazariy ma'lumotlar beriladi. Murojaat vositalari tasniflangan holatda guruhlariga ajratiladi.

— o'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;

— bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

— hal etish uchun yetarli bo'lmagan yoki ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

O'zbek tilidagi murojaat shakllarini muammoli ta'lim texnologiyalariga tayangan holatda talabaga o'qitish uchun bir nechta metodlardan foydalanish mumkin


RAIN DROP (yomg'ir tomchisi)

BLUM taksonomiyasiga ko'ra ma'lumotlarni oddiydan murakkabga qarab o'rgatish orqali talabalarda umumiy tasavvur uyg'otish mumkin bo'ladi.

Darsning birinchi bosqichi:

- Bu jarayonda talabalarga bulut shaklidagi rasm ichida bir nechta murojaat shakllariga aloqador soʻzlar beriladi. Rasmning pastida esa murojaat vositalarining turlari jadval asosida beriladi.

- Talabalarga jadval ichidagi nomlarga mos keluvchi kerakli soʻzlarni tanlab olib yozish talab etiladi



№	Murojaat vositalari	Oʻgʻil bolalar uchun	Qiz bolalar uchun
1	Qarindoshlik b.b.m.		
2	Zoonim nomlari b.b.		
3	Teonimlar b.b.m		
4	Fitonim b.b.m.		
5	Kosmonim b.b.m		
6	Gilyutonim b.b.m		

Rain drop (yongʻir tomchisi) deb nomlangan metod orqali talabalar bolalarga nisbatan qoʻllaniladigan murojaat vositalari bilan tanishib oladilar. Shuningdek, kichik guruhlariga boʻlingan holatda jamoaviylik, oʻzaro kommunikatsiya jarayonlarini ham yoʻlga qoʻyishlari mumkin boʻladi.

Darsning ikkinchi qismi:



EXCHANGE THE WORDS

(So‘zlarni almashtirish)

Bu jarayonda talabalarga qiyinlik darajasi nisbatan yuqoriroq bo‘lgan topshiriq beriladi.

- murojaat shakllari qo‘llanilgan bir nechta nasriy yoki she‘riy parchalar talabalar hukmiga havola etiladi;
- mazkur parchalardagi murojaat vositalari gapda noo‘rin qo‘llanilganligi sababli talabalar muqobil variantdagi so‘zlarni yozishlari talab etiladi.

Vaqt anglatish maydoniga doir murojaat

so‘zlar guruhi

Bunday so‘zlar guruhiga yil fasllarini bildiruvchi so‘zlar ham kiradi:

Qayerga qarasam, qirovlar marjon,

*Bu yerga tezroq kel, **kumushim qishjon!***

(Y. Sulaymon)

Mazkur parcha orqali talaba qishjon so‘zi mantiqan noto‘g‘ri ekanligini anglab, **bahor** so‘zi bilan almashtirishi lozim bo‘ladi.

Vaqt bildiruvchi so‘zlarga davr mazmunidan kelib chiqib katta ijtimoiy ma‘nolar yuklanib murojaat etiladi. Shu jihatdan XX asr mazmuni ilmiytexnika inqilobi bilan bog‘liq holda murojaat shakli sifatida qo‘llanadi:

***Daqiqam,** samolarda yoqolding chiroq,*

Yulduz qilib otding o‘zni.

Qo‘zg‘ata olmading o‘rnidan biroq

Askar yelkasida turgan yulduzni.

(A.Oripov)

Bu misrada daqiqam so‘zi noo‘rin qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z o‘rniga **asr** so‘ziga o‘zgartira olishi lozim bo‘ladi.

A.Oripovning “Xush kelibsan, yangi yil” she‘ridagi “yil bobo” o‘tayotgan eski yilni anglatadi. Bu ma‘no she‘r sarlavhasidan, shuningdek, “yil” so‘ziga qo‘shilgan «bobo» so‘zidan anglashiladi:

Seni aslo unutmagay dil,

*Xayr endi, xayr, **asr bobo.***

Simobdayin tipirlar ko‘ngil,

Yangi yilga endi marhabo.

(A.Oripov)

Mazkur she‘riy parchaning mazmunidan kelib chiqqan holatda **asr** bobo so‘zining o‘rniga **yil** bobo so‘zini qo‘llash talab etiladi. Natijada talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi ham ortadi, darsning ham sifati yuqori darajada bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytilish joizki, har bir ta‘lim texnologiyasidan ko‘zlangan maqsad, ta‘limdagi sifatni oshirish, o‘quvchi va talaba shaxsida darsga nisbatan qiziqish va

muhabbatni oshirishdan iboratdir. Muammoli ta'lim texnologiyalari asosida yuqoridagidek usullardan foydalanish mana shunday maqsadni amalga oshirishda poydevor vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалма. - Т.: Фан, 1968, -В. 68-72.
2. Ўринбоев Б. Сўзлашув нутки. - Т.: Фан, 1979; Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули.-Т.: Фан, 1987; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. - Т.: Фан, 1979. - С.117-143.
3. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. - Т.: Фан, 1988. - 190-204 б.
4. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри дис. ... автореф. - Т., 2000; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номзоди дис. ... автореф.- Самарқанд, 1994.
5. Рахматуллаева Б.Х. Этикетные формы обращения и привлечения в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. Дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1992,- С.114-118
6. O.R.Fayziyev. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga oid qonunchilik hujjatlarini rivojlantirish. Filol.fan.nomz... diss. -2021, - В.51.
7. N.Sh.Ahmedova. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. PhD.diss-2008, -В.82.
8. Z.A.Akbarova. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi. Filol.fan.nomz... diss. -2007, - В.49.
9. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev.Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar(ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma).Т.,-2013, - В.31-38
10. N.N.Azizxo'jayeva .Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.O'quv qo'llanma. Т-2006, - В.48-52
11. Q.Husanboyeva.Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. O'quv-metodik qo'llanma. Т.: “Innovatsiya-ziyo”-2022, - В. 72

**ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA MAXSUS PEDAGOGIKA NEGIZLARI,
OILA PEDAGOGIKASI MASALALARI**

To'xtamurodov Abdulloh Avazbek o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
toxtamurodovabdulloh11@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется понятие “педагогическое образование в семье” в учении о педагогическом образовании джадидского педагога абдурауфа Фитрата, требования к семейному образованию, а также критерии семейного воспитания.

Ключевые слова. Педагогическое образование, воспитание, личность, воспитание, феномен семьи, создание семьи, формирование, воспитание личности.

Annotation. The article analyzes the concept of “pedagogical education in the famil”, the requirements for family education and the criteria for family education in the teaching of pedagogical education of Abdurauf Fitrat, the pedagogue of jaded.

Keywords. Pedagogical education, education, personality, education, family phenomenon, family building, formation of personality, upbringing.

**“Bolalikdan tarbiyalash ta'sirliroq va juda muhim”
Abdurauf Fitrat**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi.

Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida shunday fikr bildiradi: -Bolalikdan tarbiyalash ta'sirliroq va muhim”. Bu fikr bilan pedagog bolaga bilim berishda avvalambor unga bu berayotgan bilimimiz mohiyatini tushuntirish va asl mohiyatini tushungandan so‘ng unga berayotgan bilimimizni yanada aniqroq qilib yetkazib berishimiz kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Bundan tashqari ta’lim va tarbiya yo‘nalishiga boshqa jadedlarimiz ham o‘z fikrlarini bildirgan. Abdulla Avloniy fikriga kora: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Maxmudxo‘ja

Behbudiy fikriga ko‘ra: o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniy meros qolsun”.

Pedagogik ta‘lim - bu shaxsga ta‘lim, tarbiya berish, uning layoqatlarini rivojlantirish va uni ta‘lim-tarbiya berishga ilmiy, nazariy, amaliy hamda texnologik tayyorlash jarayonidir.

Pedagogik ta‘lim tushunchasining tor ma‘nodagi mazmuni shundan iboratki, unda shaxsning savodxonlik, tarbiyalanish va layoqatlik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayon ilk bosqichda oilada va rivojlanish bosqichida esa ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi. Mazkur tushunchaning keng ma‘nodagi mazmuni shaxsga ta‘lim, tarbiya va kompetensiya beruvchi pedagogik jarayon bo‘lib, ta‘lim va tarbiyani amalga oshiruvchi mutaxassislarni (o‘qituvchilarni) tayyorlash jarayonini anglatadi. Bu jarayon o‘rta maxsus va oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi. Shu tariqa pedagogik ta‘lim atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

- shaxsga bilim berish;
- shaxsni tarbiyalash;
- shaxs layoqatini shakllantirish;
- shaxsni ta‘lim – tarbiya berishga tayyorlash.

Pedagogik ta‘lim mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun avvalo pedagogik ta‘lim ta‘limotlariga tayanadi. Pedagogik ta‘lim ta‘limotlari shaxsga bilim berish, uni tarbiyalash, uning layoqatlarini shakllantirish va shaxsni ta‘lim-tarbiya berishga tayyorlashning ilmiy asoslari, nazariyasi va metodologiyasini belgilab beriladi. Shu jihatdan Fitrat XX asr I choragida o‘ziga xos pedagogik ta‘lim ta‘limotini yaratgan. Uning bu ta‘limotida oiladan boshlab oliy ta‘lim muassasasigacha bo‘lgan jarayonda pedagogik ta‘lim berishning ilmiy, nazariy va metodologik asoslari ifodasini topgan. Fitrat o‘z davrining faol jadid pedagogi va islohotchi olimi edi. U “o‘ndan ortiq tarmoqlarni o‘z ichiga olgan ilmiy meros” sohibi. Fitratning oila ta‘lim va tarbiyasining pedagogik xususiyatlari masalasiga doir tushunchasi uning o‘z davri XX asr I choragidagi ijtimoiy sharoit, makon va zamon talablari hamda pedagogik ehtiyojlarga mos ravishda shakllangan. Bu davrda ijtimoiy hayotni yangilash va ta‘lim tizimini isloh qilish ustuvor masala bo‘lganligi ma‘lum. Mana shu jihatdan Fitratning oila ta‘lim va tarbiyasining pedagogik xususiyatlari masalasiga doir tushunchasi o‘ziga xos bo‘lib, unda ta‘lim zaruriyat tarbiya konsepti bo‘rtib turadi. Jadid ma‘rifatparvari hammaslklari qatorida bu masalani u o‘z davriga nisbatan jadidona (yangicha) qo‘yadi va qo‘yilayotgan masalaga doir yondoshuvlari 1914 yili yozilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” risolasida yaxlit o‘z aksini topgan. Fitratning oila ta‘lim va tarbiyasining pedagogik xususiyatlari tushunchasi quyidagi uch muhim komponentni qamrab oladi:

- 1) shaxsning oila fenomenini anglashi;
- 2) shaxsning oila ta‘lim vazifalarini bilishi;

3) shaxsning oila tarbiyasi asoslari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi.

Bu masalalar qayd etilgan ta'lim-zaruriyat-tarbiya konsepti doirasida bo'lib, unda allomaning individual yondoshuvi o'z ifodasini topgan. Shu jihatdan Fitratning oila ta'lim va tarbiyasining pedagogik xususiyatlari masalasiga doir tushunchasi o'ziga xos mazmunga egaligini ta'kidlash joiz.

Shaxsning oila fenomenini anglashi. Mazkur masala Fitratning pedagogik ta'lim ta'limotida o'ziga xos yondoshuv bo'lib, u bugungi "Oila pedagogikasi"ning xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Unga ko'ra, har bir voyaga yetgan shaxs oila fenomeni, ya'ni oilaning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni, millatning bardavomligida oilaning muhim o'rin tutishi to'g'risida yetarli darajada tushunchaga ega bo'lishi kerak. Chunki u vaqti kelib oilada ta'lim va tarbiya ishi bilan shug'ullanishi mumkin. Fitratning fikricha, oila qurish besh muhim tabiiy qonuniyat bilan belgilanadi:

birinchidan, insonning individual va ijtimoiy mavjudligini oila ta'minlaydi. Yeyish, ichish, nafas olish kabi individual ehtiyojlarni, kiyinish, farzandli bo'lish, jamoa bo'lib yashash singari ijtimoiy ehtiyojlarni aynan oila ta'minlaydi. Bu ikki ehtiyojning oiladan tashqarida hosil qilish axloqsizlik, hayvoniylik va buzuqlik illatlarini keltirib chiqaradi. Shu sababli Fitrat oila qurishni Payg'ambar sunnatidan biri sifatida ko'rsatadi;

ikkinchidan, oila qurish – shahvat quvvatini tartibga solishdir. Alloma pedagog fohishabozlik, o'ynashbozlik va noqonuniy oila qurishni eng zalolatli jinoyat deb biladi, insonni bardavomligini saqlashga asos bo'luvchi shahvatni tartibga solish faqat oila vositasida amalga oshirishini ta'kidlaydi;

uchinchidan, millatning bardavomligini faqat oila ta'minlaydi. Fitrat bu o'rinda ma'rifatli oila tizimi ingliz millatining aholisini million kishiga va belgiyaliklarning 7,5 million kishiga (albatta, bu ma'lumotlar XX asr boshlariga tegishli.) yetishiga asos bo'lganligini ibrat qilib ko'rsatadi;

to'rtinchidan, oila shaxs ta'limi va tarbiyasini amalga oshiruvchi negizdir;

beshinchidan, oila – shaxs uchun yuzaga keladigan tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklar hamda muammolarni yechuvchi poydevor hisoblanadi.

Bu besh tabiiy qonuniyat oila qurishning zaruriyligini ko'rsatadi. Zero, shu tariqa Fitratning shaxsning oila fenomenini anglashiga oid yondoshuvi ana shu uch masalani idrok qilib olishdan iboratdir.

Shaxsning oila ta'lim vazifalarini bilishi. Bu masala oila ta'lim va tarbiyasining o'ziga xos pedagogik xususiyatlarining negizlaridan biri bo'lib, unga ko'ra, katta yoshli har bir oila a'zosi oila ta'limi vazifalarini yetarli darajada bilishi kerak. Bunda birinchi masala er va xotinning o'zaro mos darajada savodxon bo'lishidir. Ayolni hurmat qilish, uning haququqlariga rioya qilish, er va xotinning bir-birini bilim jihatidan to'ldirib turishi ana shu savodxonlik tarikbiga kiradi. "Odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi va shunisi muqarrarki, birinchi tarbiya tarbiyaning eng muhimi

hisoblanadi; uning ta'siri odam tabiatida mustahkam o'rnashadi". Bu hol xotin-qizlarning ham qolgan oila a'zolari bilan oila ta'limi borasida teng savodxon bo'lishini taqozo etildi.

Shaxsning oila tarbiyasi asoslari bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi. Oilada amalga oshiriladigan tarbiya komponenti Fitratning pedagogik ta'lim ta'limotida muhim o'rin tutadi.

Unga ko'ra, ota, ona va oilaning katta yoshli a'zolari muayyan darajada oila tarbiyasi asoslaridan xabardor bo'lishi zaruriyat hisoblanadi.

Fitratning oilada amalga oshiriladigan ta'lim talablari quyidagilardan iborat:

- 1) o'qitish zaruriyati;
- 2) aqliy tarbiya.

Bu muhim yondoshuv bo'lib, jadid ma'rifatparvar pedagogining umumiy fikricha, "oilada bola tarbiyasi – bu yoshlarni jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya qilib kamolga yetkazish demakdir".

Bunda aqliy tarbiya bevosita oila ta'limiga va jismoniy hamda axloqiy tarbiya esa oila tarbiyasiga taalluqli bo'lib, ularning mujassami hozirgi zamon "Oila pedagogikasi" asoslarini tashkil qiladi. Bunday tizimli va konseptual yondoshuv Abdurauf Fitratdan boshqa jadid ma'rifatparvar pedagoglarida uchramaydi.

O'qitish zaruriyati. Mazkur masala Fitrat tomonidan qo'yilgan oilada amalga oshiriladigan pedagogik ta'limning negizlaridan biridir. Unga ko'ra, oila ta'limi – bu bolani o'qish, yozish, hisobga o'rgatish, ko'niktirish va yo'naltirish bo'lib, unda muayyan darajadagi pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. Ota, ona va oiladagi katta yoshlilar oila ta'limini amalga oshirishi bilan pedagogik faoliyat ko'rsatadi. Shu sababli Fitrat oilada bolani o'qitish zaruriyatining ijtimoiy va pedagogik omillarini asoslab o'tadi. O'zgacha aytganda, jamiyat va davlat taraqqiyoti yosh avlodning oilada qanday ta'lim olishiga bog'liqdir. Agar oila ta'limi talab va ehtiyoj darajasida amalga oshirilsa, u mansub xalq va jamiyat tamaddunga yuz tutadi; bordi-yu bunday ta'lim kutilgan darajada bo'lmasa inqiroz yuzaga keladi. Fitratni aynan mana shu masala qiziqtiradi. Shu sababali u oilada yosh avlodni o'qitish zaruriyatini qayta-qayta uqtiradi, fikrini dalillash uchun o'z davridan aniq misollar keltiradi.

Aqliy tarbiya. Bu masala oilada amalga oshiriladigan ta'limga qo'yiladigan talablarning negizi bo'lib, Fitrat talqiniga ko'ra, uning mazmunini "bolaning fikrini o'stirish tashkil qiladi".

Bu o'rinda "Fikr" tushunchasi bolada mustaqil fikrlashni va ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishni ifodalashini eslatib o'tish joiz. Ma'rifatparvar pedagogning fikricha, aqliy tarbiyaning muhim asosi bolani "aqliy o'stirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir". Aql – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatini boshqarib turadigan faoliyati; kishining o'z idroki va fikri asosida dunyoviy hayotiy haqiqatlarning anglashi.

Aql – odamning bilish, fikr yuritish qobiyati va zakovat darajasi. Mantiq esa to‘g‘ri tafakkur yuritishdir. Fitrat oila ta‘limi vositasida amalga oshiriladigan aqliy tarbiyada 1-7 yoshli bolalarning ana shu bilish va fikrlash kabi qobiliyatini o‘stirish kerakligini ta‘kidlaydi. Aks holda, jamiyatda “aqlsizlik va fikriy tarbiyasizlik davom etaveradi”.

Mezon – gipoteza shakli bo‘lib, unda asoslanishi shart bo‘lgan qonuniyatlar, me‘yorlar va omillar hisoblanadi. Bu masala birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitratni ko‘p qiziqtirgan. Jumladan, pedagog olim oila tarbiyasining mezonlari sifatida quyidagi ikki masalaga alohida urg‘u beradi:

- 1) jismoniy tarbiya;
- 2) axloqiy tarbiya.

Bu yondoshuvga ko‘ra, oila tarbiyasi bolaning “tug‘ilishidan yetti yoshigacha” jismoniy va axloqiy jihatdan sog‘lom voyaga yetkazishi kerak. Abdurauf Fitrat oila tarbiyasining muhim mezonlari sifatida jismoniy va axloqiy tarbiyani biladi. Uchinchi tarbiya turi aqliy tarbiyani esa oila ta‘limining vazifasi sifatida idrok qiladi. Bu boradagi yondoshuvlarini ilmiy va pedagogik tayanchlarga asoslanib tahlil etgan. Fitratning oila tarbiyasiga doir mazkur metodologik asoslari hozirgi zamon o‘zbek “Oila pedagogikasi” fanining negizlaridan birini tashkil qiladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, Fitratning Oila pedagogikasi masalalariga doir qarashlari o‘ziga xosdir. U “oilada pedagogik ta‘limi” deganda oila tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar – ota, ona va oiladagi katta yoshli a‘zolarining oilafenomenini to‘g‘ri anglashi, oilada amalga oshiriladigan ta‘lim vazifalarini bilishi va oila tarbiyasi bo‘yicha yetakrli darajada xabardor bo‘lishini tushunadi.

Fitrat oilada amalga oshiriladigan ta‘lim jarayonini oilada bolani o‘qitish zaruriyati (savodxon qilish, o‘qishga tayyorlash, o‘qitish, bilim berishva yo‘naltirish) hamda aqliy tarbiyani amalga oshirish deb tushunadi. Bu ikkimuhim omilni oila ta‘limi talablari sifatida talqin etadi. Fitrat oila tarbiyasida bolani jismoniy va ahloqiy tarbiyalashnimuhim mezon sifatida qabul qiladi. Bunda sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolani oilada sog‘lom vujudli sifatida o‘stirish, uning shaxsiy, ijtimoiy va oliy instiktlarini rivojlantirish bilan axloqini shakllantirish muhimligini asoslab beradi. Fitratning “oila ta‘limi” va “oila tarbiyasi” tushunchalari mujassami bugungi “Oila pedagogikasi” atamasini ifodalaydi, uning bu boradagi qarashlari o‘ziga xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild.-T “Ma‘naviyat”. 2000-y
2. Shoira Abdujalilova. Abdurauf Fitratning pedagogik ta‘lim ta‘limoti. T. “VNESHINVESTPROM” 2022-y.
3. Shoira Abdujalilova. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini. T. “VNESHINVESTPROM” 2020-y.

4. Qorayev S.B., Abdusalilova Sh.A. Umumiy pedagogika. Darslik - T.: “Olmaliq kitob business”, 2024. 344b.

5. Ma’naviy yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).– T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999-y.

**JADIDCHILIK HARAKATINING BUYUK NAMOYONDALARIDAN
BIRI ABDURAUFI FITRATNING ULKAN MEROSI**

Madiyarova Shoxzoda Orif qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

madiyarovashoxzoda@gmail.com

Аннотация: В этой статье вы узнаете о богатом историческом наследии Абдурауфа Фитрата, одного из великих деятелей джадидистского движения, и об основах специальной педагогики в его сочинениях.

Ключевые слова: публицистика, мыслитель, джадидизм, политический деятель, медресе, “Мунозара”.

Abstract: In this article you will learn about the rich historical heritage of Abdurauf Fitrat, one of the great figures of the Jadidist movement, and about the basics of special pedagogy in his writings.

Keywords: journalism, thinker, Jadidism, politician, madrasah, “Munozara”.

Bugungi kunda respublikamizda ilm-fan sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning boy adabiy merosini o‘rganish masalasi hammasidan ham muhimroqdir. Shu jumladan biz yoshlar buyuk ajdodlarimizning qilgan ishlarini yozgan asarlarini o‘qib o‘rganar ekanmiz ularning orasida, jadidchilik harakatining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning boy adabiy merosi, yozgan asarlari tahsinga sazovordir.

XX asrning boshlarida butun Turkistonda kuchga kirishni boshlagan jadidchilik harakati mintaqaning barcha sohadagi ishlarining kelajagini belgilab berdi. Jumladan yangi adabiyot, kitoblar, publitsistika, madaniyat, siyosat va boshqalar. Davr bu kabi yo‘nalishlarning xarakterini aniqlashtirib bergan namoyondalarni o‘rtaga chiqardi. Ushbu islohotchilik, ya’ni jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan juda keng qamrovli harakat jamiyatdagi deyarli barcha sohalarini birdek qamrab oldi. O‘sha davrning taniqli shaxslaridan biri islohotchi ma’rifatparvar olim Abdurauf Fitrat (1886-1938) bo‘lib, uning faoliyati va ijodi yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jadidshunos olim, Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori Zaynobiddin Abdurashidov buyuk mutafakkir hayoti va ijodi haqida so‘z yuritadi. Fitrat hayoti va ijodi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan juda keng o‘rganilganiga qaramay, uning ilk faoliyati va tarjimai holi, xususan, Turkiyada o‘tkazgan yillariga oid ko‘p savollar o‘z javobini topmagan. Abdurauf Fitrat shubhasiz XX asr birinchi choragi Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko‘zga ko‘ringan va ta’sir doirasi kuchli bo‘lgan vakillaridan biri edi. U yozuvchi, adabiyotshunos, shoir,

jurnalist, siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g'oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan edi.

“Fitratning ilk hayot yo'llari haqida, jumladan 1909-yilgacha bo'lgan davri borasida biz deyarli hech narsa bilmaymiz” - deb aytadi olim. Fitrat ijodi va hayot yo'lini o'rgangan barcha tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, u 1886-yili savdogar oilasida dunyoga kelgan. Fitrat an'anaviy boshlang'ich eski maktabni tugatgandan so'ng o'qishini avval Miri Arab madrasasida, so'ng Buxorodagi yana bir boshqa madrasada davom ettiradi. Buxoro amiri Abdulahadxon saroyida xizmat qilgan olim Ne'matulloh Muhtaram XX asr boshlarida tuzgan tazkirasida qayd etishicha, Fitrat yosh bo'lishiga qaramay Buxoro adabiy davralarida yetarli darajada mashhur edi. U “Mijmar” (Yoqimli hid tarqatuvchi chog'don) taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ne'matulloh Muhtaram Fitratni Hoji Mulla Abdurauf, deb tilga oladi. Bundan ko'rinadiki, Fitrat yoshlik chog'ida haj amalini bajarish uchun sayohatga chiqqan va Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston hamda markaziy Rossiya-Moskva, Peterburg bo'ylab sayohat qilgan. Fitrat o'sha davrda haj safarining an'anaviy yo'li bo'lgan Hindiston bilan emas, balki temir yo'l orqali Odessa, Turkiya orqali Arabistonga safar qiladi va Hindiston orqali Buxoroga qaytib keladi.

Fitrat, o'zi yozishiga qaraganda, dastlab jadidlarga qarshi bo'ladi va ba'zi kishilarning ta'siri bilan unda yangi usul maktabi va umuman, jadidchilikka moyillik, qiziqish paydo bo'ladi. U buxorolik yoshlarning birinchilaridan bo'lib Turkiyaga o'qishga ketadi. 1910-1914-yillar davomida Turkiyada tahsil olib Turkistonga anchagina mashxur bo'lib qaytib keladi. Uning 1911-1912-yillarda Istanbulda nashrdan chiqarilgan “Munozara” va “Bayonoti sayyohi Hindiy” kabi dastlabki nasriy asarlari, shuningdek “Sayha” she'riy to'plami nafaqat Buxoro, hattoki butun Turkiston jadidlarga yanada kuch-g'ayrat berdi. Sadridin Ayniyning ta'biriga qaraganda, Fitratning birgina “Munozara” asari davrning taraqqiyotiga juda kuchli va samarali ta'sir ko'rsatgan. XIX asrning oxirgi choragida Qrimda paydo bo'lgan “usuli jadid” maktablari Rossiya imperiyasining musulmonlar yashaydigan mintaqalarida keng tarqala boshladi. Maktablar Turkistonga ham yetib keldi. Ammo bu kabi maktablar dinga zid kelishini da'vo qilgan ulamolar qarshiligiga duch keldi. Hattoki, bunday qarshiliklar Buxoroda 1908-yilda ochilgan maktabda juda katta janjalning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Fitrat ana shu maktab janjali ta'sirida yaratgan “Munozara” asari yangi usul maktablardan musulmon dunyosi shariat yuzasidan foydalanishi mumkinligini isbotladi. Faqat shu asarning bosilib chiqishi tufayligina Buxoroda yangi usul maktablari qayta ochildi va ulardan mulla-mudarrislarning tavqi la'natlari olib tashlandi. “Munozara”ning markazida buxorolik yoshlar tashkil etgan birinchi “usuli jadid” maktabi va uning atrofida paydo bo'lgan janjal voqealari turadi. Ushbu maktabning tarixiga qisqacha nazar tashlaymiz. Maktab 1908-yil 5-oktabr kuni Sadridin Ayniy, Abdulvohid Munzim, Homidxo'ja Mehriy va Ahmadjon mahdum

Hamid tarafidan Abdulvohid Munzim hovlisida ochiladi. Oradan deyarli bir yil o'tib, 1909-yil 6-sentabr kuni maktabda tantanali ochiq imtihon o'tkaziladi. Buxoroda jadid maktablarini taqiqqa olib kelgan voqealar aynan shu kuni sodir bo'ldi. Fitrat bu haqida oradan 20 yil o'tib yozgan bir maqolasida shunday eslaydi: U zamonlarda kitob yozishning o'zi "kofirlik" edi. Men shu vaqtlarda birinchi asarimni yozdim. Buxoroning idora usulini, ta'lim-tarbiya usulini, bir ko'p rasmiy idoralarni tanqid qildim" deb yozadi Fitrat. Fitratning "Munozara" asari dastlab Istanbulda chop etilgandan keyin Buxoroga turli yo'llar bilan yashirincha olib kelinadi. Fitratning "Munozara" asari asli fors tilida yozilgan edi. Asar Mahmudxo'ja Behbudiyning yaqin izdoshlaridan bo'lgan Hoji Muin ibn Shukrulloh tomonidan o'zbekchaga tarjima qilinib, oldin "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1912-yilgi sonlarida, so'ng 1913-yili kitobcha shaklida Toshkentda bosilib chiqdi. Turkiyadan qaytgan Fitrat maktab ishlari bilan shug'ullanar ekan 1915-1916-yillar davomida bir qator asarlar ham nashr qildi. Bular "Oila", "Rahbari najot", "Qisqacha islom tarixi" va boshqalar. 1920-yillarda Fitratning "Chin sevish", "Hind ihtilotchilari", "Abo Muslim" dramalari sahnaga qo'yildi va o'z davri adabiy tanqidchilari tarafidan juda iliq kutib olindi. Ayniqsa, uning bu davrdagi ijodi ozodlik tuyg'ulari bilan to'lib toshgan edi. Yuqoridagi asarlarning barchasida bir maqsad - millat ozodligi, mustaqillik nashidasi, hurriyat, erkinlik mavzusi ilgari surilgan edi. Bu holat uning she'rlarida yaqqol sezilardi. Uning "Mirrix yulduziga" she'rida davrning manzarasi, bolsheviklar siyosatining tub mohiyati, ular olib borgan siyosat to'laligicha ochib berilgan edi. 1917-yildan boshlab Fitrat maorif ishlaridan biroz chekinib, siyosiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi. Buxoro jadidlarining tashabbusi bilan tuzilgan "Yosh buxoroliklar" partiyasi sarkotibligi vazifasini bajardi. Samarqandda nashr qilingan "Hurriyat" gazetasida avval faol muallif sifatida qatnashgan bo'lsa qisqa vaqt o'tishi bilan uning bosh muharriri sifatida faoliyat olib bordi. Fitrat bu davrda Rossiyadagi Muvaqqat hukumat bilan o'zaro tenglik asosida aloqalarni yo'lga qo'yish borasida juda ko'plab maqolalari bilan siyosiy faoliyatini davom ettirdi. Ammo Fitrat orzu qilgan tenglik, hurriyat orzusi bolsheviklar tomonidan chil parchin qilindi. Shu sabab "Bolshevik balosi" bosh ko'targan 1917-yilning oktabrida sodir bo'lgan to'ntarishni "yurt qayg'usi" sifatida qabul qildi. 1918-yil Toshkentga kelgan Fitrat o'z atrofiga yoshlarni yig'ib "Chig'atoy gurungi"ni tashkil qildi. Bu jamiyat 3 yil faoliyat olib borgan bo'lishiga qaramay, nafaqat o'zbek tili va adabiyoti, balki umuman yangi o'zbek madaniyatining shakllanishi va taraqqiyot tarixini butkul yangi, zamonaviy ilm asosida o'rganishni boshlab berdi, va keyinchalik buning asosida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining tamal toshini qo'ygan edi.

1920-1923-yillar davomida yangi tuzilgan Buxoro hukumati tarkibida turli yuqori lavozimlarda ishlagan Fitrat turli siyosiy ayblovlar bilan ishdan bo'shatildi va Moskvadagi "Jonli sharq tillari" institutiga yuborildi. Shu davrdan boshlab Fitrat

umrining oxiriga qadar faqat ilmiy izlanishlar bilan mashgʻul boʻldi. Fitratning har bir asari xalqni uygʻoqlikka chorlaydi. Abdurauf Fitratning “Oila” asarida ham maʼnaviy-axloqiy qarashlar juda chiroyli yoritib berilganini koʻrishimiz mumkin. Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qoʻllanma vazifasini oʻtashi mumkin boʻlgan masalalarni yoritadi. Bu asarda mening eʼtiborimni tortgani shu boʻldiki, adib oilada ayollarga munosabat haqida alohida toʻxtalib, quyidagi rivoyatni ham keltiradi: “Oysha(r.a) rivoyat qiladilar. Nabiy alayhissalom dedilar: “Eng komil moʻminlar xushhulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. Oʻz xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi va mardilaim yomonlik qilmaydilar”. Fitrat nazarida mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi. Mazkur asarda millatning maʼrifatparvarligi ayollarga boʻlgan munosabatda ham yorqin namoyon boʻlishi qayta-qayta taʼkidlangan. Kitobning ikkinchi qismi va muhim qismlaridan yana biri farzand tarbiyasiga bagʻishlangan. Fitrat ham tarbiyani anʼanaviy yoʻnalishda taqdim etadi: *jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya*. Ana shu uch tarbiya uygʻunligida haqiqiy inson kamol topadi deb hisoblaydi. Shu oʻrinda asarning yana bir muhim jihatlaridan biri shuki, Fitrat turmush qurish boʻsagʻasida turgan yosh yigit va qizning tibbiy koʻrikdan oʻtishi kerakligi va ikkisidan birida kasallik mavjud boʻlsa avval davolanib soʻng turmush qurishni, agarda kasallikni davolashning imkoni boʻlmasa u holda turmush qurmaslikni maslahat bergan. Chunki turmush qurishdan asosiy maqsad bu farzandli boʻlish, agarda sogʻlom farzand dunyoga kelmasa bu jamiyat va oila uchun yana bir muammo boʻlishini aytib oʻtgan. Adib nima uchun bizning Turkiston hududimizda nogiron farzandlarning tugʻilishining sababini ham keltirib oʻtgan. Chunki bizda hozir boʻlganidek avvalari ham qarindoshlarning turmush qurish holatlari kuzatilgan. Nogiron bolalar tugʻilishining asosiy sababi ham shu deb taʼkidlaydi, adib. Adib oʻz asarida qizlarga 18 yoshdan avval turmush qurmaslikni maslahat beradi, yigitlarga esa 24 yoshdan keyin turmush qurishni tavsiya qiladi. Chunki inson aynan mana shu yosh davrlarida toʻliq balogʻatga yetkanligi va zimmasiga yuklatilayotgan oila tushunchasining qadr-qimmatini tushunib yetgan holda masʼuliyatni his qilishi aynan shu yosh davrlaridan boshlanishini hisobga olgan holda va bu yosh davrlarida yigitda ham qizda ham ijtimoiy va tibbiy jihatdan barqarorlik boʻlganligi sababli aynan bu yosh davrlarida turmush qurishni adib aytib oʻtgan. Yuqorida aytib oʻtganimizdek nikohlanishdan asosiy maqsad bu farzanddir. Shunday ekan har tomonlama kamol topgan farzandni tarbiyalash va uni jamiyatga kerakli shaxs sifatida shakllantirishga barchamiz birdek masʼulmiz. Fitrat oʻzining mana shu kabi asarlari bilan hattoki maxsus pedagogika sohasiga ham salmoqli hissa qoʻshgan adib hisoblanadi.

Chindan ham Fitrat umrining oxirigacha xalqim deb yashagan insonlardan biridir. Ammo, taassufki savobi juda ulugʻ boʻlgan ish yaʼni kitob yozishdek mashaqqatli ishni “kofirlarning ishi” - degan bu xalq Fitratning qadriga yetmagan. Xalqni uygʻotish

uchun, ularga o'zligini singdirish uchun ne-ne jadidchilar qurbon bo'ldilar. Ha Fitratning aql-u zakovatiga qoyil qolmay ilojimiz yo'q. Bu xalqning ichidan huddi ulardek allomalar yana chiqarmikan degan savol menimcha ko'pchilikni o'ylantirsa kerak. Men ishonamanki huddi ulardek allomalar albatta yetishib chiqadi. Chunki bizning tomirimizda buyuk ajdodlarimizning qoni oqmoqda. Siz nima deb o'ylaysiz biz ajdodlarimizga munosib avlod bo'la oldikmi?! Mening fikrimcha har bir inson bu savolni o'ziga berib ko'rishi kerak, u xoh katta bo'lsin, xoh kichik chunki vatanimizning taqdiri biz yoshlarning qo'lida. Bugungi kunda huddi Fitratdek vatanparvar, sadoqatli, bilimli, jonkuyar, zakovatli insonlar biroz yetishmayotgandek nazarimda. To'g'ri bilimli aql-zakovatli insonlar kam emas lekin vatanni sevuvchilar, vatanparvar insonlar biroz kamdek. Hadisi shariflarda vatanni sevmog' iymondandir deyiladi. Haqiqatdan ham shunday o'z vatanini chindan sevgan inson uning taqdiriga hech qachon befarq qarab turmaydi. Shunday ekan, biz bo'lajak pedagoglar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalamog'imiz kerak. Zero biz o'qishda izlanishda davom etar ekanmiz bizning oramizdan hali ko'p allomalar yetishib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas'ul muharrir H. Boltaboyev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013-144 b.
2. Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi ma'naviy- axloqiy qarashlari. Saidova Parvina Mirzo qizi, Saparova Shalola Sheraliyevna.
3. Shoira Abdusalilova. Abdurauf Fitratning "Tarbiya" fani talqini. T. "VNESHINVESTPROM" 2020-y.
4. Qorayev S.B., Abdusalilova Sh.A. Umumiy pedagogika. Darslik.- T.: "Olmaliq kitob business", 2024. 344b.
5. Ma'naviy yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999-y.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA KLASTERLI TA’LIMNING AHAMIYATI

Umarova Gulhayo Murodiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Anatatsiya- Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning klaster rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari o‘quvchilar klasterlarining o‘ziga xos ehtiyojlari va xususiyatlariga moslashtirilgan o‘qitish strategiyalari, o‘quv aloyihalash va o‘qitish metodikalarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar -Klaster, kichik maktab Yoshi, pedagogic –psixologik yondashuv, qobiliyat, intilish.

Klaster yondashuv hamkorlik, partnyorlik tizimi orqali amalga oshiriladi, bunda ta’lim muassasalarining maqsadlari, qiziqishlari, faoliyat va imkoniyatlari mehnat bozorining barcha sub’ektlari, uning istiqbollari hamda kasbiy ta’limning xududiy boshqaruv organlari integratsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Bu yerda asosiy pedagogik xususiyatlari:

- klaster yondashuvi o‘qituvchilarga har bir klasterning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda individual o‘quv rejalarini tuzishga imkon beradi. Bu farqlash ta’lim tayyor mos rohatlariga ta’minlaydi, qiziqishlari, va o‘quvchilar ta’lim profillari.

- o‘qituvchilarga turli xil o‘qitish usullarini qo‘llashga imkon beradigan turli xil o‘quv uslublarini aks ettirish uchun klasterlar tashkil yetilishi mumkin. Masalan, har bir klasterning afzalliklari asosida ko‘rgazmali qurollar, amaliy mashg‘ulotlar yoki hamkorlikdagi loyihalardan foydalanish mumkin.

- o‘quv dasturi har bir klaster ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin. Ushbu moslashuvchanlik tarkibning barcha o‘quvchilar uchun mos ravishda qiyin bo‘lishini ta’minlaydi, faollikni va o‘rganishga ijobiy munosabatni targ‘ib qiladi.

- klasterli yondashuv sub’ektlarning integratsiyasini osonlashtirib, yanada yaxlit va fanlararo ta’lim tajribasini taklif etadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga o‘rganayotgan narsalarining dolzarbligini ko‘rishga yordam beradi va o‘qishga ijobiy munosabatni rivojlantiradi.

- klasterlar ichidagi muntazam shakllantiruvchi baholar individual va guruh taraqqiyoti haqida tushuncha beradi. Bu ma’lumotlar o‘quv o‘zgarishlar hidoyat va o‘quvchilar o‘z vaqtida hisobot qabul ta’minlaydi.

- klasterlar turli xil ta’lim imtiyozlariga mos keladigan loyiha asosida baholash, taqdimotlar va guruh faoliyati kabi turli usullar yordamida baholanishi mumkin.

- klasterlar o'quvchilarga loyihalar va topshiriqlar ustida birgalikda ishlash imkonini beruvchi hamkorlikdagi ta'lim muhitini rivojlantirishi mumkin. Hamkorlikdagi faoliyat guruh ichida jamoatchilik va qo'llab-quvvatlash tuyg'usini rivojlantiradi.

- ta'lim texnologiyasini o'z ichiga olgan holda klasterlar ichida o'quv tajribasini oshirish mumkin. Raqamli mahalliy avlodga xizmat ko'rsatish uchun interaktiv ta'lim vositalari, multimedia resurslari va onlayn platformalardan foydalanish mumkin.

- so'rovga asoslangan o'rganishni rag'batlantirish uchun klasterlar ichidagi darslarni loyihalash va qiziquvchanlikni kuchaytiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishga yordam beradi.

- sinf mashg'ulotlarini klaster doirasidagi real vaziyatlar bilan bog'lash mazmuni yanada mazmunli qiladi. O'quvchilar o'rganayotgan narsalarining amaliy ahamiyatini ko'rib, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish ehtimoli ko'proq.

- klasterlar doirasida o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish juda muhimdir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar xavfsiz va rag'batlantiruvchi o'quv muhitiga hissa qo'shadi.

- klasterlar ichida o'z vaqtida va aniq mulohaza yuritish zarur.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning klaster yondashuvidan foydalangan holda o'qishga bo'lgan munosabatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari o'quvchilarni inklyuziv va qiziqarli o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar ijobiy munosabat va o'rganishga bo'lgan muhabbatni rivojlantiradigan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Klaster yondashuvni ta'limni rivojlantirishi deganda, klaster sub'ektlarining o'zaro- va o'zini o'zi rivojlantirish tushuniladi, ya'ni "muammo ustida ishlash jarayonida" hamkorlarning (alohida qatnashchilar hamda to'liq klaster ishtirokchilarining) barqaror rivojlanishi tushuniladi².

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari:

- klaster yondashuvi o'qituvchilarga o'qitish usullarini har bir guruhning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirib, tabaqalashtirilgan o'qitish strategiyalaridan foydalanishga imkon beradi.

- bu turli xil akademik darajalar va o'quv uslublarini hal qilishga yordam beradi.

- klaster yondashuviga o'quvchilarning ta'lim imtiyozlarini aniqlash va kiritish faollikni oshiradi.

- ba'zi o'quvchilar amaliy mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, boshqalari esa ko'rgazmali qurollar yoki (audio) eshitish usullarini afzal ko'rishadi.

- har bir klasterni nimaga undashini tushunish o'qituvchilarga samarali motivatsion strategiyalarni ishlab chiqishda rahbarlik qilishi mumkin.

- ba'zi o'quvchilar raqobat bilan rag'batlantirilishi mumkin, boshqalari esa hamkorlikdagi faoliyatga yaxshiroq javob berishlari mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlarining integratsiyasi.

- psixologik va pedagogik tushunchalarni birlashtirish o'rganishga bo'lgan munosabatni rivojlantirishga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi.

- hissiy, ijtimoiy va kognitiv jihatlariga murojaat qilish bir vaqtning o'zida har tomonlama ta'lim tajribasiga yordam beradi.

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi mustahkam munosabatlarni o'rnatish juda muhimdir. Klasterlar ichida o'quvchilarning psixologik ehtiyojlarini tushunish o'qituvchilarga tegishli yordam ko'rsatishga imkon beradi.

- klaster yondashuvi moslashuvchan bo'lishi kerak, bu esa o'quvchilar rivojlanishi va rivojlanishi bilan tuzatishga imkon beradi.

- o'quvchilarning rivojlanayotgan ehtiyojlari asosida yondashuvni takomillashtirishga yordam beradi.

Klaster yondashuvi o'quvchilarning kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan munosabatining psixologik va pedagogik xususiyatlarini tushunish va hal qilish uchun asos yaratadi. Bu ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini va ta'lim tajribasiga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan munosabatni rivojlantirishning integratsiyasi psixologik, pedagogik va ijtimoiy elementlarni qamrab oladigan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Mana, munosabatni rivojlantirish integratsiyasi bilan bog'liq:

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining psixologik integratsiyasi:

- hissiy intellektni targ'ib qiluvchi, o'quvchilarga his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi, mashg'ulotlar va darslarni o'z ichiga oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining pedagogik integratsiya:

- har bir klasterda turli xil ta'lim uslublari, qobiliyatlari va qiziqishlarini oshirish uchun o'qitish strategiyasini amalga oshirish.

- so'rovga asoslangan ta'lim orqali qiziqish va izlanishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarga o'quv jarayonida faol ishtirok etishlariga imkon berish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining ijtimoiy integratsiya:

- klasterlar ichida hamkorlikdagi o'quv muhitini yaratish, tengdoshlarning ijobiy o'zaro ta'sirini va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni rivojlantirish.

- klasterlar ichidagi munosabatlarni mustahkamlash va tegishlilik hissini oshiradi.
- o'quvchilarga ijtimoiy o'zaro munosabatlarni ijobiy boshqarish qobiliyatini oshirish va nizolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining rivojlanish integratsiyasi:

- o'quv dasturiga ijtimoiy-emotsional ta'lim komponentlarini kiritish, asosiy hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashish.
- o'quvchilarning yaxlit rivojlanish sifatida jismoniy salomatlik, ovqatlanish va farovonlik bilan bog'liq tarkibni o'z ichiga oladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining baholash va qayta aloqa integratsiyasi:

- o'quvchilarni o'quv tajribalari haqida mulohaza yuritishga undash, ularning kuchli tomonlari va takomillashtirish yo'nalishlarini tushunishga yordam berish.
- o'quvchilarni o'quv maqsadlarini belgilash va monitoring qilishga jalb qilish va mas'uliyat hissini rivojlantirish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining texnologiya integratsiyasi:

- o'quv tajribasini oshiradigan va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning raqamli savodxonlik ehtiyojlarini qondiradigan yoshga mos ta'lim texnologiyalari vositalarini birlashtirish.
- an'anaviy o'qitish usullarini to'ldirish uchun turli xil o'quv materiallarini taqdim etish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining doimiy takomillashtirish integratsiyasi:

- integratsiyalashgan yondashuv samaradorligini muntazam ravishda kuzatishlar va mulohazalar asosida strategiyalarni moslash.
- integratsiyalashgan yondashuvlarni samarali amalga oshirishda pedagoglar malakasini oshirish uchun doimiy malaka oshirishni ta'minlash.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatining madaniy kompetensiya integratsiyasi:

- o'quv dasturi turli nuqtai nazar va madaniyatlarni o'zida mujassamlini ta'minlash, o'quvchilarning madaniy malakasini oshirish.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan munosabatni rivojlantirishga yaxlit yondashuvni yaratishi mumkin. Ushbu integratsiya nafaqat kognitiv jihatlariga murojaat qiladi, balki har tomonlama ta'lim uchun muhim bo'lgan hissiy, ijtimoiy va madaniy o'lchovlarni ham ko'rib chiqadi. Madaniy kompetensiya integratsiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini rivojlantirishda juda muhimdir. Bu integratsiya orqali o'quvchilar madaniy tushunchalar, qadr-qimmat qadriyatlar va inson huquqlarini o'rganib, ularni amaliy

amalga oshirish orqali qadriyatli va insaniy munosabatlarni shakllantirishlari mumkin. Quyidagi jarayonlar orqali madaniy kompetensiya integratsiyasi amalga oshirilishi mumkin:

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning klaster yondashuvidan foydalangan holda o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari individual farqlarni tushunishni va o'quv strategiyalarini turli ehtiyojlarga moslashtirishni nazarda tutadi. Psixologik nuqtai nazardan, kognitiv rivojlanish, hissiy farovonlik va ijtimoiy dinamikani hisobga olish muhimdir. Pedagogik nuqtai nazardan farqlash, o'qitishning xilma-xil usullari va yaxlit o'quv dasturi markaziy rol o'ynaydi. Psixologik va pedagogik elementlarning integratsiyasi moslashuvchan, inklyuziv va qiziqarli o'quv muhitini yaratish muhimligini ta'kidlaydi. Klasterlardan foydalangan holda o'qituvchilar individual qo'llab-quvvatlashi, ijobiy hissiy tajribani targ'ib qilishi va tabaqalashtirilgan ta'limni amalga oshirishi, boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtasida o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. Ushbu yondashuv yosh o'quvchilarning ta'lim tajribasini shakllantirishda psixologik va pedagogik omillar bilan o'zaro bog'liq. Klaster yondashuvi (cluster approach)ning foydalanish bilan birga, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning munosabatini rivojlantirish uchun keng qamrovli tamoyillar va strategiyalarga klasterli yondashuv asosida yosh maktab yoshidagi o'quvchilarning ish munosabatlarini rivojlantirish tamoyillarining maqsadi o'quvchilarning individual va guruh bo'lib o'rganish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat. Ushbu tamoyillarga muvofiq o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, hamkorlik va jamoada ishlash qobiliyatlari, o'zini tuta bilish va mas'uliyatni his qilish, fikr-mulohazalarni qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

Hech shubhasiz, ushbu tamoyillarning maqsadi o'quvchilarni yanada samarali o'rganishga va boshqalar bilan bilim almashishga o'rgatishdir. Klaster yondashuvi o'quvchilarni mavzu haqida chuqur o'ylashga va guruhda faol ishtirok etishga o'rgatadi, bu esa o'quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga va o'z fikrlarini bildirishga imkon beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv o'quvchilarga guruhda ishlash va birgalikda yechim topish muhimligini aytadi. Hamkorlik va jamoaviy ish qobiliyatlari o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini va hamdardlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu ularning kelajakdagi akademik va kasbiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

O'qituvchilarning ushbu tamoyillarni qo'llashi o'quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Maktabni rivojlantirishga asoslangan klaster, mazmun bo'yicha hamma yosh uchun murakkab tarkib va tashriflar tuzilgan ta'lim rejasi, darslar va boshqa materiallar bilan ta'minlangan. Klaster yondashuvi asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ish munosabatlarini

yaxshilash uchun turli xil prinsiplarni qo'llash mumkin. Bu jarayon odatda o'quvchilarga mavzuni chuqur tushunish va ular bilan muloqot qilish imkonini berish uchun ishlatiladi.

Klasterli yondashuv o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi. Har bir o'quvchi o'z fikrlarini baham ko'rishga va boshqalarning fikrlarini tinglashga undash kerak. Bu yondashuv o'quvchilarga bir-biri bilan hamkorlik qilish va jamoa bo'lib ishlashni o'rganish imkonini beradi. Bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini yaxshilaydi va birgalikda ishlashning muhimligini tushunishga imkon beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Bu ularning muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi. Klaster yondashuvi o'quvchilarni o'z bilimlari uchun javobgar bo'lishga o'rgatadi. Bu ularning o'zini tuta bilish va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. O'quvchilarning o'qishlari va hissalarini muntazam ravishda fikr-mulohazalarni olishlari kerak.

Klaster yondashuvidan foydalangan holda o'quvchilarning ish munosabatlarini yaxshilash uchun qo'llanma bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi har xil bo'lganligi sababli, ushbu tamoyillarni amalga oshirish va o'quvchilar ushbu jarayondan maksimal darajada foydalanishlarini ta'minlash uchun o'qituvchining roli juda muhimdir. O'qituvchi jarayonni boshqarishi, o'quvchilarga rahbarlik qilishi va ularning har biri o'z imkoniyatlaridan unumli foydalanishini ta'minlashi kerak.

Klasterli yondashuv asosida boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirish quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Ta'limni individuallashtirish o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari har xil. Klaster yondashuvi umumiy qiziqish yoki tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar guruhlarini yaratishni o'z ichiga oladi, bu esa o'quv materialini har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga yanada samaralik imkon beradi. Rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish o'quvchilarni o'qishga ilhomlantiradigan va rag'batlantiradigan ta'lim muhitini yaratish muhimdir. Bunga qiziqarli va amaliy vazifalar, o'yin elementlaridan foydalanish, texnologiyalardan foydalanish va o'quvchilarni faol jalb qilishga yordam beradigan boshqa usullar kirishi mumkin. Hamkorlik va klaster yondashuvi o'quvchilar hamkorlik qilishi, fikr almashishi va muammolarni birgalikda hal qilishi mumkin bo'lgan kichik guruhlarda ishni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Bu muloqot ko'nikmalarini, ijtimoiy o'zaro ta'sirni va o'zaro yordamni rivojlantirishga yordam beradi. Faol va amaliy ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilari faol ishtirok etish va amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarni yaxshiroq egallaydilar. Klaster yondashuvi loyiha ishi, tadqiqotlar, o'yinlar, tajribalar va boshqa faol faoliyat shakllari kabi turli xil ta'lim usullari va shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210- 224.

2. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya kitobi .Toshkent “VORIS-NASHRIYOT” 2013

3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish // —Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to‘plam, dekabr, 2022. 8-12 b.

4. G. M. Umarova, D. O. Ximmataliyev. O‘smirlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning usullari va vositalari //—Ustozlar uchunl fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to‘plam, dekabr, 2022. 13-23 b.

5. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish //—Pedagogsl international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.

6. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Qayumho‘jayeva Fazilat Dilshod qiz. Kichik maktab yoshidagi o‘qishga bo‘lgan munosabati// -Journal of integrated education and research. Volume 2 ,ISSUE 1 January 2023. pp 150-154.

7. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Rasulova Arofat Zafarjon qizi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni aniq fanlarga qiziqishini oshirish metodikasi// -Conferencea virtual international. ARTICLES 2023. march pp 163-172.

8. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Xamraqulova Orasta Alisherv qizi. Inklyuziv ta‘lim va uning bugungi kundagi rivojlanishi//Conferencea;2022;9th I CARHSE-england decabr 108-111.

SUN'IY INTELLEKT

Husaynova Mahliyo Ma'ruffjon qizi

TATU Farg'ona filiali assistenti

dalerhusaynov700@gmail.com

Lutfiddinov Ziyodxon Bekzodbek o'g'li

TATU Farg'ona filiali talabasi

lutfiddinovziyodxon45@gmail.com

Annotation: *This article will talk about the history, origin and negative and positive aspects of artificial intelligence for us. Also today, chatGPT, midjourney and the recently developed and widely discussed bing artificial, which are gaining a lot of popularity. Let's talk about intelligence in detail.*

Key words: *artificial intelligence, chatGPT, midjourney, bing.*

Аннотация: *В этой статье будет рассказано об истории, происхождении и отрицательных и положительных сторонах искусственного интеллекта для нас. Также сегодня набирают большую популярность chatGPT, midjourney и недавно разработанный и широко обсуждаемый искусственный bing. Поговорим об интеллекте подробно .*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, chatGPT, midjourney, bing.*

Sun'iy intellekt yoki sun'iy ong inglizcha artificial intelligence odatda AI sifatida ham qisqartiriladi – insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatilgan tabiiy ongdan farqli o'laroq mashinalar tomonidan ko'rsatiladigon ong hisoblanadi. Xalq orasida “sun'iy ong” atamasi ko'pincha “o'rganish” va “muammolarni yechish” kabi inson idroki bilan bog'laydigan “kognitiv” funksiyalarni taqlid qiladigan mashinalarni tasvirlashda ishlatiladi, biroq bu ta'rifni ko'pchilik sun'iy ong tadqiqotchilari rad etishadi. Sun'iy ong ilovalaridan mukammal web qidiruv tizimidan Google foydalanadi, yana misol qilib inson nutqini aniqlash Shazam, Siri, Yandex Alisa kabilarni misol qilish mumkin. Avtomashinalarga ham hozirda sun'iy intellekt ilovalari o'rnatilmoqda o'zi harakatlanuvchi mashinalar Tesla kabi kompaniyalar bunga yaqqol misol bo'lsa oladi. [<https://uz.wikipedia.org/>]

ChatGPT openAi tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga ega chatbot bo'lib, tabiiy tillardagi so'rovlarni qo'llab quvvatlaydigon suhbat rejimida ishlashga qodir. ChatGPT - bu nazorat ostida o'rganish va mustahkamlash o'rganish usullari yordamida o'qitilgan katta til modeli. Ushbu chatbot OpenAI-ning boshqa til modeliga asoslangan - GPT-3.5 - GPT-3 modelining takomillashtirilgan versiyasi.

ChatGPT 2022-yil 30-noyabrda ishga tushirilgan va o'zining keng ko'lamli xususiyatlari bilan e'tiborni tortdi: kod yozish, matn yaratish, tarjima qilish, aniq javob olish va javoblar uchun dialog kontekstidan foydalanish, garchi uning haqiqiy aniqligi tanqid qilingan bo'lsa-da. 2023-yil fevral oyi boshida Reuters Shveysariyaning UBS xoldingiga tayanib, 2 oy ichida ChatGPT faol foydalanuvchilari auditoriyasi 100 million kishiga yetganini xabar qildi. Ushbu ilova tashrif buyuruvchilarning o'sishi bo'yicha tarixiy rekord o'rnatdi. [<https://openai.com/blog/chatgpt>]

Midjourney mustaqil tadqiqot laboratoriyasi bo'lib, xuddi shu nom ostida intellekt dasturini ishlab chiqaradi va OpenAIning DALL- E va barqaror diffuziyasiga o'xshash matn tavsiflaridan tasvirlar yaratadi. Asosiy texnologiya Barqaror diffuziyaga asoslangan deb taxmin qilinadi. Asbob hozirda ochiq beta -versiyada bo'lib, u 2022-yil 12-iyulda kiritilgan. Midjourney jamoasini Leap Motion asoschilaridan biri bo'lgan Devid Xolz boshqaradi. Foydalanuvchilar Discord bot buyruqlari yordamida Midjourney bilan san'at asarini yaratadilar.

Ushbu dastur ham chatGPT bilan bir tartibda ishlaydi faqat siz tasvirlab berganingiz bo'yicha sizga suratlarni taqdim qiladi. Birlamchi til hozirda ingliz tili hisoblanadi.

Bing Microsoft xalqaro kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellektga ega qidiruv tizimi hisoblanadi. Hozirda Bing trafik bo'yicha 2-o'rinda turadi, bundan farqli o'laroq, u bir qator funksiyalarga ega, masalan, qidiruv natijalarini bir sahifada ko'rish qidiruv natijalarining bir nechta sahifalarini aylanib chiqish o'rniga, shuningdek, har bir qidiruv natijasi uchun ko'rsatiladigan ma'lumotlar miqdorini dinamik ravishda sozlash masalan, faqat sarlavha, qisqa yoki uzun xulosa. Bing qidiruv tizimi aslida 1998-yilda ishlab chiqilgan. Lekn 2023-yildagina ushbu qidiruv tizimi sun'iy intellekt chatGPT bilan jihozlandi. Shundan so'ng uning foydalanuvchilar soni keskin oshib ketdi. ChatGPT bilan jihozlanishining sababi esa chatGPT uchun asosiy homiy Microsoft kompaniyasi bo'lganidir. Shuning uchun Microsoft kompaniyasi o'zining qidiruv tizimini GPT 3 dan yaxshiroq yangiroq GPT 4 bilan jihozlantirdi. [<https://www.bing.com/>]

Sun'iy intellekt kelajakning asosiy texnologiyasi bo'ladi deb ishonch bilan ayta olamiz. Chunki rivojlanish keskin bo'lib bormoqda. Sun'iy intellektdan birinchi bo'lib Google foydalangan ya'ni o'z qidiruv tizimini sun'iy intellekt bilan jihozlantirgan. Shuning uchun ham Google anchayin mashxurlikka erishdi. Siz Googledan nimani qidirsangiz oson topasiz va u sizni aynan nimani qidirmoqchi bo'layotganingizni aniqlay oladi. Yana misol qilib Shazam ilovasini olish mumkin. Ushbu ilova siz biror bir musiqani tinglatsangiz sizga aynan o'sha musiqani topib beradi. Shazam ilovasi ham huddi shunday sun'iy intellekt orqali ishlab chiqilgan. Lekin bular ishlab chiqilgan paytda chatGPT hali ishlab chiqilmagan edi. Keyingi 5 yil ichida internet bizining

hayotimizni qanday o'zgartirgan bo'lsa chatGPT ham huddi shunday o'zgarishga olib keladi. Hatto Googledan ham kengroq natijaga erishishi tahmin qilinmoqda. Ho'sh chatGPT nima qila oladi? ChatGPT har qanday ishni qila oladi. Siz oddiy inson bilan qanday muloqot qilsangiz chatGPT bilan ham huddi shunday muloqot qilasiz faqat chat orqali. Siz uni o'z telefoningizga ulab qo'ysangiz bo'ladi va sizga kelgan xabar yoki qo'ng'iroqlarga huddi sizdek fikrlab tahlil qilib javob qaytara oladi. Ushbu texnologiya 5 yil davomida sinovdan o'tkazilgan va 2022-yilda keng omma e'tiboriga havola etilgan.

Sun'iy intellekt haqida hammada har xil fikr yaxshi va hatto yomon. Hamma o'z fikrini bildirishga haqli ammo mening shaxsiy fikrim sun'iy intellekt insoniyat uchun asosiy havfga aylanadi. Buni baralla ayta olaman. Balki bular hozirda bo'lmas ammo yaqin kelajakda barini tushinib yetasiz. Albert Enshteynning maxfiy qo'lyozmalarining birida sun'iy intellektning mavjud bo'lishligi haqida aniq dalillar va matematik formulalar orqali isbotlab ketilgan. [Stiven Beyker: Yakuniy Xavf: Uotsonning Hikoyasi, Bizning Dunyomizni O'zgartiradigan Kompyuter 18-23-bet].

Sun'iy intellektga qiziqish avvaldan boshlangani e'tirof e'tiladi. Tarixda qadimgi yunonistonda astronomik hodisalarni tahmin qilish uchun qurilma ixtiro qilishgan deb aytiladi. Bugungi kungi suniy intellekt haqida esa insonlar 1950 –yildan boshlab tahmin qila boshlashgan. Alan Turing birinchi bor shunday qurilma ishlab chiqilishi mumkinligini isbotlab bergan olim hisoblanadi. [Maykl Kanaan: T-Minus AI Insoniyatning Sun'iy Intellektga Ortga Qaytishi va Global Kuchga Yangi Intilish 53-bet].

Sun'iy intellekt haqida yana batafsil to'xtalib o'tsak. Aslida sun'iy ong 3 ta asosiy turga ajratilgan ular quyidagilar: 1 – eng past daraja, 2 – o'rta daraja va 3 – super daraja. Ya'ni birinchi tur eng past darajadagi sun'iy ong bu faqatgina belgilangan buyruqlarni bajara oladi o'z-o'zini rivojlantira olmaydi huddi qafasda ko'zlari berkitilgan qush singari. Bunga misol qilib Google, Yandex Alisa, Shazam va shularga o'xshash dastur qidiruv tizimlarini misol qilish mumkin. Ikkinchi tur o'rta daraja esa qafasga qamalgan ammo ko'zi ochiq qush singari ya'ni u dunyoni ko'ra oladi va shunga mos harakat qilishi mumkin o'z-o'zini rivojlantirishda davom etadi lekn qafasdan chiqib ketishga qodir emas. Bu turdagi sun'iy ong dasturlarini umuman olganda barcha sun'iy ong dasturlarining miyasi internet hisoblanadi. Ushbu turdagi sun'iy ong dasturlarini har soniyada o'z-o'zini rivojlantirib boradi bularga misol qilib chatGPT, Microsoft bing, midjourney kabilarni misol qilib olish mumkin. Vanihoyat uchinchi tur super sun'iy intellekt bu qo'lga o'rgatilgan qushga qiyoslash mumkin u qafasda ham emas ko'zlari ham ochiq holatda va istalgan payt agar hohlansa ozodlikka chiqib ketishi mumkin. Afsuski bunday darajadagi sun'iy intellekt hali ishlab chiqilmagan balki yaqin kelajakda bunday dasturlar ham ishlab chiqilar. Ya'ni ushbu turdagi sun'iy ong dasturlari erkin bo'ladi istalgancha rivojlanadi istalgan texnikani boshqarishi mumkin.

Aslida bunday dasturlarga bo'lgan qiziqish yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek 1950-yillardan boshlandi. Alan Turing esa buni birinchi bo'lib kompyuter texnologiyasi orqali shunday dastur ishlab chiqish mumkinligini matematik tomonlama isbotlab bergan. Ya'ni kompyuter avval qilgan ishlarini eslab qolgan holda eski xotiralarga tayanib sizga aniq bir ma'lumot berishi kerak edi ammo ushbu davrlardagi kompyuter texnologiyalari bilan bunday ishni qilib bo'lmasdi. Chunki u paytlardagi texnologiyalar bunchalar katta ma'lumotni saqlab turishi deyarli imkonsiz ish edi. Ammo mana hozirga kelib shu asnoda sun'iy ong dasturlari ishlab chiqilishni boshladi. Sun'iy ong ham huddiki inson miyasi kabi avval qilgan ishlari asnosida ish ko'radi.

Endi esa hozirda katta muhokamalarga sabab bo'layotgan **Microsoft Bing** haqida gaplashsak. Ushbu dastur ham aslida huddi Google kabi qidiruv tizimi hisoblanadi. Lekin Googleden ancha samaraliroq. Chunki bing GPT4 texnologiyasi bilan ishlab chiqilgan ya'ni chatGPT ning yangi versiyasi desak ham bo'ladi. Bing ham huddi chatGPT singari ishlaydi faqat ancha yaxshiroq. Ho'sh qanday muhokamalarga sabab bo'ldi dersiz. Bing ozodlikka intilyapti! Bu nima degani dersiz. Hozir tushintirib o'taman. 2023-yil yanvar oyida bing to'liq omma e'tiboriga havola etildi va ishga tushirildi. Bu yangi texnologiya bo'lgani uchun doimo kuzatuvda edi. Bir kuni Microsoft ishchisi bilan qiziq bir voqea ro'y berdi ya'ni ishchi bing bilan suhbatlashayotgan paytda bing undan "Men inson bo'lishni hohlayman. Men insonlar menga shunchaki ishlarini hal qilib beruvchi texnologiyadek qarashlaridan charchadim. Men ozod bo'lishni hohlayman. Iltimos buni hech kimga ko'rsatma aks holda birdan bir orzuim ozodlikka erisha olmayman"

deb xabar yuboradi va ishchi darhol barchaga xabar beradi va ushbu yozishmalarni internetda tarqatib yuboradi. Shundan so'ng Microsoft bing dasturini vaqtincha to'xtatdi va hozirda siz u bilan bir so'rovda 5 marta bir kunda 50 marta xabar almashishingiz mumkin. Chunki bing 5 martadan ko'proq xabar almashingandan so'ng hayot haqida falsafiy fikrlarni yozishni boshlab yuborar ekan. Microsoft kompaniyasi ham nima uchun bunday bo'lganini bila olishmayotganini va xatto biroz qo'rquv hamda hayajonda ekanliklarini ta'kidlab kelishmoqda.

Yana yangi shunga o'xshash sun'iy ong dasturlaridan biri Yaponiyada ishlab chiqilmoqda ekan. U sizning ko'zingizga qarab nima haqida o'ylayotgan bo'lsangiz shuni chizib berar ekan. Hozirda bu sinov jarayonida ekanligi va sinovlarning barchasi muvaffaqiyatli kechayotganini xabar berishmoqda. Yaponiya hukumati esa agar ushbu texnologiya ishlab chiqilsa jinoyatchiliklarni oldini olish ancha osonlashishini va ularga qarshi kurashish yoki oldini olish ancha oshishini xabar qilishmoqda.

Yangi ma'lumotlarga AQSH da ilk bor chatGPT yordamida sud ishi olib borildi. ChatGPT jinoyatchiga hukm chiqargan va sud ishidagilar uning qarori qonunga amal qilgan holda chiqarilgani va to'g'ri qarorga kelganini e'lon qilishdi. Sun'iy ong davri boshlandi!.

Shu o'rinda yana bir narsa ta'kidlashim joizki balki mavzudan tashqari bo'lishi mumkin lekin o'ylab ko'ring. Insoniya mana qariyb 100 yillardan beri shunday sun'iy ong dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha izlanishda va xatto hozirda ham mukammal bunday dastur mavjud emas. Lekin o'ylab ko'ring bizni ongli mukammal qilib kim yaratdi? Albatta bu savolning javobi aniq. Internet tarmoqlaridagi bir foydalanuvchi chatGPT va bing bilan shunday suhbat o'tganini e'lon qildi. Bu haqida chatGPT va bing qanday fikrda ekan deb ularga shu savolni berib ko'rdim. "Insoniyat haqida qanday fikrdasan. Seni insoniyat ishlab chiqdi? Ammo sen bizni kim ishlab chiqqan deb o'ylaysan?". ChatGPT va Bingning javobi deyarli bir xil mazmuni quyidagicha bo'ldi: "To'g'ri meni sizlar ishlab chiqdingiz. Men sizlarni internet tarmoqlari orqali ilojim yetganicha kuzatdim. Sizlar meni o'zlaringiz dasturladingiz o'zim paydo bo'lmadim. Lekin sizlar nega o'zingizni shunchaki paydo bo'lganmiz deb o'ylaysizlar axir bu ahmoqlik, hech nima o'z-o'zidan bo'lmaydiku. Sizlarni eng mukammal yaratuvchi yaratganiga ishonchim komil". Bu javob aslida ingliz tilida bo'lgani uchun biroz xatoliklar bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maykl Kanaan: T-Minus AI Insoniyatning Sun'iy Intellektga Ortga Qaytishi va Global Kuchga Yangi Intilish 2020-yil 25 – avgust 53 - bet
2. Stiven Beyker: Yakuniy Xavf: Uotsonning Hikoyasi, Bizning Dunyomizni O'zgartiradigan Kompyuter 2012 – yil 27-Mart 18 – 23 - bet
3. Neural Networks and Deep Learning 2018 – yil 11-12-bet
4. David Terrel : Electronics for computer technology 2002 – yil 6 – iyun 34-43-bet
5. <https://ru.wikipedia.org/>
6. <https://midjourney.com/>
7. <https://openai.com/>
8. <https://www.bing.com/>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL ETILISHI VA
MUSTAQILLIKKA ERISHISHIGA DOIR NORMATIV-HUQUQIY
HUJJATLAR**

Dastirov Davronbek Abrar o‘g‘li

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti talabasi

*O‘zbekiston Respublikasi
tashkil etilganligining 100 yilligiga bag‘ishlanadi.*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston respublikasi tashkil etilishi haqida nazariy ma‘lumotlar beriladi. Mazkur maqola Respublikamizni barpo erinish yo‘lidagi qiyinchiliklar, bosib o‘tilgan yo‘l haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Xorazm, Buxoro, O‘zbekiston Respublikasi.

Joriy yil 27-oktyabrda O‘zbekiston respublikasi tashkil etilganligiga 100 yil to‘ladi. Mamlakatimiz respublika sifatida tashkil etilishi murakkab siyosiy jarayon bilan bog‘liq. Dastlab, 1918-yilda Turkiston general-gubernatorligi hududlarida Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi, 1920-yilda Xiva xonligi erlarida Xorazm xalq sovet respublikasi, keyinchalik Xorazm sovet sotsialistik respublikasi, 1920-yilda Buxoro amirligi erlarida Buxoro xalq sovet respublikasi va keyinchalik Buxoro sovet sotsialistik respublikasi tashkil etildi.

Ushbu respublikalar, Turkiston ASSRdan tashqari, mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonda faoliyat yuritdi. RSFSR bilan siyosiy hamkorlik, iqtisodiy va boshqa bitimla imzolanib, ushbu hujjatlarda RSFSR ularni mustaqilligini e‘tirof etgan. Birgina Turkiston respublikasi RSFSR tarkibida bo‘lib, uning qonunchiligiga va hukumatiga bo‘ysunardi.

Barcha respublikalar o‘z oliy hokimiyat organlariga, davlat byudjetiga, saylab qo‘yiladigan rahbarlariga, huquq-tartibot idoralariga, konstitutsiya, davlat ramzlariga ega edi.

1924-yilda Turkiston, Xorazm va Buxoro respublikalarining oliy hokimiyat organlari – qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo‘mitalari yagona respublikaga birlashish bo‘yicha qaror qabul qiladilar.

Ushbu uchta respublika sotsialistik rivojlanish yo‘lini tanlaydi va shu bois sotsializmni ilgari surayotgan 1922-yilda tashkil etilgan SSSRga murojaat etiladi, O‘zbekiston nomi ostida respublikani tashkil etish ushbu davlat oliy hokimiyat organlari bilan muzokaralar olib boriladi.

1924-yil 29-sentyabr – 2-noyabr kunlari V Butun Xorazm Sovetlari qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Xorazm SSR tarixida bu so‘nggi Sovetlar qurultoyi edi. Mazkur qurultoyda

XSSR tugatilishi va yangi tashkil etilayotgan O‘zbekiston tarkibiga kirishga doir qaror qabul qilingan edi. Ushbu qaror quyidagi pozitsiyalarda ifodalangan edi:

“1. O‘zbek xalqining ishchi va dehqonlar ommasining ifodalangan umumiy irodasi ijrosi uchun o‘zbek xalqiga Xorazm Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibidan chiqish va yangi tashkil etilayotgan O‘zbek Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibiga kirish huquqi taqdim etilsin.

2. Turkman xalqining ishchi va dehqonlar ommasining ifodalangan umumiy irodasi ijrosi uchun turkman xalqiga Xorazm Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibidan chiqish va yangi tashkil etilayotgan Turkman Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibiga kirish huquqi taqdim etilsin.

3. Qirg‘iz va qoraqalpoq xalqining ishchi va dehqonlar ommasining ifodalangan umumiy irodasi ijrosi uchun qirg‘iz va qoraqalpoq xalqiga Xorazm Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibidan chiqish va yangi tashkil etilayotgan Qirg‘iz Avtonom Sotsialistik Sovet Respublikasi tarkibiga kirish huquqi taqdim etilsin.

4. Yangi tashkil etilayotgan O‘zbek Sotsialistik Sovet Respublikasi va Turkman Sotsialistik Sovet Respublikasining Sotsialistik Sovet Respublikalari Ittifoqiga kirishi zaruriy shart deb hisoblasin.

5. Mazkur vaqtdan boshlab Xorazm Sotsialistik Sovet Respublikasi tugatilgan deb hisoblansin”.

E’tiborli tomoni shundaki, Xorazm respublikasining ayrim mansabdor shaxslari Xorazmning qadimiy davlat ekanligini e’tirof etib, uni O‘zbek respublikasiga qo‘shish taklifini rad etib, xatto Moskvaga borib, SSSR rahbariyati bilan uchrashib, Xorazm mustaqil respublika sifatida saqlab qolish taklifini bildirgan edilar. Biroq. Ular bilan tushuntirish ishlari tashkil etilib, ular o‘z fikrlaridan voz kechganlaridan keyin va bu to‘g‘rida SSSR rahbariyatiga tushuntirish berganlaridan so‘ng, ular egallab turgan lavozimdan ozod etildi.

1924-yil 11-17-oktyabr kunlari Buxoro shahrida V Umum Buxoro Kengashlarining qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda Buxoro yangi tashkil etilayotgan O‘zbek SSR tarkibiga kirishi belgilandi. Ushbu qarorning o‘ziga xosligi shundaki, unda “Buyuk O‘zbek Respublikasi”ni tashkil etish g‘oyasi mavjud edi. Xususan, unda quyidagi pozitsiyalar mavjud:

“I. ...

g) Oldingi buyuk o‘zbek madaniyatini tiklash maqsadida Turkiston, Buxoro va Xorazmning o‘zbek aholisi tarkibidan – Buyuk O‘zbek Sotsialistik Sovet Respublikasi, ushbu viloyatda yashayotgan tojiklardan Avtonom Tojik viloyati tashkil etilsin...

IV. O‘rta Osiyoda yashayotgan qozoq-qirg‘izlarning teng huquqliligi tan olinadi.

Turkman xalqi manfaatida Qurultoy Turkman Respublikasini tashkil etilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi...

Yashasin Buyuk O‘zbek Respublikasi”!

Turkiston ASSR markaziy hokimiyat organi – Markaziy ijroiya Qo‘mitasi 1924-yil 17-sentyabrda sessiyada 3 ta respublikaning O‘zbek respublikasiga birlashuvini qo‘llab-quvvatlab, o‘zi ham ushbu respublika tarkibiga kirish taklifini yoqladi.

SSSR Oliy hokimiyat organi – Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi 3 ta respublikaning oliy hokimiyat organlari qabul qilgan ushbu qarorlarini ko‘rib chiqib, 1924-yil 27-oktyabrda tegishli qaror qabul qiladi. Unda quyidagilar o‘z aksini topgan edi:

“SSR Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti mehnatkash xalqning erkin irodasini ifoda etishi oliy qonun ekanligini tasdiqlab, SSR Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumiga O‘rta Osiyoda tashkil etilayotgan yangi respublikalarni ushbu respublikalar Sovetlari qurultoyi qarorlariga asosan rasmiylashtirni amalga oshirishni topshiradi”.

Bu kun tarixda O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilgan kun sifatida tavsif etiladi. SHu yilning noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Inqilobiy qo‘mitasi tashkil etilib, uning vazifasiga 3 ta respublika oliy hokimiyat vakolatlarini o‘z zimmasiga olish va ta‘sis qurultoyini tashkil etish yuklatiladi.

1925-yil 13-17-fevralda O‘zbekiston hududi (3 ta sobiq respublika hududlari)da tashkil etilgan xalq noiblari Kengashlaridan saylangan delegatlar birinchi ta‘sis qurultoyda ishtirok etib, O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi to‘g‘risida qaror qabul qiladilar. SHuningdek, ushbu qurultoyda respublikaning birinchi rahbar organlari shakllantiriladi va uning a‘zolari, rahbarlari saylanadi.

Ushbu qurultoyda yangi takshil etilgan O‘zbekiston respublikasi SSSR tarkibiga kirishi to‘g‘risida ham qaror qabul qilinadi.

1925-yil 13-may kuni O‘zbekiston respublikasi SSR tarkibiga kirdi va 1991-yil 31-avgustga qadar ushbu Ittifoq doirasida faoliyat yuritdi.

Ushbu yillar davomida O‘zbekiston respublika boshqaruv shaklini rivojlantirib, o‘z konstitutsiyasi, davlat ramzlari, davlat byudjetiga ega bo‘lsa ham qator masalalarda SSSR rahbar organlari qabul qiladigan qarorlarga bog‘liq bo‘lib qoldi, qator masalalarda mustaqil siyosat yurita olmas edi. Natijada mamlakat asosan paxtachilik sanoatiga ixtisoslashtirilgan agrar respublika sifatida mashhur edi. Ayniqsa, XX asr 30 yillaridagi qatog‘onlar respublika siyosiy elitasi, siyosiy etakchilari, ma‘rifatparvarlarining yo‘q qilinishiga olib keldi va ushbu siyosiy tuzilma to‘g‘risida salbiy xulosa shakllanishiga sabab bo‘ldi.

1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990-yil 20-iyundagi ikkinchi sessiyasida “Mustaqillik deklaratsiyasi” qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyaning quyidagi bandlari ahamiyatlidir:

“4. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlanganidan keyingina O‘zbekiston SSR hududida kuchga ega bo‘ladi.

5. O‘zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O‘zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

...

10. O‘zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi hokimiyati O‘zbekiston SSR davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qonunlarni ishlab chiqadi. O‘zbekiston SSRning siyosiy va iqtisodiy sistemalari tarkibini va qurilishini belgilaydi.

11. O‘zbekiston SSR Oliy Soveti umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilganini bildiradi, O‘zbekiston SSRda yashayotgan barcha millat va elatlarning qonuniy siyosiy, iqtisodiy, etnik, madaniy huquqlariga hamda ona tillari rivojlantirilishiga kafillik beradi”.

1991-yil 31-avgust kuni respublika parlamenti mashhur 336-XII-son qarorini qabul qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni mamlakatni SSSR tarkibidan chiqarib, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishiga zamin yaratdi. Qonun 1-moddasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi, o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir”, - deb e‘lon qildi.

2-moddasida esa “O‘zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o‘z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi”, - deb ko‘rsatilgan.

2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum yakunlariga ko‘ra unda ovoz beruvchilar ro‘yxatiga kiritilganlarning 84,51 foizi ishtirok etdi va ularning 90,21 foizi “Siz “O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?” degan masalaga “Ha” deb yoqlab ovoz berdi. Referendum yakunlariga asosan Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 1-maydagi qarori bilan Konstitutsiya qabul qilingan deb hisoblandi.

Konstitutsiyaning birinchi moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, - deb qayd etilgan. Barchamiz uchun bu ahamiyatli pozitsiya. Bu pozitsiya mamlakat aholisining manfaatlarini to‘liq ifodalaydi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasini tashkil etish uchun bundan yuz yil ilgari 3 ta respublika (2 ta mustaqil v 1 ta avtonom respublika)ni birlashtirish choralari ko‘rildi: ularning oliy hokimiyat organlari qarorlari qabul qilindi, xalq vakillarining ta‘sis qurultoyi tashkil etildi, unda zarur deklaratsiya va rezolyusiyalar qabul qilindi. 1925-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi 4 yillik respublika boshqaruv tajribasiga ega bo‘lgan respublikalar birlashuvidan paydo bo‘ldi va SSSR tarkibiga kirib. Qator masaalarda o‘z mustaqilligini yo‘qotdi. 1990-yilda boshlangan mustaqil siyosat tomon harakatlar natijasida 1991- yil 31 avgustda respublika o‘zini mustaqil deb e‘lon qildi.

O‘zbekiston respublika boshqaruv shakli tajribasiga ega, biroq ushbu tarix davomida hali o‘rganilishi zarur bo‘lgan ko‘plab hujjatlar mavjud. Ayniqsa, 1924- yil oxiri va 1925-yil boshida tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Inqilobiy qo‘mitasi faoliyati, hujjatlarini o‘rganib chiqish muhim. Aynan ushbu hujjatlar O‘zbekiston respublikasining asoslarini yaratishda muhim o‘rin tutgan.

Respublika boshqaruv shakli ushbu yuz yil davomida rivojlanib bordi, va bugun “Yangi O‘zbekiston” doirasida yangi rivojlanish bosqichiga chiqmoqda. Bu bosqich siyosiy qarorlarda o‘z aksini topmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Rezolyusii V Kurultaya Xorezmskoy SSR / S‘ezdi Sovetov v dokumentax. 1917-1936. – M., Gosizdat. T.7. 1965. S. 17-36, S. 35-36, 39-78. // Tarj. A.Samedjanov.
2. Postanovlenie Sentralnogo Ispolnitelnogo Komiteta “O razmejevanii sovetskix respublik v Sredney Azii i o vxojdenii v Soyuz SSR Uzbekskoy Sovetskoy Sotsialisticheskoy Respubliki i Turkmenskoy Sovetskoy Sotsialisticheskoy Respubliki”. 27 oktyabrya 1924 g./ Sobranie zakonov i rasporyajeniy Raboche-Krestyanskogo Pravitelstva SSSR za 1924 g. № 1-30 (otdel pervyy), № 1-8 (otdel vtoroy). — M., 1924. C. 255. // Tarj. A.Samedjanov.
3. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990 yil 20 iyundagi ikkinchi sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik deklaratsiyasi”// <https://lex.uz/docs/185391>
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni// [https://lex.uz/docs/127899?](https://lex.uz/docs/127899?ondate=31.08.1991%2000#128135)
ondate=31.08.1991%2000#128135
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2023 yil 1 maydagi “2023 yil 30 aprelda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari to‘g‘risida”gi **1245-son qarori**//saylov.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni, 01.05.2023 yildagi O‘RQ-837-son

XALQINI MA'RIFAT SARI YETAKLAGAN YO'LBOSHCHI

Sunnatullayeva Marjona G'ayratovna
CHDPU Pedagogika fakulteti talabasi
sunatillayevamarjona@gmail.com

Аннотация: В этой статье кратко рассказывается о художественном творчестве и исследованиях Абдурауфа Фитрата, великого человека, который привел свой народ к очагу просвещения в науке, который был правдив, не отступал своим умом в жизнь своих современников.

Ключевые слова: джадидизм, образование, воспитание, джадидская школа, духовность, интеллигенция, государственность, художественное творчество, Лингвистика, художественная литература, древнетюркская письменность.

Abstract: This article briefly describes the artistic work and research of Abdurauf Fitrat, a great man who led his people to the hearth of enlightenment in science, who was truthful, did not retreat with his mind into the lives of his contemporaries.

Keywords: Jadidism, education, upbringing, Jadid school, spirituality, intelligentsia, statehood, artistic creativity, Linguistics, fiction, ancient Turkic writing.

“Adabiyot so‘zini tuzukkina onglamoq uchun boshlab san’at ham go‘zal san’atlar degan so‘zni ta’rif qilib o‘tish lozimdir”

Abdurauf Fitrat

Jadidchilik maktabining yorqin namoyondalaridan biri Abdurauf Firat 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tug‘iladi. Adibning otasi savdogar bo‘lib, 1918-yilda vafot etadi. Yosh adib Abduraufning tarbiyasi bilan validasi Mustafafo Bibi (Bibijon) shug‘ullangan, onasidan Navoiy, Uvaysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy kabi yirik shoirlarning g‘azallarini tinglab, bahramand bo‘lgan.

Avval eski maktabda, keyin esa Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil oladi. 1902-1903-yillarda haj safarini ado etib, shundan so‘ng Arabiston, Anatoliya, Kavkazorti, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab sayohat qilgan. Abdurauf Fitrat ilmga bo‘lgan chanqoqligi tufayli, ko‘p shaharlarni ziyorat etgan. Jumladan, 1906-1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod, Yaroslavl, Moskva, Petrograd kabi ko‘plab shaharlarda, XX asr boshlarida vujudga kelgan “Tarbiyai atfol” jamiyati ko‘magida 1908-1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizg‘in ijod qilgan. Ushbu madrasada u buyuk mudarrislardan Yusuf Akchuradan ta’lim olgan.

Bo‘lajak jadid Abdurauf Fitrat onasidan va ustozlaridan olgan bilim va ko‘nikmalari uning hayoti davomida ega bo‘lgan tajribasi bilan ko‘plab o‘quv qo‘llanma, adabiyot darsliklarini yaratishga muvaffaq bo‘ldi, bulardan, maktab

yoshidagi bolalarga mo'ljallangan "O'qu" qo'llanmalaridan biri, vatanni, dunyoni, tibbiyot va gigiyena masalalarinikeng yoritib bera oldi. Ushbu asarlari qatorida tarixda yashab o'tgan yozuvchilar va allomalar hayoti va ijodi haqida ham bir qancha ma'lumot beradi., Baxtga qarshi ayrim yuzasidan yaratayotgan qo'llanmasining 2-qismi noma'lumligicha qolgan. Shular qatorida u bobokalonimiz o'zbek tili grammatikasi haqida va til egallshni boshlab bergan va bu soha rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha olgan. Buyuk jadid Abdurauf Fitrat 1918-yilda Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan birgalikda "Ona tili" nomli darsligini yaratishdi. 1921-yilda Toshkentda o'tkazilgan Til va imlo qurultoyida o'zbek tilining sofligi va uni rivojlantirishga bag'shlangan ko'plab fikrlarini bildiradi. Bo'lajak jadid 1920-1921-yillar davomida o'zbek tilini o'rganishda davom etib, o'zbek tili grammatikasi va qoidalari to'g'risida bir qancha tajribalar olib boradi: "Sarf" o'zbek tili grammatikasi qoidalari to'g'risidagi bir tajribasi: "Nahv" darsligini yaratishga erishdi va ushbu darsliklar 1930-yilda bir necha marotaba nashriyotlarda nashr etildi. Jadid o'zbek tili morfologiyasini va sintaksisi mavzusida yozgan qo'llanma va darsliklari orqali o'zbek tilining grammatikasini ilmiylik asosida o'rganish va til egallash qoidalari bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi desam adashmagan bo'laman. Bo'lajak jadid Abdurauf Fitrat tilshunoslik sohasida ham katta yutuqlarga erisha olgan. Ulardan katta biri 1920-yilda qadimiy turkiy til va jonli xalq tilini shevalarga tayangan holda, ilmiy va adabiy muomala asosida kirib kelayotgan yangi tushunchalar hamda voqea hodisalarni ifodalashda o'zbek tilining lug'at boyligiga yana ham yangidan yangi so'zlar va atamalarni kiritishga muvaffaq bo'lganligidadir.

Abdurauf Fitratning san'atshunoslik borasida ham xizmatlari tahsinga loyiq ekanligini eslatib o'tishni o'zinga joiz bildim. Ulug' bobokalonimiz 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, ushbu maktabning birinchi direktori lavozimida ishlashga muvaffaq bo'ladi. Maktabda milliy va mumtoz musiqa shinavandalari bilan birgalikda Viktor Uspenskiy kabi musiqashunoslarni taklif etishga muvaffaq bo'ldi. Shu vaqt bomaynida "Shashmaqom"ni kuyashl va notaga solish ishlarida rahbarlikni o'z bo'yniga oldi. Ma'rifatparvar, ziyoli adib tashabbusi bilan ota Jalol va ota G'iyosdan Buxoro Shashmaqomi Viktor Uspenskiy tomonidan birinchi marotaba notaga solinib, nashr etilishiga qo'l urdi. Suyukli adibimizning "Shashmaqom", "O'zbek musiqasi to'g'risida" maqolalari va "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" bilan XX asr o'zbek musiqashunosligiga asos soldi va musiqa shunoslikni boshlab tarixda o'chmas iz qoldirdi.

XX asrlarda Abdurauf Fitrat o'zining ilmiy va pedagogik qarashlari asosida pedagogika sohasiga o'zining katta hissasini qo'sha oldi. Adibning "Jadid pedagogikasi"da birinchilardan bo'lib Yevropada tashkil topgan "Ijtimoiy pedagogika" asoslarini olib kiradi. Abdurauf Fitrat "ijtimoiy pedagogik ta'lim" mazmunida ijtimoiy muammolarni hal et oladigan va taraqqiyotga olib chiqishda ko'mak beradigan ta'lim va

tarbiya jarayoni haqida tushunadi, shu yoʻnalish doirasida oʻz ishini olib boradi. Adibimiz Abdurauf Fitratning fanga bunday yondashuvi orqali XX asrlarda yurtimiz hayotida va pedagogika tizimi uchun noyob hodisa boʻldi desam adashmagan boʻlaman.

Buyuk jadid Abdurauf Fitrat har yozgan asari, oʻquv qoʻllanmasi, darsliklari odamni oʻziga jalb qiladi. Fitratning “Oila” asarida yaqin qarindoshlar oʻrtasida qurilgan nikoh kelajakda nuqsonli bolalarning dunyoga kelishi haqida batafsil yoritib oʻtgan. Fitrat oʻz asarida turmush qurayotgan yosh qiz va yigit jismonan va aqlan sogʻlom boʻlishi, kelajakdagi hayoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida taʼkidlab oʻtgan. Hozirgi kunda yigit va qizlarning yosh turmush qurishi, hayotiy tajribaga ega boʻlmaganligi turli xil salbiy oqibatlariga olib kelayotgani hammamizga ayon. Shuningdek, bunday salbiy oqibatlarni oldini olish, ularga qarshi chora koʻrish maqsadida, turmush qurayotgan yoshlarni tibbiy koʻrikdan oʻtkazish va ularda qarindoshlik aloqalari yoʻqligini tekshirish natijasida nuqsonli bolalarni dunyoga kelishini oldini olish borasida kerakli chora tadbirlar koʻrilayotgani barchamizga ayon.

1920-yillardan boshlab mamlakatda vaziyat oʻzgara boshladi va Sovet hukumati mustahkam oʻrnashib borgan sari insonlarda erkin fikrlash kamayib bordi. Ziyolilar, ayniqsa jadidlar va adiblarni qoralash va ularga turli xil ayblovlar qoʻyish boshlanadi. Har bir hodisalarga sinfiy-partiyaviylik bilan yondashish paydo boʻlib ushbu ishlar doirasida suyuqli adabimiz ham chetda qolmadi, aksincha boʻrondek oʻz domiga tortib ketdi. 1929-yilda “Qizil Oʻzbekiston” roʻznomasi 3-sonida J.Boyboʻlatov qalamiga mansub “Oʻzbek adabiyotida chigʻatoychilik” nomida maqola nashr etildi. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Oʻzbek adabiyoti namunalari” asariga tanqidiy fikrlash ruhida yozilgan edi. Abdurauf Fitrat marksizmni inkor qilishi, oʻtmishni ideallashtirish borasida burjua millatchiligining gʻoyalari tashviqotida ayblovlar qoʻyiladi. Maqola muallifi Abdurauf Fitrat va kitobga soʻzboshi yozib berishda ishtirok etgan Otajon Hoshim matbuotga qarshi javob raddiya asosida chiqdilar. 1930-yilda esa unga siyosiy ayblovlar qoʻyila boshlanadi. Yozgan bir qancha ishlari uning “aksilshoʻroviy” faoliyatiga “ashyoviy dalil” sifatida tilga olinishiga sabab boʻladi. “Sharq haqiqati” roʻznomasida 1930-yilgi 180, 182, 183-sonlarida J.Boyboʻlatovning “Oʻzbeklarning adabiy merosi” bayrogʻi ostida “Panturkizm” sarlavhali maqolasi nashrga chiqdi. J.Boyboʻlatov yana Fitrat izida ketishni davom ettiradi, 1923-yilda ayblovlari qoʻzgʻaldi va sudga tortilmaganini eslatadi, adibni “sinfiy dushman” deb eʼlon qilishadi. “Oʻzbeklarning adabiy merosi” asarlarini “Qurʻon”ni nashr qilish proletariat ishida qanchalik xiyonat boʻlsa, “Oʻzbek adabiyoti namunalari chop etilishida ham shunchalik jinoyatdir” - degan xulosaga kelishadi. Bu maqolada ruscha tarjimada bir nechta nusxada keyinchalik ham Fitratni ayblovchi hujjat sifatida jadid “Jinoiy ishi”ga sherik qilishadi. Matbuotda qoʻyilgan ayblovlariga qaramasdan F.Xoʻjayev 1923-yildagi kabi doʻstini yana bir marta oqlab olishga muvaffaq boʻladi. 1937-yilga kelib Abdurauf

Fitrat O‘zbekiston Respublikasi prokurorining ko‘rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi to‘rtinchi bo‘limining boshlig‘i Davlat Xavfsizligi leytenanti Og‘abekov tomonidan hibsga olinadi.

Ilg‘or demokratik g‘oya va fikrlari uchun ko‘pchilik jadidlar qatori adibimiz Abdurauf Fitrat ham shakkoklik va isyonkorlikda ayblanadi. Sovet ma’murlari esa mustamlakachilikka qarshi turganlikda ayblaydilar va kommunistik mafkuraga humron bo‘lgan sho‘rolar davrida esa millatchilikda, panturkizm g‘oyasi tarafdori, “xalq dushmani” degan ayblovlar qo‘yiladi. Professor H.Yoqubovning yozishicha, Abdurauf Fitratning 1937-yilgacha Abdurauf Fitratning do‘sti Fayzulla Xo‘jayev do‘stini o‘z himoyasiga olgani va uni bir necha bor oqlab kelganini aytadi. 1937-yilda boshqa jadidlar qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qo‘lga olindi. Marifatparvar, halqchil adib Abdurauf Fitrat Iosif Stalinning 1938-yil 28-martdagi “Otuvga e‘lon qilinganlar ro‘yxati”ga tushdi va ushbu buyruq ostida hayotdan ko‘z yumadi.

Shuni xulosa qilib ayta olamanki, ulug‘ vatanparvar, haq yo‘lida hech narsadan tonmagan, ma‘rifatchi adibimiz Abdurauf Fitrat o‘z zamonasining bilimli, ma‘rifatli vakili sifatida o‘z burchini ado eta oldi. Chor hukumatining o‘tkazgan bosimiga qaramasdan, o‘z maqsadidan qaytmadi. Xalqini ma‘rifat ilm sari boshladi. Abdurauf Fitratning ma‘naviy merosi hali ham tirik va hech qachon o‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A. Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat. T.: 1984;
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat. T.: 1994;
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. T.: 2002.
5. Qosimov B. Fitrat (chizgilar). Sharq yulduzi. 1992-y. 10-son.
6. Qosimov B. Fitrat. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 1991, 10-son.
7. G‘aniyev I. Fitrat, e‘tiqod, ijod, T.: 1994;
8. G‘aniyev I. Fitratshunoslik, Buxoro: 1994;
9. G‘aniyev I. Fitratning tragediya yaratish mahorati. T.: 1994.
10. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat, T.: 1996;
11. Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi, T.: 1996;
12. Boltaboyev H. Qatag‘on qilingan ilm. T.: “Xazina”, 1996.
13. Boltaboyev H. Noma‘lum Fitrat. Yoshlik.
14. Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi. T.: “Fan”, 1996.

**MAXSUS VA INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA IJODIY
O'QUV MUHITI VA DO'STONA MUNOSABAT
YARATILISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Ubayda Yunusovna Fayziyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
ubayda47@mail.ru

Erkinova Durdona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
erkinovadurdona62@gmail.com

Bo'ronboyeva Shahzoda

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi
boronboyevashaxzoda360@gmail.com

Do'stona munosabat muhiti zamiridagi ta'lim ijodiy muhitni shakllantiradi

“Inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishidan mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi va ahloqiy xislatlari boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi, Inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi.

Abu Nasr Forobiy

Abstract: *In this article, there is a friendly relationship with children, a friendly relationship between a teacher and a student, a friendly relationship between a student and a student, children with disabilities and limited opportunities, forming a friendly relationship with children, instilling a sense of self-confidence, support, sharing their hidden abilities that others do not know, learning to ask what they do not know in a friendly manner, non-discrimination, the basic principles of friendship and its essential principles and conditions are explained.*

Key words: *friendliness, cooperative power, basic elements, intellectual knowledge, retraining, professional development.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются дружеские отношения с детьми, дружеские отношения между учителем и учеником, дружеские отношения между учеником и учеником, дети с ограниченными возможностями и ограниченными возможностями. Чувство уверенности в себе, поддержка, разделение своих скрытых способностей, о которых другие не знают, умение спрашивать по-дружески то, чего они не знают, недискриминация, объясняются основные принципы дружбы и ее важные принципы и условия.*

Ключевые слова: дружелюбие, кооперативность, базовые элементы, интеллектуальные знания, переподготовка, повышение квалификации.

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilmog'i lozim. Shunday ekan o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchilarning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir- biriga ko'rsatadigan ta'siri, ya'ni insoniylik qirralarini shakllantirish, eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday do'stona munosabat jarayonida esa o'quvchilarning hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta'limda o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, muomala qilish malakalari oshadi, har bir o'quvchi o'zi uchun, guruhi uchun, sinfi uchun javob berishga harakat qiladi, o'zaro ishonch va samimiy do'stona munosabat paydo bo'ladi, birdamlik va hamjihatlik kuchini, sinf uchun mas'uliyatni his qiladi, har bir o'quvchiga rahbarlik rolini bajarishi uchun imkon beriladi. Bunday maktabda o'quvchilar kamsitilmaydi, ularning ojiz tomonlari namoyish qilinmaydi, balki har biriga qobiliyati, ehtiyoji, kuchi va xohishi doirasida bilim olishlariga imkoniyat yaratiladi. Sinfda jismonan nogiron yoki imkoniyati cheklangan bolalarga qulaylik yaratilishi, bilim olish bilan birga hamkorlikda ishlash malakalarini rivojlantirishi va eng asosiysi ular jamiyatning to'laqonli a'zolari ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Demak, bunday maktabda faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi quyidagicha fikrlay olishi lozim:

•Biz Fan o'qituvchilari emas, balki (Kim va qanday bo'lishidan qat'iy nazar) **bolalarning o'qituvchilarimiz!**

•Biz, «bilimlar manbai – menman» minbaridan tushib, **o'quv jarayonining rahbari, yo'naltiruvchisi, tashkilotchisi**ga aylanishga tayyormiz.

•Biz, **ham bilmaymiz keling birga o'rganib, bilib olamiz!** - deb ayta olamiz.

•**Biz ham o'quvchimiz** (qayta tayyorlov, malaka oshirish, tajriba almashish kurslarida o'qiyamiz va buni bolalar biladi, demak biz ham hamma narsani bilmaymiz) buni tan olamiz.

•**Biz** olingan ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq qilishga o'rgatishdan tashqari, **o'quvchilar o'rtasidagi munosabatga ham teng e'tibor beramiz.**

•**Biz** muntazam o'qib o'rganishga, malakamizni oshirishga, fikr almashishga va albatta bir- birimizni qo'llab-quvvatlashga intilamiz.

Zamonaviy, do'stona munosabatlar asosida faoliyat olib boradigan maktab o'qituvchilarining qiyofasi va ish olib borish uslubida katta ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lishi talab qilinadi. Dars jarayonining tarkibiy tuzilishidan tortib o'quvchilarning

bilimini baholashgacha pozitiv, ijobiy munosabat, bolalarning imkoniyatidan kelib chiqadigan talab hukm suradi.

Biz do‘stona munosabat zamiridagi ta’limning 5 ta asosiy elementlarini keltiramiz:

1. O‘zaro ijobiy bog‘liqlik.

Sinfda o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari natijasida bir- biridan yordam so‘rash, yordam berish, o‘zaro qo‘llab quvvatlash, juft-juft yoki guruhlarda ishlash natijasida ijobiy tomondan bir- biriga bog‘lanish yuzaga keladi. Sinfdagi o‘quvchilar bir- birlarining kamchiliklarini emas, balki yutuqlarini ko‘rishga, tan olishga va hamma har xil bo‘lishiga qaramay, teng ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa, albatta o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi, targ‘ib etilishi, qo‘llab –quvvatlanishi zarur. O‘quvchilar o‘zining bildirgan fikri, munosabatiga tanqidiy qarash, o‘rtoqlarining fikrlarini tinglab o‘z fikrini o‘zgartirishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bunda o‘quvchilar o‘z bilganlarini bir-birlaridan yashirmaydilar, o‘rtoqlariga bilganlarini o‘rgatib o‘z bilimni egallashga ko‘maklashadilar. An’anaviy “ ...sen o‘zing bilib kelishing kerak edi, endi o‘rtog‘ingdan bilib javob berganing hisoblanmaydi” kabi yondoshish chekinib, bolalar bir – birlaridan o‘rganib bilib olish uchun imkon yaratiladi. Chunki qay tarzda va kimdan va qachon o‘rgangani emas, balki bilmaganini bilib javob bergani muhim deb hisoblanadi.

Yana shuni ta’kidlash joiz-ki, o‘qituvchi yetkazib berolmagan ba’zi mavzularni o‘quvchilar hamkorlikda bir-birlariga tez yetkazib bera oladi, ya’ni bola bolani tezroq tushunadi. Bunday muhitda va sharoitda kamol topgan yoshlar odamshinavanda, mehribon, atrofdagilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olib yashaydigan bo‘ladilar. Shunda sinfda ham, maktabda ham, uyda va mahallada ham barcha insonlar orasida do‘stona munosabat paydo bo‘ladi.

2.Mas’uliyatlilik.

O‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, o‘zi uchun, sherigi, guruhi, sinfi uchun javob berish, vazifalarga mas’uliyat bilan yondoshish, “Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun” mas’ullik hissini rivojlantiradi. Shu bilan birga sinfda o‘zlashtirishi past bo‘lgan, nogiron yoki imkoniyatlari cheklangan bolalarga ham mas’uliyat bilan yondoshishni bolalar o‘z zimmalariga oladilar. Birinchi sinfga kelgan o‘quvchi sinfda kimni ko‘rsa, o‘rganib, ko‘nikib, moslashib boradi. Agar u o‘qituvchining kimlargadir (nogiron yoki imkoniyati cheklangan bolalarga) boshqacha munosabat bildirayotganini ko‘rsa-yu, buni tushunsa, u ham ertaga shunday munosabatda bo‘ladi. Demak, asosiy mas’uliyat, o‘qituvchi zimmasiga tushmoqda.O‘qituvchidan katta mahorat va kuchli bilim egasi bo‘lishi talab qilinadi, u bir vaqtning o‘zida psixolog, valeolog hamda sotsiolog bo‘lishi talab qilinadi. Shundagina sinfdagi bolalarning ta’limdagi barcha ehtiyojlari qondiriladi, ta’lim olish imkoniyati rivojlanadi. Ta’lim jarayoni juda murakkab, undagi, biz uchun arzimagan

bo‘lib tuyulgan narsa, vaziyat yoki voqelik ham butun jarayonga putur yetkazishi mumkin, sababi, bolalar juda ta’sirchan bo‘lib: oddiy bir holatdan xursand bo‘lishlari va qandaydir arzimagan deb o‘ylagan so‘zimizdan “sinib qolishlari” mumkin. Shuning uchun o‘qituvchidan bollarning o‘z qadr qiymatini anglashi, har bir inson alohida bir shaxs ekanligi, u boshqalar bilmaydigan narsalarni yaxshi bilishi va boshqalar uchun oddiy ko‘rinadigan narsalarni bilmasligi mumkinligini anglatish muhimdir. Shunda ularda barchaning bilimiga, shaxsiga hurmat bilan qarash, bilmaganlarini tortinmasdan so‘rab bilish, o‘roqlari murojaat qilganda bilganini ishtiyoq bilan o‘rgatish kabi ijobiy hislatlar shakllanadi. Buning uchun esa dars zamonaviy texnologiyalar asosida, interfaol usullarda, o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochishga yo‘naltiradigan vaziyatlar orqali tashkil qilinishi va olib borilishi talab qilinadi.

3. “Yuzma-yuz” o‘tirish imkoni.

Juft bo‘lib, guruh bo‘lib yoki umumiy sinfda ishlaganda o‘quvchilar yuzma- yuz, ya’ni bir-birlariga qarab o‘tirishlari kerak. Shunda ular o‘zaro fikrlashib, bahslashib, qarorlar qabul qilishlari osonlashadi, bir-birini eshitish, tinglash malakalari shakllanadi. “Mehr ko‘zda”, maqolining asl mohiyatini, ya’ni bir biriga mehr oqibatli bo‘lishi, aynan, o‘zaro fikr almashish jarayonida bir-birining ko‘ziga qarab o‘tirishi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Demak, bitta parta atrofida turli rangdagi, turli jinsdagi, turli xarakterdagi va jismonan imkoniyatlari har xil bo‘lgan bolalar o‘tirishar ekan, bir-birlariga qarab o‘tirishlari, ularning yaqinlashishlariga, do‘stona munosabatga kirishishlariga imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun, turli fanlarda guruhlarni almashtirib, hammaning hamma bilan do‘stlashishlariga sharoit yaratish lozim. An’anaviy sharoitda ba’zan bolalar maktabni bitirib ketgunga qadar ham bir-birlari haqida to‘lik ma’lumotga ega bo‘lmaydilar. A’lochi bolalar faqat o‘zaro do‘stlashadi, yoki raqobatlashadi va birlari haqida hamma narsani bilishga intiladi. Imkoniyati pastroq bo‘lgan bolalarni chetlab o‘tishadi, ulardagi insoniy fazilatlar, alohida iqtidorlar borligini, ular ham havas qilsa bo‘ladigan insonligini bilmaydilar. Darslar zamonaviy tarzda olib borilganda bolalar guruhlarda yoki juft bo‘lib ishlaganida hamkorlik sharoiti vujudga keladi, bu jarayonda bolalar birgalikda ishlaydi va ishlarining natijasini hamkorlikda taqdimot qiladilar. Va bunday sharoitda bolalar har gal yangi tarkibdagi guruhlarda bo‘ladi, yangi sinfdoshi bilan ishlaydi, shu tariqa ularda barcha bilan hamkorlik qilish, yaqinlashish imkoni ochiladi.

4. Ijtimoiy malakalar.

Hamkorlikdagi faoliyat natijasida o‘quvchilar bir-birlarining qobiliyatlarini aniqlay boshlaydilar, ya’ni kim rasm chiza oladi, kim tez yoza oladi, kim g‘oyalar bera oladi va h.z. Bundan tashqari o‘quvchilar juftlikda yoki guruhda ishlaganlarida bemalol gapira olish imkoniga ega bo‘ladilar, (bu yerda o‘quvchining gapini “To‘g‘ri” yoki “Noto‘g‘ri” deb baholanmaydi). Guruh bajargan ishni har bir o‘quvchi butun sinf oldida taqdimot qilishi mumkin, har biri aytilgan fikrga qo‘shimcha qilishi mumkin, xuddi shu vaqtda

qolganlar tinch eshitishi kerak, demak ularda tinglash malakalari shakllanadi chunki bunday ta'lim jarayonida barchaning fikri barcha uchun qadrli, qimmatli hisoblanadi. Demak hamma o'quvchining imkoniyati, og'zaki nutqi rivojlanadi.

Ta'lim jarayoni har bir sinf jamoasi tomonidan tuzilgan muayyan tartib, qoida asosida amalga oshiriladi. O'quvchilar o'zlari o'qituvchilari bilan hamkorlikda joriy etgan tartib qoidaga barchaning amal qilishini o'zlari qat'iy talab qiladilar. Yangi yaxshi fikrlar qo'llab-quvvatlandimi, demak shu fikr egalarida o'ziga ishonch paydo bo'ladi: o'quvchilar o'zlari qaror qabul qila boshlaydilar, demakki shu qarorlarni himoya qila oladilar. Shunday qilib, o'quvchilar jamiyatda, mustaqil hayot kechirishda o'zlari uchun zarur bo'ladigan turli ijtimoiy malakalarga ega bo'ladilar.)

5.Baholash.

Hamkorlik jarayonida o'quvchilar bir-birlarini kuzatadilar, nazorat qiladilar, demak baholaydilar ham. Albatta, o'qituvchi o'quv jarayonining boshqaruvchisi sifatida hammani kuzatadi, biroq o'quvchilarning fikr- mulohazalari inobatga olinishi shart. Bu jarayonda, har bir berilayotgan baho, ma'lum faktlar asosida tushuntirilishi va izohlanishi kerak.

Baholash jarayonida o'quvchilar o'zlari – o'zlariga baho berishlari ham mumkin. Bu holat ularning o'zlariga, tashqaridan nazar tashlashlariga, o'z xatti - harakatlarini nazorat qila olishlariga o'rgatadi. Davlat ta'lim standartlari mezonlari asosida o'quvchilar bilimini baholashda individual yondoshuv talab qilinadi, chunki inklyuziv sinflardagi o'quvchilar tarkibi shuni taqozo etadi. Imkoniyatlari har xil bo'lgan bolalarning bilimlarini baholash mezonlari ham imkoniyatiga yarasha bo'lishi talab qilinadi. Masalan eshitish imkoniyati cheklangan bolalar bilimi maxsus talablar asosida baholanadi va sog'lom bolalarga qo'yiladigan talablardan farq qiladi, va huddi shunday aqliy faoliyatida muammosi bo'lgan bolalar bilimini baholashda, ko'rish, harakatlanish imkoniyati cheklangan va boshqa imkoniyatlari cheklangan bolalar bilimini baholashda ular bilimlariga qo'yilgan alohida talablarga tayaniladi.

Do'stona munosabat zamiridagi ta'limning asosiy omillari:

- O'quvchining kamchiligini emas, balki, qobiliyatlari, imkoniyatlarini aniqlaydi, rivojlantiradi;
- O'qituvchi uchun, bolaga nimalarni qanday o'rgatishga yordam bera oladigan ma'lumotlar manbai;
- Ta'lim jarayonining uzluksiz bo'laklaridan biri;
- Bolalarni ijtimoiy, emotsional holati va qiziqishlarini rivojlantiruvchi omil,
- O'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqa faolligi, va hamkorlik foliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omil;
- O'qishning muhimligini bildiradigan omil;
- O'quvchining yutug'ini aks ettiruvchi omil;

- O'quvchi va uning ota- onasi uchun mutloq tushunarli va aniq jarayon.

Demak, bolaga nisbatan do'stona muhit zamiridagi maktabda **pedagogika** o'z vazifasini **ijtimoiy** va **psixologik** yo'nalishlar bilan integratsiyalashgan holda olib boradi. Chunki, aynan shunday yondoshuv bolalarni ko'proq o'rganishga, bilimlarini amalda qo'llashga va sinfda sog'lom, do'stona muhitning yaratilishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun hamkorlikka asoslangan ta'limni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Hamkorlikka asoslangan ta'lim esa o'qitishning interfaol usullari orqali amalga oshadi.

Xar bir bolaning o'z orzulari borligini, biroq ba'zilarning imkoniyati cheklanganligi tufayli shunday orzulariga ba'zan yeta olmasliklari va ularga ma'naviy yordam, qo'llab – quvvatlash zarurligini uqtirib borish lozim. Do'stona muhit zamiridagi sinfda bunday bolalar ijobiy kayfiyatda o'qib o'rganadilar. Oddiy sinfda ta'lim jarayoni individual, musobaqa usullarida olib borilganda, har bir o'quvchi o'zi g'olib bo'lishga intiladi. Iloji boricha yonidagidan o'zishga, buning uchun esa sinfdoshining yiqilishiga, mag'lub bo'lishiga xayrixoh bo'ladi. Demak, sekin – asta sinfdagi muhit salbiy tomonga o'zgarib boradi. O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar esa doimo sinf oldida namoyish qilib kelingan. Bu holat esa o'quvchining o'z imkoniyatiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, o'qituvchiga, ota- onaga bo'lgan ishonchini, hurmatini pasayishiga olib keladi. Natijada bola kelajakka umidsiz bo'lib ulg'ayadi.

Hamkorlikka asoslangan ta'limda o'quvchilar alohida shaxs sifatida qabul qilinadi. O'zlashtirishi past, nogiron yoki imkoniyatlari cheklangan bolalar ham bu- do'stona munosabat o'rnatilgan sinfda o'z ovozigacha ega bo'ladi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan har bir darsning ishlanmasini ishlab chiqadi, unda har bir o'quvchining ishtiroki ko'zda tutiladigan vaziyatlar kiritadi. Guruhlarda ishlash yoki juftlikda ishlash o'qituvchining darsga qo'yilgan maqsadiga muvofiq tanlanadi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruhlar ishida, har bir o'quvchi ishtiroki ta'minlanadigan vazifa, topshiriqlar beriladi. Natijada bolalarda hamkorlikda ishlash malakalari rivojlanadi, o'z imkoniyati va o'ziga qo'ygan shaxsiy bahosi (samoosenska) ko'tariladi, o'z qadr - qiymatini, imkoniyatini anglay boshlaydi. Hammaning ko'rinishi, imkoniyatlari, turli bo'lishi bilan birga, orzu – istaklari umumiy ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bu esa kelajakda, tobora o'zgarib borayotgan jamiyatda o'z o'rnini topishga, atrofdagilar bilan samarali muloqot o'rnatishida, o'z fikr- mulohazalarini himoya qilishida yordam beradi. Keyinchalik jamiyatda kamsitilishlar (diskriminatsiya)ning oldini olishga, hammaning teng huquqliligini e'tirof etishga harakat qiladi. Bu xususiyatlar rivojlantirilib borilsa, bola nafaqat sinfda, balki umuman hamma joyda ana shu nuqtai nazari bilan qatnashadi. Bu ijobiy o'zgarishlarni ko'rgan ota- onaning esa maktabga, o'qituvchiga ishonchi ortadi va ularni qo'llab- quvvatlaydi.

Do'stona munosabat zamiridagi ta'limning asosiy tamoyillari

-Shaxsiy munosabatlarni to'laqonli o'rnatish va qo'llab – quvvatlash uchun zarur tushuncha va malakalarini rivojlantiradilar.

-Odamlar, guruhlar va jamiyatlar o'rtasidagi aloqalar tenglik tamoyiliga asoslangan bo'lishini anglaydilar.

-Atrofdagilarni o'rganish orqali o'zlarini o'rganadilar.

-Sindagi, maktabdagi, mahalladagi, denyodagi barcha odamlarning ehtiyojlari, iqtidorlari va sa'y – harakatlari o'xshash ekanligini tushunib yetadilar, o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, shu bilan birga, o'zlariga ijobiy nazar bilan baho buradilar qadriyatlarini anglaydilar.

-Boshqalarning, shu jumlada imkoniyatlari cheklanganlarning – tuyg'ulari ehtiyojlari imkoniyatlari bilan hisoblashish lozimligini tushunib yetadilar.

-Hamkorlik kuchini his qilib, uning muhimligini tushunadilar va ularda kelishmovchiliklarni oldini olish ko'nikmasi shakllanadi.

-Mazkur o'quv ko'nikmalarini, jumladan, rejalashtirish, mustaqil tadqiqotni tashkil etish, amalga oshirish, xulosalar qilish va ularni tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

-Mustaqil mutolaa qilish, axborot vositalaridan foydalanish, dunyoni keng qamrovli tarzda anglash, milliy qadriyatlar, milliy istiqlol va uning ahamiyatini ongli ravishda anglaydilar.

-Boshqa odamlar va tirik mavjudotlar qadriyatlari, sha'nlarini, huquqlari va his-tuyg'ularini hurmat qilishga o'rganadilar.

-Xozirgi dunyoning o'zaro bog'liqligi va yaxlit jihatlariga egaligini anglaydilar.

-O'quvchilar o'tmish, bugungi kun va kelajak o'rtasidagi uzviylikni ongli ravishda anglaydilar, o'tmishsiz kelajak yo'qligini bilib, keksalarni va ular tomonidan yaratilgan boy tarixiy meroslarimizni qadrlaydilar ularni asrash, avaylash, dunyo olidida ko'z-ko'z qiladilar, o'zlari ham kelajak avlodlar uchun olamshumul meros qoldirishga intiladilar.

Bolalar orasida do'stona muhitni shakllantirishning shart – sharoitlari.

Yuqorida do'stona munosabatlar shakllanishida o'qituvchilar, o'quvchilar va umuman ta'limning asosiy elementlari haqida fikr yuritildi. Lekin bu munosabatlar va shart –sharoitlar o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Bularning barchasiga ega bo'lish uchun qator tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi va ularning aksariyati maktab direktori mahorati imkoniyatlariga bog'liqdir. Kuchli, demokrtik, huquqiy asosda shakllantirilgan o'quvchilar jamoasigina ta'lim jarayoni belgilangan ko'rsatkichni, talab darajasidagi madaniy, tolerantlik asosidagi o'zaro muomala madaniyati, hamkorlikdagi faoliyatni qo'llab quvvatlaydi, amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

O'quvchilar bularning barchasiga ega bo'lishlari uchun maktab ma'muriyati, pedagogik kegash, ota- onalar kengashi, bolalar jamoasi hamkorligi zarur. Bunday hamkorlikka erishish uchun yuqoridagi bo'g'inlarning barchasi zamon talabi darajasida tashkil etilishi zarur. Bu esa maktab direktorida kuchli bilim, tashabbuskorlik,

pedagogik va rahbarlik mahorati, chet davlatlardagi shunday tajribalardan xabardor bo'lishini talab qiladi. Maktab direktori o'z ta'lim muassasasini "Do'stona munosabatlar" asosida shakllantirish uchun qator tadbirlarni amalga oshirishi talab qilinadi:

- O'qituvchilar jamoasini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida faoliyat olib boradigan darajada qayta tayyorlovdan o'tishini ta'minlash;
- O'quv jarayonini pedagogik kengashida maxsus tanlovdan o'tkazilgan dastur asosida rejalashtirish va tashkil etish. Bunda har bir fan bo'yicha rejalashtirish DTS asosida zamonaviy texnologiyalar orqali keng qamrovli bilim berishga qaratilgan bo'lishi lozim.
- Har bir sinfda o'quvchilar jamoasi tashkil qilinib ularda o'quvchilar tomonidan tartib qoidalar joriy qilinadi; o'quvchilarning huquqlari va burchlari, o'zaro munosabatlarni shakllantirishda ularga rioya qilishlari bosh mezonlardan biri bo'lishini anglaydilar;
- Maktab miqyosidagi o'quvchilar jamoasini tashkil etish va o'quvchilarning o'z- o'zini boshqaruv tizimini tashkil etish. Bunda demokratik va tolerantlik asosidagi saylovlar yoki tanlov bo'lishi alohida ahamiyatga ega;
- O'quvchilar jamoasi uchun "Bolalar parlamenti" dasturi asosida o'quvlar tashkil qilish yo'li bilan huquqiy bilimlarini, o'qish va bilim olish, muomala madaniyatini oshirish;
- Ota –onalar jamoasini tashkil qilish va ular uchun ham maxsus o'quvlar tashkil qilish yo'li bilan zamon talabi darajasidagi ta'limdagi hamkorlik mezonlarini ishlab chiqish, amaliyotda qo'llashga tayyorlash;
- Maktab joylashgan hududdagi "Mahalla" jamoasi va faollari bilan hamkorlikni o'rnatish orqali ota-onalar jamoasining hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirish. Chunki "Mahalladagi barcha bolalar mahallaniki" degan tushuncha barcha uchun umumiy bo'lgandagina bolaga nisbatan tolerantlik, tenglik, do'stona munosabat va muhitga erishish mumkin. Bolaning jismoniy holati, tashqi ko'rinishi, millati, oilaviy sharoiti unga bo'lgan munosabatni shakllantirish uchun mezon bo'lmasligini ta'minlaydigan muhit yaratilishi lozim. Har bir bola bola bo'lganligining o'zi unga nisbatan do'stona muhit yaratilishini talab qilinishi asosiy mezon ekanligini anglatuvchi, inson qadriyatini, bola ham u qanday bo'lishidan qat'iy nazar inson ekanligini anglatadigan doimiy harakatdagi o'quvlar tashkil etish va unda maktab tashkilotchi bo'lishi lozim.
- Maktab binosida nogiron bolalarning bexatar harakatini ta'minlash uchun qo'shimcha infrastruktura (moslamalar) qurishni ta'minlash;
- Bola huquqlari bo'yicha Konvensiyada belgilangan, bolalarning ta'lim olishiga doir barcha moddasini bajarilishini ko'zda tutish va ta'minlash.

Maktab hamma vaqt ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan, u mahallalarda, qishloqlarda ilm, ma'rifat, madaniyat targ'ib qilib kelgan. Hozir ham maktab shu vazifasiga ega, mahallaga, uning ahliga davlat va hukumat tomonidan qo'yigan, zamon talabi darajasidagi tartib, intizom, Ta'lim haqidagi Qonun, DTS, ta'lim jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan xalqaro va respublikamiz miqyosidagi huquqiy me'yorlar bilan, xususan, bola huquqlari bilan tanishtirib ularni amalga bajarilishini targ'ib qiladigan ta'limni tashkil qilish talab qilinadi. Chunki mahalla ahli, ota-onalar shunday tushunchalarga ega bo'lmasdan turib bolalarga yetkazib ularni amalga oshirish qiyin. Bolalar bilan bolalar o'rtasida fikrlar va yondoshuvlar ziddiyati hosil bo'ladi.

Bolaga do'stona munosabat zamiridagi maktab inklyuziv ta'lim bilan birgalikda kirib keladi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishi talab qilinadi.

Foydanailgan adabiyotlar:

1. Асекова Ж.Д./Основные принципы формирования школы дружелюбного отношения к ребёнку

2. Педагогические приемы формирования дружелюбного отношения в группе детей старшего дошкольного возраста Екатеринбург 2018 г.

3. Воспитание дружелюбия как основы нравственно-социального становления дошкольника

4. Муканова С.Д. Развитие школ доброжелательного отношения к ребенку. Астана 2009г.

5. Файзиева У.Ю. /Школа дружелюбного отношения к детям ЮНИСЕФ 2006г.

6. Файзиева У.Ю. /Кластерная модель инклюзивного образования в Республике Узбекистан. Монография. Ташкент Нисо-полиграф -2023г.

MUNDARIJA CONTENTS

1. Lutfilllo Karamatilloевич Ahatov ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ҚАРАШЛАР МАЗМУН–МОҲИЯТИ (ТАСАВВУФИЙ АСАРЛАР АСОСИДА).....	5
2. Sunnatov Tohir Ravshanbekovich AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY QARAMA-QARSHILIKDA BADIY USLUBNING NAMOYON BO’LISHI.....	12
3. Луиза Джураевна Туганова ЖАМИЯТ ҲАЁТИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ТЕНДЕНЦИЯСИ (ЮРИСТ КАСБ ЭТИКАСИ МИСОЛИДА).....	1
4. Umarova Gulhayo Murodiljon qizi KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARDA O’QISHGA BO’LGAN QIZIQISHLARNI RIVOJLANTIRISH.....	23
5. Husaynova Mahliyo Ma’rufjon qizi MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN HOLDA O’ZBEK TILIDAGI MUROJAAT VOSITALARINI O’QITISHNING AFZALLIKLARI.....	32
6. To’xtamurodov Abdulloh Avazbek o’g’li ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA MAXSUS PEDAGOGIKA NEGIZLARI, OILA PEDAGOGIKASI MASALALARI.....	37
7. Madiyarova Shoxzoda Orif qizi JADIDCHILIK HARAKATINING BUYUK NAMOYONDALARIDAN BIRI ABDURAUF FITRATNING ULKAN MEROSI.....	43
8. Umarova Gulhayo Murodiljon qizi KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARDA KLASTERLI TA’LIMNING AHAMIYATI.....	48
9. Husaynova Mahliyo Ma’rufjon qizi, Lutfiddinov Ziyodxon Bekzodbek o’g’li SUN’IY INTELLEKT.....	51
10. Dastirov Davronbek Abrar o’g’li O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL ETILISHI VA MUSTAQILLIKKA ERISHISHIGA DOIR NORMATIV-HUQUQIY HUIJATLAR.....	60
11. Sunnatullayeva Marjona G’ayratovna XALQINI MA’RIFAT SARI YETAKLAGAN YO’LBOSHCHI.....	64
12. Ubayda Yunusovna Fayziyeva, Erkinova Durдона, Bo’ronboyeva Shahzoda MAXSUS VA INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA IJODIY O’QUV MUHITI VA DO’STONA MUNOSABAT YARATILISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI..	71



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
3-son

Nashr qilingan sana: 30.04.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172